

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT AVTOMOBIL-YO‘LLAR INSTITUTI

A. POZILOVA

**LOTIN ALIFBOSIGA ASOSLANGAN O‘ZBEK
YOZUVI VA IMLOSINI O‘RGANUVCHILAR
UCHUN**

Q O‘ L L A N M A

TOSHKENT - 2005

ANNOTATSIYA

Ushbu qo'llanma oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvini o'rganuvchi barcha talabalari va o'qituvchilar hamda korxona va tashkilot xodimlari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan foydalanuvchilar lotin alifbosi va imlosini tez va mukammal egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Qo'llanmada harflar, ularning talaffuzi va yozilishi bilah bog'liq imlo qoidalari, lug'at mashqlari, husnixat mashqlari, matnni lotin alifbosiga o'girish mashqlari, diktant orqali tekshirish mashqlari, o'qish uchun matnlar, yozilishi murakkab bo'lgan ruscha o'zlashma so'z va terminlarning qisqacha lug'ati tavsiya etilgan.

Qo'llanma TAYIning "O'zbek va rus tillari" kafedrası majlisida muhokama qilingan va ma'qullangan. (9- bayonnoma, 2005- yil, 5- may.)

Shuningdek, qo'llanma TAYIning Ijtimoiy-gumanitar fanlar markazi ilmiy-uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan. (9- bayonnoma, 2005- yil, 25- may.)

- Taqrizchilar: 1. O'zMU "Umumiy tilshunoslik" kafedrası mudiri,
f.f.d., professor H. Dadaboyev.
2. F.f.n., S. Muhamedova.
3. F.f.d., prof. O'. Shokirov.

TAYI nusxa ko'paytirish bo'limi. 2005- y.
Hajmi _____, nusxasi_____, buyurtma _____

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida

Ushbu qonun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o‘zbek yozuvining lotin alifbosiga o‘tilgan 1929-1940 yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarni inobatga olgan holda qabul qilindi va u respublikaning har taraflama kamol topishi, jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvshi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi...

O‘zbekiston Respublikasining
Prezidenti

I.Karimov.

Toshkent shahri, 1993- yil, 2- sentabr.

So‘zboshi

Lotin alifbosi dastlab miloddan avvalgi II asrda qadimgi Rimda paydo bo‘lib, so‘ngra takomillashib borgan. Eramizning VIII asriga kelib esa lotin alifbosi asosida boshqa xalqlarning yozuvlari paydo bo‘la boshlagan. Bu yozuv asta-sekinlik bilan Yevropa, Osiyo va hatto Afrika davlatlariga ham tarqaldi. Hozirgi paytda jahon ahlining 30 foizi yoki 70 dan ortiq mamlakat shu yozuv turidan foydalanadi. Bu davlatlarning 30 dan ortig‘i Yevropa, 20 dan ziyodi Osiyo, 20 ga yaqini Amerika mamlakatlaridir.

Olamga G‘arbdan lotin harflari, Sharqdan esa arab raqamlari tarqalgan.

Shunday yozuv turidan foydalanish ilg‘or davlatlar qatoriga qo‘shilishga intilayotgan mustaqil O‘zbekiston uchun ham ayni muddaodir.

Respublikamizning har tomonlama kamol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993- yil 2-3- sentabr kunlari bo‘lib o‘tgan XII chaqiriq XIII sessiyasida “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi va unga 1996- yil 6- mayda o‘zgartirishlar kiritildi.

Ma’lumki, 2005- yilning 1- sentabridan boshlab barcha o‘rta, o‘rta – maxsus va oliy o‘quv yurtlari, korxona va tashkilotlar tamoman lotin alifbosi asosida ish yuritishga o‘tadilar.

Demak, lotin alifbosini bilmaydigan yoki uni to‘liq o‘zlashtira olmagan talabalar, xizmatchilar uchun yetarli darajada savod chiqarish, tez o‘qish malakasini shakllantirish imkonini beruvchi maxsus o‘quv qo‘llanmasi zarur.

Ushbu qo‘llanma aynan ana shu zarurat asosida yozilib, undan talabalar, o‘qituvchilar jamoasi, korxona va tashkilotlar xodimlari bimalol foydalanishlari mumkin.

1-MASHG'ULOT

YOZUV MADANIYATI TARIXI HAQIDA

Har soʻzki koʻngildan oʻldi mavjud,
Xat boʻlmasa, boʻlgay erdi nobud

(Munis).

Yozuv fikrning tashqi ifodasidir. Yozuv orqali kishilar oʻz fikrlarini bir – birlariga, kelajak avlodlarga yetkazadilar. Yozuv tufayli biz ming yillab oldin oʻtgan voqealar, ilm-fan, madaniyat, tillar, urf-odatlar, ijtimoiy hayotda roʻy bergan voqealardan voqif boʻlamiz. Ammo yozuv birdan paydo boʻlmaydi, hatto hozirgacha oʻz yozuviga ega boʻlmagan xalqlar bor. Masalan, Amerika yoki Afrikadagi ayrim mahalliy qabila va urugʻlar oʻz yozuviga ega emas.

Dastlabki yozuv rasmlar orqali amalga oshirilgan boʻlib, u **“piktografik”** yozuv (*pictus* – “chizilgan”, *graphe* – “yozaman” demakdir) deb ataladi. Bunda har bir rasm (yoki narsa) biror maʼnoni ifodalagan. Masalan, quyosh – kunduzni, oy – tunni, toshbaqa – baxtni kabi.

Yozuvning keyingi davri **“ideografik”** yozuvdir (yunoncha *idea* – “tushuncha”, *graphe* – “yozaman” demakdir). Bunday yozuvda biror bir tushuncha uchun maʼlum ramziy belgi olingan. Masalan, koʻz - , asir - , daraxt - , oy - , togʻ -  kabi.

Piktografik va ideografik yozuv ancha murakkab boʻlib, minglab shakllarni chizish va ularning mazmunini bilishni talab etgan. Shuningdek, bu yozuvlarni boshqa qabila kishilari boshqacha tushunishlari ham mumkin edi. Shu sababli insoniyat yozuvning boshqa shakliga – fonografik yozuvga oʻtdi. Dastlab ayrim boʻgʻinlarni, keyinroq ayrim tovushlarni biror belgi bilan ifodalay boshladilar.

Fonetik yozuvning kelib chiqishi qadimgi Finikiya davlati bilan bogʻlanadi.

Xalqlar fonetik yozuvning grek, lotin, arman, gruzin, slavyan, arab yozuvlari kabi turli shakllarini tanlab olganlar.

Qadimgi yozuvlar tosh, suyak, yogʻoch, qamish kabi qattiq jismlarga, soʻngra pergament va qogʻozga yozilgan. Yozuv chapdan oʻngga, oʻngdan chapga va yuqoridan pastga qarab yozilgan.

Turkiy xalqlar yozuvi tarixi

Qadimdan Turkiston xalqlari, jumladan, oʻzbek xalqi ham yuksak madaniyatga ega boʻlgan xalq sifatida dunyoga tanilgan.

Arablar istilosiga qadar Movarounnahrda run, uygʻur, soʻgʻd, moniy va braxma (braxmon) yozuvlari qoʻllanilgan. Diniy mazmundagi asarlar braxma yoki moniy yozuvida, rasmiy hujjatlar uygʻur yoki soʻgʻd yozuvida, ilmiy-adabiy, tarixiy asarlar

run, uyg‘ur, so‘g‘d yozuvlarida yozilgan. Shu bilan birga bu yozuvlarning qo‘llanishi ma‘lum hudud, davr va xalq bilan ham bog‘liq bo‘lgan.

Bu yozuvlarda bitilgan ayrim manbalar hozirgacha saqlanib qolgan.

Runiy yozuvida – O‘rxun-Enasoy (“Qul Tegin”, “Bilka Qog‘on”) tosh bitiklari, uning o‘rniga kelgan **uyg‘ur yozuvida** – qadimgi turkiy yodnomalar (VIII – X asr) – “Oltin yorug‘”, “Maytri simit”, budda va xristian diniga oid yodnomalar, yuridik hujjatlar, **so‘g‘d yozuvida** – Xitoy devorining g‘arb tomonidan topilgan hujjatlar, **moniy yozuvida** – “Xuastuanift” yodgorligi yozilgan. **Uyg‘ur yozuvi** arab yozuvi bilan barobar XV asrgacha qo‘llanilgan. Bu yozuvda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig‘”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul - haqoyiq”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Alisher Navoiyning “Xamsa” kabi nodir asarlari yozilgan.

Arab alifbosi arablarning Movarounnahrni istilo qilgan davrdan boshlab qo‘llanila boshlangan va undan XX asrning 20- yillarigacha foydalanildi. Bu yozuvda minglab ilmiy-ma‘rifiy, diniy, badiiy asarlar, rasmiy hujjatlar bitildi. O‘rta Osiyo xalqlari tarixida ilm-fan, madaniyat gullab yashnagan davr shu yozuv davriga to‘g‘ri keladi. Biroq arab alifbosidagi harflar arab tilida mavjud nutq tovushlari uchun qabul qilingan bo‘lib, yerlik xalqlarning uni o‘zlashtirishi birmuncha murakkab bo‘lgan.

XX asr o‘zbek yozuvi tarixi

O‘rta Osiyoda birinchi marta o‘zbek tilida tovush usulida xat-savod o‘rgatish ishiga Toshkentlik muallim Saidrasul Saidazizov kirishib, 1902- yilda o‘zbek tilining nutq tovushlariga asoslangan “Ustozi avval” nomli kitob yaratdi.

1917- yil voqealaridan keyin arab alifbosini isloh qilish boshlangan. 1921- yil 1-5- yanvarda Toshkentda chaqirilgan til-imlo quriltoyi mavjud arab alifbosi islohi va imlo yuzasidan qaror qabul qildi. Unga ko‘ra, harflarning so‘z boshi, o‘rtasi va oxirida qo‘llanish shakllari soddalashtirildi, **sod, zod, itqi, izg‘i** kabi o‘zbek tiliga umuman xos bo‘lmagan harflar alifbodan chiqarildi, **u, o‘, i, a** unli tovushlari uchun alohida harflar belgilandi. Aynan shu quriltoyda Botu lotin alifbosiga o‘tish to‘g‘risidagi taklif bilan chiqadi. Shundan keyin 1927- yilgacha bu masala tilga bag‘ishlangan turli quriltoylarda ko‘p marotaba ko‘tarildi.

O‘zbekiston Markaziy Ijroiya Komitetining 1928- yil mart oyidagi III sessiyasi lotin alifbosini joriy qilish masalasini ko‘rib chiqib, bu alifboni davlat alifbosi deb qabul qiladi. SSSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi va SSSR Xalq Komissarlar Soveti 1929- yil 7- avgustdagi maxsus qarori bilan bu alifboni ma‘qulladi.

OZBEK ALIFBASI. نويزبك نه لفيباسى

a-a ئا - ا ata,	b-B ب	d-d د	f-f ف	m-m م
o-o ئو - و o-o ئۆ - ۆ solar, solsg.	t-T ت	r-r ر	q-q ق	n-n ن
u-u ئۇ - ۇ y-y ئېيت buxug, tyxyk.	p-P پ	z-Z ز	k-K ك	v-V و
q-p (ق) (پ) l-l (ل) (ل) qaldo, heldi.	z-Z ژ - ج	s-S س	g-g گ	h-h ه
o-o ئ - ا mon, son.	c-C چ	z-3 ش	n-n ش	j-j ي
e-e ئې - ا bel; sel.	x-X خ [خ]	cy° غ	l-L ل	'mslym مه علوم

1926- yil avgustda qabul qilingan alifbo

Maktablarda yangi alifboga o'tish 1927-28- o'quv yilidan boshlangan.

Bu alifbo 1940- yilgacha O'zbekiston hududida qo'llanilib keldi.

1940- yil 8- mayda O'zbekiston Oliy Soveti sessiyasi amaldagi o'zbek yozuvi o'rniga kirill alifbosi asosidagi yangi alifboga o'tish to'g'risida qonun qabul qildi.

ALIFBE

Aa	Bb	Cc	Çç	Dd
<i>Aa</i>	<i>Bb</i>	<i>Cc</i>	<i>Çç</i>	<i>Dd</i>
Ee	Əə	Ff	Gg	Q q
<i>Ee</i>	<i>Əə</i>	<i>Ff</i>	<i>Gg</i>	<i>Q q</i>
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll
<i>Hh</i>	<i>Ii</i>	<i>Jj</i>	<i>Kk</i>	<i>Ll</i>
Mm	Nn	Nn	Oo	Pp
<i>Mm</i>	<i>Nn</i>	<i>Nn</i>	<i>Oo</i>	<i>Pp</i>
Qq	Rr	Ss	Şş	Tt
<i>Qq</i>	<i>Rr</i>	<i>Ss</i>	<i>Şş</i>	<i>Tt</i>
Uu	Vv	Xx	Zz	Zz
<i>Uu</i>	<i>Vv</i>	<i>Xx</i>	<i>Zz</i>	<i>Zz</i>

1934-1940- yillarda qo'llangan o'zbek alifbosi

Bu yozuv o'z davrida o'zbek xalqining rus va Yevropa xalqlari adabiyoti, fan va texnika yangiliklari, madaniyati bilan tanishuvida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1989- yil 21- oktabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdagi sessiyasida o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi haqidagi qonun qabul qilindi. Ona-Vatanimizning mustaqillikka erishuvi esa uning jahondagi ilg'or davlatlar qatoriga qo'shilish, ular bilan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida hamkorlikni mustahkamlashga bo'lgan ehtiyojini yana ham kuchaytirdi. Shular zaminida 1993- yil 2- sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XIII sessiyasida "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va imlo qoidalarini ishlab chiquvchi ishchi guruh tuzildi.

"O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini"ni ishlab chiqish jarayonida ayrim fikr-mulohazalar tug'ildi, shuningdek yozuv jarayonida texnika vositalaridan kengroq foydalanish, harflar shaklini jahondagi taraqqiy etgan davlatlar alifbosiga yaqinlashtirish maqsadida alifbodagi ayrim harflar shaklini isloh qilish zarurati paydo bo'ldi. Natijada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995- yil 6- maydagi qarori bilan "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Oliy Kengash qaroriga o'zgartirishlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995- yil 24- avgustdagi 339-son qarori bilan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini"ni tasdiqladi. Asosiy qoidalar "Harflar imlosi", "Asos va qo'shimchalar imlosi", "Qo'shib yozish", "Ajrati yozish", "Chiziqli bilan yozish", "Bosh harflar imlosi" va "Ko'chirish qoidalarini" bo'limlaridagi 82 moddadan tashkil topgan.

Umid qilamizki, bu yozuv kelajagi buyuk mamlakatimiz ravnaqi, farzandlarimiz kamoli uchun xizmat qiluvchi eng mukammal yozuv bo'lib qoladi.

2-MASHG'ULOT

Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvi

1993- yil 2- sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qabul qilinib, 1995- yil 6- mayda o'zgartirishlar kiritilgan lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvida jami 29 ta harf mavjud. Tilimizda mavjud bo'lgan 26 nutq tovushining har biri uchun bittadan ramziy belgi, ya'ni harf qabul qilingan, 3 ta nutq tovushi uchun esa harflar birikmasi qabul qilingan.

Bular: **sh**, **ch** va **ng** tovushlaridir. Shu harflardan 6 tasi unli tovushlarni, 23 tasi esa undosh tovushlarni ko'rsatadi.

Undosh tovushlarni ifodalovchi harflardan 18 tasi 18 xil nutq tovushini, 2 tasi, ya'ni **s** va **j** harflarining har biri 2 nutq tovushini bildiradi, shuningdek, lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvida **tutuq** va **ko'chish belgilari** ham qo'llaniladi.

YANGI ALIFBO

Bosma	Yozma	Harf nomi	Bosma	Yozma	Harf nomi
Aa	<i>Aa</i>	a	Qq	<i>Qq</i>	qe
Bb	<i>Bb</i>	be	Rr	<i>Rr</i>	er
Dd	<i>Dd</i>	de	Ss	<i>Ss</i>	es
Ee	<i>Ee</i>	e	Tt	<i>Tt</i>	te
Ff	<i>Ff</i>	ef	Uu	<i>Uu</i>	u
Gg	<i>Gg</i>	ge	Vv	<i>Vv</i>	ve
Hh	<i>Hh</i>	he	Xx	<i>Xx</i>	xe
Ii	<i>Ii</i>	i	Yy	<i>Yy</i>	ye
Jj	<i>Jj</i>	je	Zz	<i>Zz</i>	ze
Kk	<i>Kk</i>	ke	O'o'	<i>O'o'</i>	o'
Ll	<i>Ll</i>	el	G'g'	<i>G'g'</i>	g'e
Mm	<i>Mm</i>	em	Sh sh	<i>Sh sh</i>	she
Nn	<i>Nn</i>	en	Ch ch	<i>Ch ch</i>	che
Oo	<i>Oo</i>	o	Ng ng	<i>Ng ng</i>	nge
Pp	<i>Pp</i>	pe			

1993- yil 2- sentabrda qabul qilinib, 1995- yil 6- mayda o'zgartirishlar kiritilgan yangi o'zbek alifbosi

Tilimizdagi har bir nutq tovushi uchun qabul qilingan ramziy belgi **harf** deb ataladi. Harflarning belgilangan, qat'iy tartibi **alifbo** deyiladi. Har bir o'qimishli inson alifbo tartibini bilishi lozim. Uni yodda saqlab qolish uchun quyidagi sun'iy so'zlar guruhini yod olishni tavsiya etamiz: **abad, efgah, ijkal, manop, qarsat, uvxayz, o'g'ash, chang.**

Ma'lumki, 1993- yil 2- sentabrda qabul qilingan alifboda jami 31 ta harf va 1 ta tutuq belgisi mavjud bo'lib, u amalga tatbiq etilayotgan alifbodan quyidagilar bilan farq qiladi:

1993-yil 2-sentabr		Kirill yozuvida	1995-yil 6-may	
Cc	Cc	Цц	Ss	ʃʃ
Ii	Ii	Ии	li	ʎi
Qq	Qq	Кк	Qq	q q
Zz	Zz	Зз	Zz	z z
Cc	Cc	Чч	Ch ch	ch ch
Gg	Gg	Гг	G' g'	g g'
Jj	Jj	Жж	Jj	j j
Nn	Nn	Нн	Ng ng	ng ng
Oo	Oo	Ų ų	O' o'	o' o'
Ss	Ss	Шш	Sh sh	sh sh

O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari

Tilimizda mavjud bo'lgan nutq tovushlari ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra ikkiga, ya'ni **unli** va **undosh tovushlarga** bo'linadi. **Unli tovushlar** sof ovozdan hosil bo'lib, talaffuz jarayonida og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydi. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida unlilar soni oltita.

Bular: **A a, O o, U u, O' o', I i, E e.**

Unli tovushlar tilning yotiq holatiga, tik holatiga va lablarning ishtirokiga ko'ra tavsiflanadi.

Unli tovushlar tavsifi

Tilning tik harakatiga ko'ra	Tilning yotiq harakati va lablarning ishtirokiga ko'ra	
	Old qator, lablashmagan	Orqa qator, lablashgan
Yuqori (tor) unlilar	i	u
O'rta (o'rta keng) unlilar	e	o'
Quyi (keng) unlilar	a	o

A a unlisining yozilishi va talaffuzi

A a unlisi – old qator, lablashmagan, keng unli. **Aka, mana, olam, katta, kalava, manzara, gavhar, vazifa, jasur** kabi so'zlarda old qator unlisi sifatida; **aql,**

vasiqa, daqiqa, maqola, xalq, g'alla, g'ayrat, xavf, qarg'a, g'aram kabi soʻzlarda **q, gʻ, x** undoshlari bilan yonma-yon kelib, orqa qator unlisi sifatida talaffuz etiladi.

I i unlisining yozilishi va talaffuzi

I i unlisi – old qator, lablashmagan tor unli. *Til, dil, jim, iz, ish, igna, yigit, kiyik, kichik, yil, yigirma, kiyim, kigiz, vimpel, richag, vishka* kabi soʻzlarda old qator unlisi sifatida; *qishki, qirqinchi, qiyshiq, g'isht, g'ilof, xira, xirmon, xitob* kabi soʻzlarda **q, gʻ, x** tovushlari bilan yonma-yon kelib, orqa qator unlisi sifatida qattiq talaffuz etiladi.

Arab-fors va rus tilidan oʻzlashgan bir boʻgʻinli soʻzlarning qoʻsh undoshlari oʻrtasida qisqa **i** tovushi talaffuz etilsa-da, ammo yozilmaydi.

1 - topshiriq. Quyidagi soʻzlarni daftaringizga koʻchiring va yozilishini eslab qoling.

Azm, aysh, arz, aft, aql, badnafs, flkr, bahs, bazm, bayt, brak, dafn, hajm, jazm, jalb, jahl, juft, kasb, keks, kibr, mayl, metr, mehr, mashq, naqsh, nasr, nazm, qavs, qadr, sabr, satr, vahm, charm.

U u unlisining yozilishi va talaffuzi

U u unlisi - orqa qator lablashgan, tor unli. *Quduq, bugʻu, bugʻdoy, muqova, tumshuq, xursand, xushnud* kabi soʻzlarda orqa qator unlisi sifatida; *gulshan, gunoh, gumon, kunjut, kurtak, zulm, juvoz, lunj* kabi soʻzlarda old qator unlisi sifatida talaffuz qilinadi.

2 – topshiriq. Quyidagi soʻzlarni daftaringizga koʻchiring va yozilishini bilib oling.

Burun, butun, buzruk, buyruq, durust, guruch, guruh, huquq, hukumat, jujun, kunjut, kukun, mushuk, nufuz, quruq, suruv, turkum, tutun, tuzum, uzum, uzuk, xushnud, gʻurur, shukur, chumchuq, chuchuk.

O o unlisining yozilishi va talaffuzi

O o unlisi – lablashgan, orqa qator keng unli. U soʻzlarning barcha boʻgʻinlarida kela oladi: *bozor, bola, hikoya, obod, ovoz, olchazor, matbuot* kabi.

Sogʻ, soqol, togʻ, ogʻriq, gʻor, qorongʻi, qozon, xol soʻzlaridagi kabi chuqur til orqa undoshlari **q, gʻ, x** bilan yonma-yon kelganda orqa qator unliga moyil boʻladi.

Rus tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlarda **o** harfi ruscha unli tovushni bildiradi: *tom, tok, ton, orden, rol, obzor, beton* kabi. Ammo *sovxoz, kolxoz, agronom, mikrofon* soʻzlaridagi birinchi **o** tovushi **a** ga; *rektor, direktor, traktor* soʻzlaridagi **o** tovushi **i** ga moyil boʻlsa ham, har doim **o** yoziladi.

3 – topshiriq. Quyidagi soʻzlarni nuqtalar oʻrniga **a**, **o** yoki **i** tovushlaridan birini qoʻyib oʻqing va ularning til holatlariga koʻra talaffuzini tushuntiring.

...sm...n, ...ft...b, b...tanika, gl...bus, n...vat...r, ...pt...ka, sp...rt, k...mp...zit...r, ...nkubat...r, m...h...r, m...rh...m...t, bl...kn...t, balk...n, m...n...l...g, metr..., m...t...r, agr...bi...l...g, ...rden, naz...rat, navq...r...n.

4 – topshiriq. Yozuvda omonimlik xususiyati kasb etgan quyidagi soʻzlarni oʻqing, oʻzingiz ham ana shunday soʻzlardan topib daftaringizga yozing.

Oʻzbekcha soʻzlar	Ruscha oʻzlashma soʻzlar
moda	moda (мода)
ton	ton (тон)
tom	tom (том)
tok	tok (ток)
yod (ёд)	yod (йод)
xor	xor (хор)
atlás	átlas (átлас)

5 – topshiriq. Soʻzlarni oʻqing. Ularning tarkibidagi **o** tovushining **o** yoki **a** oʻqilishiga koʻra guruhlashtiring.

Kino, kombinat, tonna, komanda, balkon, avtomat, futbol, Moskva, optika, sport, advokat, teorema, banknot, diagonal, torpeda, model, notarius, boks, million.

6 - topshiriq: **o** yozilib, **a** yoki **i** oʻqiladigan soʻzlardan 20 tasini topib yozing.

Oʻ oʻ unlisining yozilishi va talaffuzi

Oʻ oʻ unlisi – orqa qator, lablashgan, oʻrta keng unli. Yangi lotin yozuvida bu tovush **o** harfining oʻng tomoniga, shu harfning yuqori qismi baravarligida koʻchish belgisini (teskari vergul) qoʻyish bilan ifodalanadi. Yozuvda esa **o** harfining tepasiga toʻlqinsimon chiziq tortiladi.

U, asosan, soʻzning birinchi boʻgʻinida uchraydi: **boʻz, boʻgʻin oʻzbek, doʻppi, koʻkat, gʻoza, xoʻra** kabi. Ammo oʻzlashma soʻzlar tarkibida oxirgi boʻgʻinlarda ham qoʻllanadi: **roʻbaroʻ, xushroʻy, gulroʻ** kabi.

7 – topshiriq. Soʻzlarni koʻchiring va yozilishini yodda tuting.

Boʻlim, boʻyin, boʻliq, doʻndiq, doʻmbira, hoʻkiz, koʻrik, koʻprik, moʻmin, soʻlim, soʻri, toʻqqiz, toʻplam, toʻqim, choʻziq, choʻmich, choʻri, choʻchimoq, oʻttiz, oʻrim.

E e unlisining o‘qilishi va yozilishi

E e inlisi – old qator lablashmagan, o‘rta keng unli. U so‘z boshida yoki ochiq bo‘g‘in bo‘lib kelsa, ochiqroq talaffuz etiladi: **et, ehson, etik, negiz, sekin, meva, meros** kabi. **Mergan, keltir, zehn, tepki** kabi so‘zlarda esa biroz yopiqroq talaffuz etiladi.

8– topshiriq. So‘zlarni lotin alifbosiga o‘girib ko‘chiring.

Эгиз, эгри, эзгу, эрта, этик, бел, экватор, телефон, телеграф, делегат, элат, эр, эман, безак, кетмон, экипаж.

9 – topshiriq. Husnixat mashqi.

Kishida odob bo‘lsa, ilm ham bo‘lishi lozim. Odob aqlga bog‘liq narsa. Aql ustiga odob ham qo‘shilsa, nur ustiga nur bo‘ladi. Ulug‘lik aql va odob bilan vujudga keladi. Aqlning qadri odob bilan, boylik qadri saxovat bilan, quvvat qadri bahodirlik bilan oshadi.

“Favoqih al - julaso”.

3 - MASHG‘ULOT

Qo‘sh unlilar va yonma-yon keladigan unlilar imlosi

O‘zbek tiliga arab-fors yoki rus-yevropa tillaridan kirib o‘zlashib qolgan so‘zlar tarkibida unli va undosh tovushlarning qo‘sh holatda yoki yonma-yon kelish holatlari uchraydi: **vakuum, qiroat, shuaro, voqeyi** kabi.

Ba‘zan ketma-ket kelgan unlilar o‘rtasiga **y** undoshi qo‘shib talaffuz qilinsa ham, yozilmaydi: **shoir, vaqea, doimiy, foiz** kabi.

1 – topshiriq. So‘zlarni lotin alifbosiga o‘girib ko‘chiring va yozilishini yodda tuting.

Манфаат, матбаа, мутолаа, мудофаа, мурожаат, бадийй, мутаассиб, таажжуб, тааллуъ таассуб, таассурот, таассуф, баайни, табиий, иншоот.

2 – topshiriq. Quyidagi so‘zlarning yozilishi va o‘qilishidagi farqli xususiyatlarni aniqlang.

ia – diabet, diagnoz, dialekt, dialog, diametr, diapazon, filial, fojia, fortepiano, industrial, pianino, radio, milliard, miniatura, radioaktiv;

oi – doir, doira, foiz, ibtidoiy, joiz, voiz, selluloid, xoin, Noiba, Noila, Toir, toifa;

eo – feodal, geolog, gulbeor, ideolog, reostat, meteorolog, geometrik.

io – gladiolos, bibliograf, biograf, biolog, biotok, diagonal, idioma, istiora, reaksion, rioya, sionizm, million, melioratsiya, missioner, miokard.

ao – faol, faoliyat, taom, maorif, maosh.

oa – fotoalbom, fotoapparat, jamoatchilik, sanoat, soat, ziroat, qanoat, shijoat.

ua – guash, intellektual, repertuar, memuar, muallif, muallaq, muammo, muassasa, muattar, muazzam, muomala, muovin, majmua, shuaro.

3 – topshiriq. Husnixat mashqi.

Bir kuni Iskandardan:

Sen ustozingni onangdan ko‘ra yaxshiroq hurmat qilar emishsan, shu rostmi? - deb so‘radilar.

- Ha, – deb javob berdi Iskandar, – onam meni yo‘qlik osmonidan olib tushdi, ustozim esa yerdan ko‘kka ko‘tardi.

“Favoqih al - julaso”

4 – topshiriq. Matnni lotin alifbosiga o‘girib ko‘chiring

Кимки китобга кшп боьса, китоб унинг зеьнини очади,
завьини оширади, сщзга чечан ьилади.

Китоб щтмишдан ьам, келажакдан ьам хабар бергучидир.

Китоб одоб-аьлоьнинг кони, билимнинг эса булоцидир.

“Оталар сщзи”.

5 – topshiriq. Matnni o‘qing va unli tovushlarning yozilishiga ahamiyat bering.

Bir yildan so‘ng Otabek usta Olim bilan birga Toshkentga keldi. Hoji va O‘zbek oyim og‘iz ochib, undan ranjiy olmadilar. U mehmonlar kabi edi. Otasi va onasi bilan ochilib so‘zlashmadi. Usta Olim bilan bir hafta chamasi Toshkentda turib, eng so‘nggi kech yolg‘iz ko‘yi Kumush qabri yonida bo‘ldi. Otabek holsizlanib, oyoq uzra turdi va orqasidagi yarim yalang‘och ko‘lankani ko‘rib, bir necha qadam qabr tomonga tislandi... Ko‘lanka yalingansimon unga yaqin yurib keldi.

-Kim bu?

-Men Kumush!

Otabek tovush egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi.

-Ket munda!

-Men Kumush!.. – dedi yana Zaynab, ammo ketmay iloji qolmadi. Zeroki, dunyodagi eng yaqin kishisi unga “ket!” amrini bergan edi.

Zaynab orqasiga qaray-qaray Otabekdan uzoqlashdi. Otabek qaytib unga qaramadi, qabr yonida tiz cho‘kdi.

Ertasi kuni O‘zbek oyim yig‘lay-yig‘lay Yodgorbek uchun tiktirgan kiyimlarini o‘g‘liga topshirdi. Otabek usta Olim bilan birga Marg‘ilonga jo‘nadi. Bundan so‘ng Otabek Toshkentga qaytib kelmadi, bir necha qayta O‘zbek oyimning o‘zi Marg‘ilonga borib keldi.

4 – MASHG‘ULOT

***E, Ė, Ю, Я* harflarini ifodalovchi nutq tovushlarining yangi alifbo va imloda berilishi**

E, Ė, Ю, Я harflari ikki nutq tovushi: *y+e, y+o, y+a, y+u* tovushlarining birikuvidan hosil bo‘ladi. Shu sababli ularni ifodalash uchun alohida harfiy belgi qabul qilinmagan. Bu harflar birikmasi o‘zbekcha so‘zlarda istagan bo‘g‘inda kelishi mumkin:

So‘z boshida	So‘z o‘rtasida	So‘z oxirida
Ye: yetti - етти	qayer ьаер	- Aliyev - Алиев
Yo: yozuv - ёзув	Sayyora- Сайёра	dunyo - дунё
Yu: yutuq - ютуь	buyuk буюк	- ona-yu bola-она-ю
Ya: yagona - ягона	tayanch- таянч	tuя - туя

Lotin alifbosiga asoslangan yangi o‘zbek yozuvida so‘zlar, asosan, qanday talaffuz qilinsa, shunday yoziladi. Shunga ko‘ra, *ye* tovushi ikki undosh orasida ochiq *e* unlisini bildiradi va shunday yoziladi: ***ber, ter, kel, sher, devor*** kabi.

1 – topshiriq. So‘zlarni *ye* va *e* tovushlariga ko‘ra ikki ustunga ajratib yozing.

Yedirmoq, ertak, yeyishli, yelkan, ermak, yetmish, teatr, yengil, demak, yelpig‘ich, reja, yer, televizor, atelye, relyef, kelajak, foye, beshik, meva, realizm, aryergard, monelik.

2 – topshiriq. Berilgan so‘zlarni ko‘chiring va *yo* birikmali so‘zlarning tagiga chizing.

Yosh, ayyor, yo‘l, bo‘yoq, yo‘lbars, piyoz, yo‘ldosh, yo‘rgak, chempion, yo‘nmoq, bayon, tayyor, yo‘tal, yo‘q, dunyo, imtiyoz, dastyor, daryo, bemehr, yodgorlik.

3 – topshiriq. Nuqtalar o‘rniga *yu* yoki *ya* harf birikmalaridan birini qo‘yib ko‘chiring.

Af...n, abadi...t, bu...k, bu...m, akademi..., aksari...t, b...ro, dev...rak, ayni...t, ...tuq, ...shil, mu...lish, komp...ter, ...gona, ...pqa, tu...lmoq, bu...rmoq, interv..., badii...t.

4 – topshiriq. Matnni nuqtalar o‘rniga kerakli tovushlarni qo‘yib husnixat bilan ko‘chiring.

...shligingni asra. Dun...da undan ...xshi narsa yo‘q. Undan qimmatli narsa ham yo‘q. Kimda-kim ...shligida o‘zini ulug‘ va ajo...ib ishlar bilan ...ki hech bo‘lmasa oddiy, lekin halol va foydali m...hnat bilan bog‘lamagan ...kan, u ...shligi qanchalik ...rqin xotiralar qoldirgan bo‘lmasin, uni ha...f k...tgan, deb hisobla...v...rishi mumkin.

5 – topshiriq. Maqollarni o‘qing. Ularning ma’nosini izohlang.

Yaxshidan ot qoladi, yomondan dog‘.

Yomon bilan yurdim, qoldim uyatga
Yaxshi bilan yurdim, yetdim niyatga.

Er bo‘lsang, sher bo‘l,
Sher bo‘lmasang, yer bo‘l.

Yantoqdan atir chiqmas,
Qo‘rqoqdan – botir.

Yomonni yaxshi qilish – dononing ishi,
Yaxshini yomon qilish – nodonning ishi.

Til yugurugi boshga, oyoq yugurugi oshga.

6 – topshiriq. Matnni lotin alifbosiga o‘girib yozing.

Ер ьуёш атрофида бир йилда бир марта айланиб чиьади. Шу даврда у щз сиртини Ёуёшга ьар хил вазиятда «тутиб» беради. Ёуёш осмонда баланд кщтарилганда, унинг нурлари Ерга тщцри тушиб, уни кучлирь ьиздиради ва Ер юзи иссиь бщлади. Ёуёш унча баланд кщтарилмай, унинг нурлари Ерга ьиялаб тушганда, Ерни пайпаслаб щтиб кетгандек бщлади ва Ер юзида совуь туради.

«Болалар энциклопедияси» дан.

7 – topshiriq. Matnni o‘qing va o‘z fikrlaringizni bayon qiling.

Baxil

Baxil deb o‘zida bor narsani muhtojdan ayagan kishiga aytilur. Baxil uch qismdir: birinchisi, o‘zi oshar, birovga bermas, ikkinchisi, o‘zi ham yemas, birovga ham bermas. Uchinchisi birovni birovga berganini ham yoqtirmas, balki qo‘lidan kelsa, uni bermoqdan man qilur. Mana bularning birinchisiga baxil, ikkinchisiga xasis, uchinchisiga laim deyilur.

Ruscha o‘zlashma so‘zlarda *ye, yo, yu, ya* harflarining ifodalanishi

Ruscha o‘zlashma so‘zlarda mazkur to‘rt harf qoida asosida ikki xil vazifada qo‘llanadi.

1. a) bu harflar so‘zning boshida yoki unli tovushdan keyin kelganida ikki nutq tovushini ifodalaydi, chunonchi: *yashik, yubka, iyun, zayom, priyomnik, armiya, mayor, menyu, yogurt, yepiskop* so‘zlaridagi kabi;

b) *ye, yo, yu, ya* harflari ayirish belgisidan hamda ayirish belgisi vazifasida qo‘llangan yumshatish belgisidan keyin kelganida ikki nutq tovushini bildiradi, chunonchi: *адъютант - adyutant, премьера – premyera, пьеса – pyesa, ателье – atelye* so‘zlaridagi kabi.

2. Ruscha o‘zlashma so‘zlarda *ye, yo, yu, ya* harflari undosh tovushlardan keyin kelganida bir unli tovush, ya‘ni *a, u, o* yoki *e* tovushiday aytiladi va yoziladi. Masalan: *сентябрь – sentabr, октябрь – oktabr, глюкоза – glukoza, режиссёр – rejissor*.

Bunday so‘zlardan mazkur qoidalar doirasiga kirmaydiganlari ham bor. Ularning qanday yozilishi imlo lug‘atlarida ko‘rsatiladi. Masalan: *samolyot, montyor* so‘zlaridagi kabi.

8 – topshiriq. So‘zlarni o‘qituvchi yordamida eshitib yozing va xatolaringizni tekshiring.

Aktyor, batalyon, bilyard, biologiya, bronepoyezd, byuro, byust, gravyura, Nyu – York, Yoshkar – Ola, syezd, dvoryan, intervyu, felyeton, kompanyon, medalyon, obyekt, subyekt, syomka, kayuta, uyezd, gigiyena, knyaz, kuryer.

9 – topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va yozilishini yodda saqlang.

бронетранспортёр	bronetransportyor	ключ	kluch
бюджет	budjet	костюм	kastum
бюллетень	bulleten	Людмила	Ludmila
вертолёт	vertolyot	Люксембург	Luksemburg
гастролёр	gastrolor	люкс	luks
гипюр	gipur	миномёт	minomyot
губерния	guberniya	моллюска	molluska
дублёр	dublor	плюс	plus
ингалятор	Ingalator	пряник	pranik
иллюзия	illuziya	парашют	parashut

иллюминатор	illuminator	пляж	plaj
кастрюлька	kastrulka	регулятор	regulator
катюша	katusha	самолёт	samolyot
клёш	klosh	салют	salut
клюква	klukva	сюжет	sujet
коляска	kolaska	сюита	suita

Familiyalar imlosi

XX asr boshlariga kelib tilimizda familiyalarni ko'rsatuvchi o'zlashma qo'shimchalar paydo bo'ldi.

Bular: **-ov, -ova, -yev, -yeva, -ev, eva** qo'shimchalaridir. Ular kishi ismiga qo'shib, familiyalarni hosil qiladi. Masalan: **Yunusov, Saidova, Rahmatullayev, Mirzayeva, Ergashev** kabilar.

10 – topshiriq. Quyidagi kishilarning ism-shariflariga tegishli qo'shimchalarni qo'shib yozing.

Yo'ldosh...	Sayyora	Musa...	Doniyor
Qayum...	Ayub	Tilla...	Diyorjon
Ilyos...	Muhayyo	Ali...	Yayra
Yegor...	Yevgeniy	Tosh...	Yunus
Yevstigne...	Yuriy	Tyutch...	Yakov

Izoh: **Yusuf, Ma'ruf** kabi so'zlardan familiya hosil qilish uchun **-ov** qo'shimchasi qo'shilganda so'z o'zagidagi **f** tovushi **p** kabi aytilsa ham, asliga muvofiq yoziladi: **Yusufov, Ma'rufuv** tarzida.

11 – topshiriq. Matnni o'qing va familiyalar imlosiga e'tibor bering.

-Mana shu kishi Hamletni o'ynaydimi? Men hech narsa tushunmayapman, - dedi Shlepanov hayron bo'lib.

Og'a bilan yordamchi rejissor Bobo Xo'jayev bir-biriga qarab jim qolishdi. Shunda og'a "Bobo ikki kun Abror bilan bitta monolog ustida ishlashsin, bu kishi eshitsin", - deydi. Darhaqiqat, ikki kundan keyin Abror Hidoyatov sahnada "yo o'lish, yo qolish" monologini o'qiydi. Boshyalang, o'z kiyimida, faqatgina plash kiygan, xolos. Abror Hidoyatovning ayni sog'lom, norg'ul, yetilgan payti edi, jingalak qora sochlari unga alohida fayz bag'ishlardi. Bo'sh sahnada, goh qo'lini ko'ksiga qo'yib, goh plash tugmasini o'ynab, jarangdor, quyuq ovozi bilan monologni chunonam berilib o'qidi-ki, uning holatga kirish qobiliyati, Shekspir fikrlarini chuqur tushunib, qalbiga singdira olgani hammamizni qoyil qoldirdi. Xususan, kechagina bunga shubha bilan qaragan Shlepanov lol qolgan edi.

S. Mahmudova. "Bir yurakning yuz jasorati".

12 – topshiriq. Husnixat mashqi.

Sohibqiron Amir Temur 1336- yili Shahrisabz yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida barlos urug'idan bo'lmish Bahodur Muhammad Tarag'ay xonadonida dunyoga keldi. 1361- yili Kesh viloyatiga hokim bo'ldi. Harbiy taktika va strategiyada yakto darajaga yetdi.

Amir Temur 1371- yili "Amiri Temuri Ko'ragon" nomi bilan Movarounnahr va Xurosonning yagona hukmdoriga aylandi. Amir Temur 1405- yili Xitoyning O'tror shahrida vafot etdi.

5– MASHG'ULOT

Undosh tovushlar tasnifi

Hozirgi o'zbek adabiy tilida 25 ta tovush mavjud bo'lib, ular shovqin va ovozning ishtirokiga ko'ra farqlanadi. Agar undosh tovush faqat shovqindan iborat bo'lib, unda ovoz mutlaqo qatnashmasa, yoki ovozning ishtiroki kam miqdorda bo'lsa, bunday tovushlarni **shovqinlilar** deyiladi.

Agar undosh tovush tarkibida ovoz miqdori nisbatan yuqori bo'lsa, ularni **ovozdor (sonor) tovushlar** deyiladi. Bular: **m, n, hg, r, l**.

Undoshlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra, hosil bo'lish o'rniga va hosil bo'lish usuliga ko'ra tavsiflanadi.

Jadval

Ovoz va shov-qinning ishti-rokiga ko‘ra		Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra	Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra						Bo‘-g‘iz to-vush-lari
			Lab tovushlari		Til tovushlari				
					Til oldi	Til o‘rta	Til orqa		
			Lab-lab	Lab-tish			Sa-yoz	Chuqur	
Shov-qinli-lar	Jarangli	Portlov-chilar	b		d		g		
	Jarangsiz		p		t		k	q	
	Jarangli	Sirg‘aluv-chilar	v		z, j	y		g‘	
	Jarangsiz			f	s, sh			x	h
	Jarangli	Qorishiq tovushlar			j				
	Jarangsiz				ch				
Ovoz-dor to-vush-lar	Jarangli	Burun tovushlari	m		n		ng		
		Yon tovushi			l				
		Titroq tovush			r				

Shovqinli undoshlar ovozning ishtirokiga ko'ra **jarangli** va **jarangsizlarga** bo'linadi. **Jarangli undoshlar** tarkibida shovqin bilan birga oz darajada ovoz ham ishtirok etadi: **b, v, g, d, j, dj, z, y, g'**.

Jarangsiz undoshlar ovoz mutlaqo qatnashmaydigan, faqat shovqindangina iborat bo‘lgan tovushlardir: **k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, h.**

Jarangli undoshlar o‘z jarangsiz undoshlariga ega bo‘lib, nutq jarayonida jarangli tovushlar jarangsiz tovushlar bilan almashishi mumkin.

Jarangli undoshlar	b	v	d	j	z	g	dj	g‘	y	l	m	n	r	ng		
Jarangsiz undoshlar	p	f	t	sh	s	k	ch	q	-						x	h

B b va P p undoshlari

1. **B b** – lab-lab, portlovchi, jarangli undosh. So‘zning boshida, o‘rtasida va oxirida keladi. So‘z oxirida **b** doim jarangsizlanib talaffuz qilinadi. **Kitob** – **kitop**, **savob** – **savop**. Ba‘zan so‘z o‘rtasida ham jarangsizlashadi: **mubtalo** – **muptalo**, **ibtido** – **iptido**.

B undoshi ba‘zan og‘zaki nutqda so‘z boshida **m** kabi aytiladi: **burun** – **murun**, **buncha** – **muncha**. Ba‘zan esa unlilar orasida **v** kabi aytilsa ham, **b** yoziladi: **kabob** – **kavob**, **qaray berdi** – **qarayverdi**.

2. **P p** – lab-lab, portlovchi, jarangsiz undosh tovush. So‘zning boshida, so‘z o‘rtasida va so‘z oxirida keladi. U ko‘pincha **f** va **b** tovushlarining o‘rnida talaffuz etiladi, ammo asliga muvofiq yozilaveradi: **foy**z – **pay**z, **safo** – **sapo**, **insof** – **insop**, **maktab** – **maktap**.

1 – topshiriq. So‘zlardagi **v** harfining **v** yoki **f** tarzida talaffuz etilishiga ko‘ra ikki guruhga ajratib yozing.

Avf, avtobus, avzo, avtomat, adovat, avtonom, aktivlik, avtoruchka, amakivachcha, anqov, Komilov, Javohir, saylov, Azizov, kuyov, komandirovka, olov, lokomotiv, mayovka, tavof, suluv, payrov, putyovka, kosmonavt.

V v va F f undoshlari

1. **V v** – lab-lab, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovush. So‘zning boshida, o‘rtasida va oxirida kela oladi. U sof o‘zbekcha so‘zlarda so‘z boshida qo‘llanmaydi. Og‘zaki nutqda bu tovush lab-tish ko‘rinishiga ham ega bo‘lib, talaffuzda **p** yoki **f** ga o‘tadi: **Ergashev** – **Ergashep**, **Fozilov** – **Fozilof**. Biroq imlo qoidasiga muvofiq yozilaveradi.

2. **F f** – lab-tish, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovush. So‘zning boshida, o‘rtasida va oxirida keladi: **faqat**, **fikr**, **latif**, **afg‘on** kabi. Talaffuzda ba‘zan **p** ga o‘tishi mumkin: **faner** – **paner**, **farzand** – **parzand**, **foyda** – **poyda**, **Yusuf** – **Yusup**, **afsus** – **apsus** kabi.

2 – topshiriq. Soʻzlarni oʻqing. Ulardagi **b** harfining **p, v** yoki **b** oʻqilishiga koʻra uch ustunga ajratib yozing va tushuntiring.

Adabiy, ajib, sabr, adabiyot, ajab, sarboz, belbogʻ, ayb, kabob, vibrator, azob, yubordi, gubernator, arab, masxaraboz, asbob, dabdaba, janob, duxoba, Dehqonboy, bab-baravar, jonbozlik, odob, Yoʻlchiboy, muhabbat.

3 – topshiriq. Maqollarni lotin yozuvida husnixat bilan koʻchiring.

Булбул чаманни севар,
Одам – Ватанни.

Душманга нафрати бщлмаганнинг
Ватанга муяббати бщлмас.

Пиринг кучли бщлгунча,
Билиминг кучли бщлсин.

Ваьиллаган ваьтни щтказар,
Ьщлидан наьдни кетказар.

Фил кщтармаганни тил кщтарар.
Фикри равшаннинг сщзи равшан.

4 – topshiriq. Matnni oʻqing. Undagi **b, p, v, f** tovushlarining oʻqilishi va yozilishiga eʼtibor bering.

Sodda odam edilar

Abdulla Qodiriy qorachadan kelgan, oʻrta boʻyli ustilarida oddiy chopon, boshlarida doʻppi, peshonalarini roʻmolcha bilan tangʻib olib, mahallamizdagi Mulla Yusuf domla bilan shiypon atrofida dehqonchilik qilishardi. U kishi yaratgan bogʻ ilgari suv bostirilib, chimzorga aylangan edi. Abdulla Qodiriy chimzorni ketmon bilan buzib, tozalab, yer chopganlarini kuzatganman. Ketmon bilan chimzorni buzish naqadar ogʻirligini dehqonlar yaxshi bilishadi. Abdulla Qodiriy ana shunday ogʻir mehnat evaziga ajoyib bogʻ yaratganlar.

Bir kuni Habibullo bilan kelib, qiziq voqeaning ustidan chiqdik. Hovliga kirishimiz bilan, ketimizdan kimdir: - Abdulla Qodiriy uydamlar? – deb kirib keldi. Abdulla Qodiriy bogʻda dala kiyimida ishlayotgan ekanlar. Keluvchi esa: - Bor, ketmoningni chop, - deb u kishini siltab tashladi.

Abdulla aka kulib orqaga qaytib, bir oz vaqt oʻtgach, kiyinib chiqdilar. Boyagi kishi esa: - Mana bu Abdulla Qodiriy! – deb u kishiga qoʻl qoʻydirdi – da, pul tashlab ketdi.

Biz esa qotib-qotib, kulib qolaverdik.

“Qodiriyning qoʻmsab” dan.

5 – topshiriq. Lotin alifbosini o'rganish bo'yicha olgan bilimlaringizdan foydalanib, o'z tarjimai holingizni yozing.

6 – MASHG'ULOT

D d va T t undoshlari

1. **D d** – til oldi, portlovchi, jarangli undosh. So'z boshida, o'rtasida va oxirida keladi: **davlat, odam, obod** kabi.

So'z oxirida **d** doimo jarangsiz talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq **d** yozilaveradi: **savod - savot, daromad – daromat, xushomad – xushomat** kabi. So'zning oxirida **d** tovushidan oldin **n** kelsa va bunday so'zlarga qo'shimchalar qo'shilsa ham **d** talaffuz etilmaydi, ammo yoziladi: **payvandchi – payvanchi, baland – balan, monand – monan, xursandchilik – xursanchilik** kabi.

2. **T t** – til oldi, portlovchi, jarangsiz tovush. U so'zning boshida, o'rtasida va oxirida kela oladi: **tarvuz, attor, savat** kabi. So'z oxiridagi **t** tovushi talaffuzda ko'pincha tushib qoladi. Biroq asliga muvofiq yozilaveradi: **zabardast – zabardas, do'st – do's, metodist – metodis** kabi. Bunday so'zlarga qo'shimcha qo'shilganda ham talaffuzda **t** tovushi eshitilmay qoladi, ammo bu hol ham imloda aks etmaydi: **artistlik – artislik, amalparastlik – amalparaslik** kabi.

Jonli nutqda **t** bilan tugagan so'zlarga **ch** undoshi bilan boshlanadigan qo'shimchalar qo'shilganda **t** ning **ch** ga aylanishi kuzatiladi, biroq qoidaga muvofiq **t** yozilaveradi: **nazoratchi – nazorachchi, sutchi – suchchi, ibodat – ibodachchi** kabi.

1 – topshiriq. So'zlarni nuqtalar o'rniga **d** yoki **t** harflarini qo'yib ko'chiring.

Ban..., savla..., avlo...-ajdo..., oynaban..., davoma..., nadoma..., mo'ysafi..., sadoqa..., nasihah..., sharia..., rekor..., faryo..., peshban..., dash..., desan..., dokla... .

G g va K k undoshlari

1. **G g** – til orqa, portlovchi, jarangli undosh tovush. So'zning boshida, o'rtasida va oxirida keladi: **go'zal, egar, barg**. Bu tovush ba'zan so'z oxirida jarangsiz **k** kabi eshitiladi: **barg – bark, dialog – dialok** kabi.

Oxiri **g** undoshi bilan tugagan so'zlarda **g** bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilganda **g** jarangsiz **k** kabi talaffuz qilinadi: **teg + gan - tekkan, barg + ga – barkka, filolog + ga – filolokka** kabi. Ammo yangi imlo qoidasiga muvofiq faqat **teggan, bargga, filologga** holida yoziladi.

2. **K k** – til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovush. U so'zning boshida, o'rtasida va oxirida keladi: **koinot, bokira, tilak**.

So'zning oxiri **k** bilan tugab, unga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, **k** jarangli **g** ga aylanadi va shunday yoziladi: **malak + im – malagim, tilak + im – tilagim, ko'prik + im – ko'prigim** kabi.

2 – topshiriq. Berilgan soʻzlardagi **g** va **k** tovushlarini tavsiflang.

Agent, yirik, bagaj, tirik, gavhar, yoʻlak, gazlama, sokin, zodagon, Sakkokiy, kungura, mukofot, koʻrgazma, makkor, supurgi, kavsh, tag-tugi, kamtar, goʻzal, kabutar, karnaygul, ogohlik, kinematograf, Gagra.

3 – topshiriq. Husnixat mashqi.

Гшзаллик ыам улуц неъмат бшлиб, у ыар кимсага ыам берилавермайди.

Оти гшзалнинг щзи ыам гшзал бшлавермайди.

Оталар сщзи.

Кишини гшзал ыилиб кшрсатадиган унинг чиройи эмас, балки чиройли ыульидир. Чиройли ыуль хунук кишини ыам чиройли ыилиб кшрсатади.

Хуррабий.

Кибр ва цурурдан узоь бшл, кибр кишини эл орасида хор, беъадр ыилади.

Кимки бировни унда йщъ сифатлар билан маътаса, бу маътов эмас, хавф, бировнинг устидан кулиш билан баробар.

Муъаммад Ёусайн.

4 – topshiriq. Matnni oʻqing. Undagi **b, p, n, g, k, d, t** tovushli soʻzlarning oʻqilishi va yozilishida yuz bergan tovush oʻzgarishlarini aniqlang.

Bobur va kabutar

Mirzo Bobur yoshligidan ziyrak bola boʻlib oʻsibdi. Kunlardan bir kun Umarshayx saroy aʼyonlari bilan qasrda oʻltirgan ekan, bir kabutar uchib kelib, ayvon peshtoqiga qoʻnibdi-da "gʻulu-gʻulu-gʻulu" qilaveribdi. Umarshayx aʼyonlaridan: "Kabutar ne deydu?" deb soʻrab qolibdi. Anchadan buyon urush koʻrmay, qilichlari qonsiragan aʼyonlar: "Oliy hazrat, kabutar, qilichlarni qindan sugʻurmoq kerak, deydu", - deb javob berishibdi.

Gapga qoʻshilmay bir chekkada jim oʻltirgan Mirzo Bobur: "Yoʻq, kabutar unday demaydu. U qovun sayliga chaqiribdu. Jonivor xushxabar keltiribdu", - debdi. Umarshayx kabutarni tutib keltirishni buyuribdi. Kabutarni tutib kelib, oyogʻidagi mis halqani olib qarashsa, ichidan bir xat chiqibdi. Xatda: "Oliy hazrat, qovun ayni pishdi. Kelib qoʻl urib bersalar", - deb yozilgan emish. Mirzo Boburning gapi toʻgʻri chiqqanidan hayratga tushgan Umarshayx oʻgʻlidan: "Bunchalik topqirligingga bois nedu?" - deb soʻrabdi.

- Ota, - debdi Bobur, - bu kabutarga eʼtibor qilmadingiz. Oʻtgan yili qovun sayli xushxabarini xuddi mana shu jonivor xabar qilgʻon erdi, kaminaning koʻzi

kabutarning o'ng qanotidagi qora xolga tushgan zahoti uni tanidi va shu so'zni taxmin etdi, - deb javob beribdi.

Yosh Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx a'yonlariga qarab: "Qilichni emas, aql-idrokini ishga solmoq lozimdir. Xabar qilinglar, barcha qovun sayliga otlansin!" - deb farmoyish beribdi.

5 - topshiriq. She'rni o'qing va yod oling.

Kamtarlik haqida

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun.
Kibr-u havo nimaga kerak?
Kamtarin bo'l, hatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan,
Piyolani inson shuning – chun
O'par doim peshonasidan.

Erkin Vohidov.

6 – topshiriq. Toshkent avtomobil-yo'llar instituti rektori nomiga ishga kirish to'g'risida ariza yozing.

7 – MASHG'ULOT

Z z va S s tovushlari

1. **Z z** – til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush. So'zning boshida, o'rtasida va oxirida keladi: **zamon, aziz, muazzam, qo'zg'olon, hazil – huzul** kabi.

Jonli nutqda so'z oxirida kelgan **z** tovushi jarangsizlanib, **s** tovushiga moyil talaffuz qilinadi, biroq asliga muvofiq **z** yozilaveradi: **g'oz, og'iz, teramiz, boramiz** kabi.

Bu holatni **z** bilan tugallangan o'zakka jatangsiz undoshlar qo'shilganda ham kuzatish mumkin: **tuzsiz – tussiz, yuz so'm – yusso'm, so'zsiz – so'ssiz** kabi.

2. **S s** – til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush. So'z boshida, o'rtasida va oxirida kela oladi: **sayohat, sevgi, asal, asos, libos** kabi. **E** va **i** unlilaridan oldin kelganda yumshoq talaffuz etiladi: **sevinch, siyohdon, ta'sir** kabi.

7 – topshiriq. So'zlarning yozilishini mashq qiling.

Zavq, zaif, zal, zamon, zangor, zarra, zarhal, zahmat, zulm, zehn, zakovat, zardo'zi, ziynat, zoye, ziyo, zirak.

Sabab, sabzavot, sabot, savdo, sazovor, sayil, sakson, sassiqko'zan, sessiya, sassiqpopishak, sadoqat, saodat, suqsur, subutsizlik.

8 – topshiriq. Soʻzlarni oʻqing va ogʻzaki nutqda tovush oʻzgarishiga uchraydigan soʻzlarni aniqlang va tushuntiring.

Azamat, aziz, analiz, arizaboz, arzimas, bejiz, bronza, gazeta, jazirama, qarz, sarboz, koʻzgu, mazkur, loʻmboz, mijoz, manzur, ishlaymiz, uchamiz, tazyiq.

9 – topshiriq. Soʻzning boshidagi **z** harfini uning jarangsiz jufti **s** ga aylantirib talaffuz qiling va har bir juft soʻz maʼnosini izohlang.

Zafar, zahar, zeb, ziyrak, zina, ziq, zovur, zolim, zora, zoldir, zot, zoʻr, zogʻ, qarz, kez.

10 – topshiriq. Nuqtalar oʻrniga mos harflarni qoʻyib, soʻz hosil qiling.

Za..., za..., za..., ze..., zi..., zi..., zo..., zo..., zo..., zoʻ....

Sh, J j va Ch tovushlari

1. **Sh** – til oldi, sirgʻaluvchi jarangsiz undosh. U soʻzning boshida (**shavkat, sher**), oʻrtasida (**ashyo, dushanba**) va oxirida (**kurash, quyosh**) kela oladi.

Lotin yozuvida bu tovush **S** va **h** harflarining birikmasi bilan ifodalanadi. Baʼzan oʻzbek tilida shunday soʻzlar ham uchraydiki, ularning tarkibidagi yonma-yon kelgan **S** va **h** harflari ikki mustaqil tovushni ifodalaydi, masalan: **Ishoq, ashar (tong), ashob (sohib soʻzining koʻpligi), mash tortish (tahoratda)**.

Bunday soʻzlarda mazkur harflarni **sh** deb oʻqimaslikning oldini olish uchun **s** va **h** harflari orasiga tutuq belgisi (**'**) qoʻyiladi: **Isʻhoq, asʻhar, asʻhob, masʻh**.

2. **J j** harfi ikki xil tovush uchun qoʻllaniladi. Birinchisi: **j** – til oldi, sirgʻaluvchi, jarangli tovush uchun. Bu tovush, asosan, forsha-tojikcha va ruscha oʻzlashma soʻzlarda ishlatiladi: **jurnal, ajdar, gijda, janr, garaj** kabi. Soʻz oxirida kelganida **sh** ga moyil talaffuz qilinadi: **massaj – massash, ajiataj – ajiatash** kabi. Ikkinchisi: **j (dj)** – til oldi, qorishiq portlovchi, jarangli tovush uchun. Bu tovush soʻzning har xil boʻgʻinida kela oladi: **jon, jannat, ajoyib, jajji, falaj** kabi. **J** undoshi portlovchi **d, t** tovushlari bilan yonma-yon kelganda, sirgʻaluvchi **sh** yoki **j** tarzida aytiladi: **adjdod – ajdod, idjtimoiy – ijtimoiy** kabi. Jonli tilda soʻzning oxirida jarangsizlanadi va **ch** tarzida talaffuz qilinadi: **toj – toch, boj – boch, xiroj – xiroch** kabi.

3. **Ch** – til oldi, qorishiq, portlovchi, jarangsiz undosh tovush. Lotin yozuvida bu tovushni ifodalash uchun **c** va **h** harflar birikmasi qabul qilingan. U soʻzning boshida (**chevar, chegara**), oʻrtasida (**achchiq, kecha**) va oxirida (**guruch, birinch**) kela oladi. Baʼzan **ch** bilan tugagan soʻz oʻzagiga qoʻshimcha qoʻshilganda, **sh** kabi aytilishini kuzatish mumkin: **uchta – ushta, uchdi – ushdi, ichdim – ishtim** kabi.

Rus tilidagi III tovushining lotin alifbosida ifodalanishi

O'zbek tilida **III** tovushi mavjud emas. Biroq rus tilidan o'zbek tiliga kirib o'zlashgan ayrim so'z hamda familiyalarni yozish uchun **shch** birikmasi qabul qilingan: **meshchan, pomeshchik, Shcherbakov, Shchedrin, shchi, borshch, Xrushchov** kabi.

11 - topshiriq. So'zlarning yozilishini mashq qiling va og'zaki nutqda tovush o'zgarishiga uchrashi mumkin bo'lgan so'zlarni aniqlab tushuntiring.

Aksincha, archa, arg'imchoq, achchiqtosh, achchiq-chuchuk, belanchak, bochka, ko'chdi, chechan, chuchmoma, cho'pchak, cho'chchaytirmoq, cho'chinqiramoq, aysh-ishrat, ayqash-uyqash, angishvona, barkash, baxshi, ishonchli, kashshof, shijoat, shoshma-shosharlik, shoshilinch.

12 - topshiriq. So'zlarni qorishiq **dj** va sirg'aluvchi **j** tovushlariga ko'ra ikki ustunga ajratib yozing. Og'zaki nutqda tovush o'zgarishiga uchraydigan so'zlarni aniqlab, sababini tushuntiring.

Abjir, garaj, ajabtovur, ajib, ajdar, ajnabiy, bagaj, ajoyib, ajrim, barjom, budjet, anjuman, vagonovojatyi, badjahl, vijdon, jandarm, majlis, janr, ehtiyoj, g'uj-g'uj, ekipaj.

13 - topshiriq. Husnixat mashqi.

Do'stlik haqida

Donolarning aytishlaricha, uch guruh kishilar bilan do'stlik yo'lini tutish maqsadga muvofiqdir.

Birinchisi, ilm ahli bo'lib, ular o'z hayotlarini ilm-u odob bilan o'tkazgan va hayotning barcha achchiq-chuchugini tortgan bo'ladilar.

Ikkinchisi, baxtiyor, tabiati saodatmand kishilar, ular o'z do'stlarining ayblarini odamlardan yashiradilar va hech qachon oshkor qilmaydilar.

Xilvatda do'stdan sodir bo'lgan xatolarni yuzlariga aytib beradilar va ulardan hech bir nasihatlarini ayamaydilar.

Uchinchisi, beg'araz va beta'ma kishilar bo'lib, ularning do'stliklari haqiqiy, biror foyda topish evaziga qurilmagan bo'ladi.

Abdulbarakot Qodiriy.

14 - topshiriq. O'qish uchun matn.

Tolstoy fojiasi

Sof muhabbat Lev Tolstoyning ko'nglini zabt etganida "Urush va tinchlik" asarini hali tugatib ulgurmagan edi. Graf o'z xotinini yonib sevar va uni qadrlardi. Biroq uning xotini buni anglab yetganida, afsuski, juda kech bo'lgandi. U jon berayotib o'z qizlariga: "Otangizning o'limiga men sababchi bo'ldim", deganida

qizlari bunga sirayam ajablanishmadi. Chunki ularning ikkisi ham sevimli otasini aynan mana shu ayolning davomiy kamsitishlari va asossiz tanqidi, rashk qilishlari adoyi tamom qilganligini yaxshi bilishardi.

O'sha paytlarda Tolstoy shu qadar mashhurlik cho'qqisiga ko'tarilgan ediki, muxlislari uning ortidan yurib, aytgan har bitta so'zini, hattoki, "endi men biroz dam olaman", degan so'zlarigacha yozib olishgan. Bunda shon-shuhratdan tashqari, o'zining va xotining bitmas-tuganmas boyligi, jamiyatda yuksak obro'si hamda farzandlari bor ediki, ko'pgina oilalarda bundayin shart-sharoitdan asar ham yo'q edi o'shanda.

Lekin vaqt o'tishi bilan yozuvchining fe'l-atvori o'zgara boshladi. Endi u o'zi yaratgan buyuk asarlardan uyalar, yozganlarini birovga o'qitishdan iymnadigan bo'lib qolgan edi. Uning hayoti fojiaiy tus ola boshladi va bunda xotining "hissasi" ko'p bo'ldi. Xotini hashamat va dabdabani haddan ziyod yaxshi ko'rar, Tolstoy esa ulardan jirkanar edi. Xotini shon-shuhratga, hurmatga tashna bo'lsa-da, yozuvchi uchun bular bir pulga qimmat edi. Grafinya xonim pul va boylikka hirs qo'ygan, lekin graf shaxsiy mulkka ega bo'lishni gunohi azim hisoblardi.

Tolstoy o'z asarlarini chop etgan noshirlardan hech bir qalam haqi talab qilmagani uchun xotini yillar davomida uni haqorat qilar, turli bahonalar bilan janjal ko'tarmoqchi bo'lardi. Eri yozgan kitoblar uchun noshirlardan katta miqdorda pul talab qilishdan ham qaytmagan vaqtlarda Tolstoy xotiniga e'tiroz bildirsa, uning jazavasi tutardi. Bir kuni xotini og'u solingan shishachani qo'lga olib, o'zini zaharlab yoki quduqqa tashlab o'ldirishini aytganda, Tolstoyning unga bo'lgan mehri tamoman so'nggan, undan uzoqroq yurishga intilar, ko'rarga ko'zi yo'q edi.

Nihoyat, Tolstoy 82 yoshga to'lganida o'zining fojiali oilasi davrasida turishni ortiq istamadi va 1910- yil oktabr oyining sovuq (o'shanda qor yog'gan edi), qorong'u kechalaridan birida – qayoqqa ketayotganini o'zi anglamagan holda - o'z xotinidan qochib ketdi. Oradan o'n bir kun o'tgach, uning muzlagan jasi ovloq joydagi temir yo'l bekatidan topiladi. Keyinroq aniqlanishicha, u o'pka shamollashidan vafot etgan va o'limidan avval: "Xotinimni mening oldimga qo'ymanglar", deya vasiyat qoldirgan edi...

Dadaxon Bosit . "Milliy ta'lim" gazetasidan.

15 - topshiriq. O'quv mashg'ulotiga yoki ishga biror sabab bilan kela olmaganligingiz uchun fakultet dekani nomiga tushuntirish xati yozing.

8 – MASHG'ULOT

Ovozdor (sonor) tovushlar

Ovozdor tovushlar shu vaqtgacha sonor tovush atamasi bilan ifodalanib kelingan. Ular tarkibida ovoz miqdori shovqinga nisbatan ko'proq bo'lgan undosh tovushlar bo'lgani uchun ovozdor tovush deb olindi. Bular: **M m, N n, L l, R r** va **ng** tovushlaridir. Bu tovushlar ana shu ovoz hisobiga unli tovushlar kabi inson nutqining ohangdorligini ta'minlaydi.

M m va N n undosh tovushlari

1. **M m** – lab-lab, jarangli, portlovchi, burun undosh tovushi. U soʻzning barcha boʻgʻinlarida kela oladi: **masala, mehmon, omonlik, mumkin, bilim** kabi.

2. **N n** – til oldi, jarangli, portlovchi, burun undosh tovushi. U ham soʻzning boshida (**nodir, nazm**), oʻrtasida (**anjir, tanlov**) va oxirida (**makon, somon**) kelishi mumkin.

N tovushi **b, m** undoshlari oldida kelganda **m** tarzida aytiladi, ammo asliga muvofiq yozilaveradi: **tanbur – tambur, minbar – mimbar, manman – mamman** kabi.

Jonli nutqda baʼzi soʻzlarga **–ni** qoʻshimchasi qoʻshilganda, u oʻzidan oldingi tovush kabi talaffuz qilinishi mumkin, ammo asliga muvofiq yozilaveradi: **bizni – bizzni, koʻzni – koʻzzni, gapni – gappni** kabi.

1 – topshiriq. Soʻzlarni diktant usulida yozing

Mavsum, mavhum, madad, makr, maktub, mard, maosh, mast, mart, marhum, mahrum, matbuot, matlubot, maqol, maqom, mayiz, magʻiz, mahkam, mahkum, metin, metall, moda, modda, muzokara, munozara.

2 – topshiriq. Soʻzlarni koʻchiring va baʼzan jonli nutqda **n** tovushining nima uchun **m** tarzida talaffuz etilish sababini tushuntiring.

Tanbeh, kunbotar, dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, yakshanba, sunbul, oʻn besh, oʻn bir.

3 – topshiriq. **M** undoshi qator kelgan soʻzlarga 10 ta misol toping. Oxiri **m** bilan tugagan otlarga qaratqich va tushum kelishigi qoʻshimchalarini qoʻshib, soʻz birikmasi tuzing, talaffuzi va yozilishini tahlil qiling.

Ng tovushi

Ng – til orqa, portlovchi, jarangli, burun undosh tovushi. Bu tovush soʻz boshida uchramaydi. soʻzning oʻrtasi (**tanglay, manglay**) va oxirida (**jang, bong, mung**) kela oladi.

Ng tovushi uchun harflar birikmasi qabul qilingan. Biroq mustaqil **n** va **g** tovushlarini ham bildirishini unutmang.

Bir tovushni bildiradigan **ng** quyidagi qoʻshimchalar tarkibida yoziladi:

- qaratqich kelishik qoʻshimchasida: **bizning kitob, Nodirning vazifasi;**
- II shaxs birlik va koʻplik sonlardagi egalik qoʻshimchalarida: **sizning ukangiz, sening koʻzing.**
- yaqin oʻtgan zamon feʼlining birlik va koʻplik qoʻshimchasida: **bodring, yurding;**
- buyruq maylidagi feʼning II shaxs birlik va koʻplik qoʻshimchasida: **oling, yozing, olingiz, yozingiz.**

Bunday soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratganda, **ng** harfiy birikmasi **n** va **g** harflariga ajratilmaydi.

Kongress, tangens, bugungi kabi soʻzlarda **ng** alohida **n** va **g** tovushlarini ifodalaydi va boʻgʻin koʻchirishda ajratib yoziladi: **kon-gress, tan-gens, bugun-gi.**

4 – topshiriq. **ng** hamda **n** va **g** tovushli soʻzlarni ikki ustunga ajratib yozing.

Tenglik, langar, mingoyoq, singan, alanga, miting, chilangar, reyting, rangli, menga, ingliz, yengil, tenglama, toʻnga, singan, yengmoq, jingillamoq, doʻnglik, attang, soʻngan, hang-barang, jahonga, kohinga.

5 – topshiriq. Sheʼrni ifodali oʻqing. Soʻzlarda uchragan **ng** va **n+g** tovushlarini aniqlang.

Oltin medal

Marmar tusidagi poʻlat sandiqda
Balogʻat muhridek yaltirab kutar...
Hali qoʻl tegmagan, jarangli, vazmin,
Zarbdan yangi chiqqan oltin medallar...

Sizga qarsaklarda chiniqdi ilgim
Istiqbol sizniki, baringizniki.
Olamning egasi siz boʻlmayin, kim?
Shundayin olamki, kelmagan tengi.

Sizsiz kelajak yoʻq, siz axir xalqning
Ming yilni koʻrajak qarogʻlarisiz.
Sizsiz yorimaydi osmonda Zuhra,
Zamonlar tongining charogʻlarisiz.

Bebaho naslsiz, hayot va mehnat
Olam qalbingizga sut bilan kirgan.
Sizning xamiringiz shu ulug' xalqqa,
Vatanga muhabbat bilan yo'g'rilgan.

G'afur G'ulom.

6 – topshiriq. So'zlarni bo'g'inlarga ko'chirish tartibini eslab qoling.

Singil – si-ngil, sing-li-si; ko'ngil –ko'-ngil, ko'ng-li; kengligi – keng-li-gi; tengi – te-ngi; yangradi – yang-ra-di; dengiz – de-ngiz; singari – si-nga-ri.

Bahor tongi – bahor to-ngi; tonggi shabada – to-nggi shabada; uchrashuv so'ngida – uchrashuv so'-ngi-da; minginchi – mi-ngin-chi.

L l va R r undoshlari

1. **L l** – til ildi, sirg'aluvchi, jarangli yon tovush. U so'z boshida (**lagan, lavozim, leksika**), so'z o'rtasida (**olim, bo'lim, g'alla**), so'z oxirida (**kamol, jamol**) kela oladi.

Ba'zan nutqda so'z o'rtasidagi **l** tovushi tushirib qoldiriladi: **kelsa – kesa, olsa – osa, kelgan – kegan** kabi, biroq asliga muvofiq yozilaveradi.

2. **R r** – til oldi, jarangli, titroq tovush. U so'z boshida, o'rtasida va oxirida kela oladi: **ravshan, arbob, arxar** kabi.

Og'zaki nutqda ba'zan **l, m** tarzida talaffuz etilishi ham mumkin. **zo'rlik - zo'llik, shivirladi – shivilladi, surnaychi – sunnaychi, karnaychi – kannaychi** kabi.

7 – topshiriq. **L** va **r** undoshi qator kelgan so'zlardan 20 tasini lug'atdan topib yozing.

8 – topshiriq. Husnixat mashqi. Matnni lotin alifbosiga o'girib yozing.

Кундан-кунга саодатли бщлай десанг, ьанчалик доно бщлмагин, бари-бир щзингни нодон деб тасаввур ьил! Шунда кщпроь щьиб, донорь бщласан. Илмни эса щз жойида сарф ьил.

«Махзан ал - улум».

Азизим, улуцликнинг сабаби аьл ва одобдир. Кимки соф аьл ва комил фаросатга эга бщлса, пастлик даражасидан улуцлик мартабасига эришиши мумкин.

«Махзан ал - улум».

9 – topshiriq. Matnni ifodali o'qing. Undagi ovozdor tovushlarga e'tibor bering.

Iskandariya

Mavqeyi jihatdan poytaxt Qohiradan keyingi o'rinda turuvchi Iskandariya shahriga eramizdan oldingi to'rtinchi asrda Iskandar Zulqarnayn tomonidan asos solingan. Yunon - Rim imperiyasi davrida ylkan madaniyat o'chog'i bo'lgan Iskandariya Misrning katta port shaharlaridan biri bo'lib, mamlakatning iqtisodiy hamda madaniy-siyosiy aloqalarida muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda faqat nomigagina saqlanib qolgan bo'lsa-da, dunyoning yetti mo'jizasidan biri sanalgan Faros mayog'i, Iskandariya kutubxonasi kabi madaniy obidalar shahar dovrug'ini olamga taratib ulgurgan. Shular bilan birgalikda, hozirgi kungacha o'z ko'rkini yo'qotmagan qadimiy yodgorliklar ham talaygina. Rangli toshlar bilan bezatilgan 800 o'rinli Rim amfiteatri shaharning o'ziga xos yodgorliklaridan biri hisoblanadi.

Eramizdan oldingi III asrga oid Anfushiy maqbarasida qadimgi misrliklarning hayoti va xudolar haqidagi suratlar saqlanadi.

Qizil marmartosh bilan balandligi yigirma besh metr qilib ishlangan "As – Savaariy" ustuni imperator Diakletian sharafiga bunyod etilgan. "Pompey ustuni" deb ham ataluvchi bu ustun "serapis" ibodatxonasidan keltirib o'rnatilgan. Bu nom shaharning III asrdagi hokimlaridan biri Pompey sharafiga qo'yilgan.

Iskandariyada islom madaniyati obidalarini ham ko'plab uchratish mumkin. Shulardan biri bo'lgan Abul - Abbos Al - Mursiy shahardagi eng katta masjiddir. XIV asrda qurilgan Al - Antarin masjidi esa bir vaqtlar "Ming ustunli" nomi bilan mashhur bo'lgan. Katta masjid va tarix muzeyini o'z ichiga olgan Sulton Qaytoboy qal'asi XVI asrda qurilgan.

Iskandariya ajoyib sayyohlik markazlaridan biridir. O'rta yer dengizidan muttasil esib turadigan salqin havo tufayli paydo bo'ladigan mo'tadil iqlim shaharda ko'plab istirohat bog'lari, dam olish maskanlari, mehmonxonalar qurish imkonini bergan.

Iskandariya XIX asr boshlaridan taraqqiyot va yuksalish sari yuz tutdi. Bugungi kunda shaharda besh milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi.

9– MASHG'ULOT

Y y, G' g' va Q q undoshlari

1. **Y y** – til o'rta, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush. So'zning boshida (**yo'l, yo'lbars**), so'z o'rtasida (**ayiq, boylik**) va so'z oxirida (**moviy, asliy**) kela oladi.

2. **G' g'** – chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush. So'zning boshida, o'rtasida va oxirida kela oladi: **g'urur, og'ayni, bug'** kabi. Bu tovush uchun **g** harfining tepasiga shu harf baravarligida ko'chish belgisi (') ni qo'yish qabul qilingan.

Oxiri **g'** bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi, qo'shimchasi – **ga**, chegara bildiruvchi - **gacha** kabi qo'shimchalar qo'shilganda, **g'** jarangsizlanib, **q** tarzida

talaffuz etilsa ham, asliga muvofiq **g'** yozilaveradi. **Bog'ga, tog'ga, chog'ga, bog'gacha, tog'gacha, chog'gacha** kabi.

3. **Q q** - chuqur til orqa, portlovchi jarangsiz undosh tovush. U so'zning boshida (**qovun, quyosh**), o'rtasida (**iqbol, haqiqat**) va oxirida (**quruq, chiroq**) keladi.

Ba'zan **q** tovushi so'z o'rtasida **x** kabi talaffuz etilsa ham, **q** yoziladi: **maqsad – maxsad, vaqt – vaxt** kabi.

1 – topshiriq. So'zlarni yozing va **y** harfini qo'llamaganda ham ma'no anglatadigan so'zlarning tagiga chizing.

Ziyrak, biyron, siyla, tuynuk, jiyda, mayna, jiyron, qiyma, xayr, fayz, tiyrak, ko'ylak, zeb-ziynat, oilaviy, siyosiy, tarbiyaviy.

2 – topshiriq. Talaffuzda bitta **Y** orttirilib, biroq yozilmaydigan so'zlarni alohida ustun tarzida yozing.

Asliy, axloqiy, axloqli, aqliy, aqlli, qadimiy, ma'noli, limon, lirika, bolalik, bolali, metr, vodiy, gerbariy, gulli, doimiy, teorema, yeyishli, yovvoyi, doim, poema, diametr, jismoniy, mayna, nina, ilohiy, hiyla, Noila, Noiba, shoir, foiz, doira.

3 – topshiriq. **Q** undoshi bilan tugagan so'zlarga 10 ta, so'z o'rtasida **q** undoshi qator kelgan so'zlarga 10 ta misol topib, ularga egalik va kelishik qo'shimchalarini qo'shib ko'ring.

4 – topshiriq. She'rni ifodali o'qing va **q** tovushining talaffuziga e'tibor bering.

Qora qoshing, qiyiq qoshing, quyuq qayrilma qoshing, qiz
Qilib qatling'a qasd, qilich qayrab qotil qaroshing, qiz.
Qafasda qalb qushin qiynab, qanot qoqmoqqa qo'ymaysen,
Qarab qo'ygin qiyokim, qalbin qizdirsin quyoshing, qiz.

E. Vohidov.

5 – topshiriq. Maqollarni ko'chirib yozing. Ulardagi **g'** va **q** undoshlarining talaffuziga e'tibor bering.

To'g'ri tilim tiyolmadim,
Tug'ganim bilan turolmadim.

Qizing bo'y yetsa, qizi yaxshi bilan qo'shni bo'l,
O'g'ling er yetsa, o'g'li yaxshi bilan qo'shni bo'l.

Quloq eshitsa, ko'ngil bilinar.
To'qson og'iz so'zning to'qsonta tuguni bor.

Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘ qoladi.

Tildan chiqqani dildan chiqqani.

Bo‘zchi belbog‘ga yolchimas.

6 – topshiriq. Husnixat mashqi. Matnni lotin alifbosiga o‘girib yozing va **q** hamda **g**‘ tovushli so‘zlarning talaffuziga e‘tibor bering.

Kuz

Bo‘ston qishlog‘iga og‘ir, vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Chor-atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to‘ldi. Qishloqni halqaday o‘rab oqayotgan anhor birdan tiniqlashdi. Telba to‘lqinlar endi jilovlanib, yuvosh tortib qoldi.

Odamlar qilichini ko‘tarib kelayotgan qishdan cho‘chiganday shosha-pisha harakatga tushdilar.

Faqat bitta hovlida – qishloq chekkasidagi shundoqqina anhor yoqasida joylashgan hovlida sukunat hukm surar, faqat bir kishi o‘z tashvishi bilan edi.

7 – topshiriq. Matnni ifodali o‘qing.

Sharaf topgan ozod fikr

Qariyb chorak asr muqaddam, Ozod Sharafiddinovning 50 yoshlik yubileyida, yozuvchi Said Ahmad: “Ozod 1929- yil tug‘ilgan. O‘sha yillari bolsheviklar O‘zbekistonga rosa o‘rnashib olib, endi bu yog‘iga otishmani avj oldirib, pionistalikni boshlab yuborgan kezlar edi. Onasi, bu kompaniyaga qo‘shilib, o‘g‘lim alkash bo‘lib qolmasin, degan niyatda, bolasiga, bunday zamonda otmasligingni iloji yo‘q-ku, otsang ham hurmachangga sig‘ganicha kamroq ot, deb otini: “Oz ot” qo‘ygan” deya o‘ziga xos mutoyiba bilan hammani kuldirdi...”

Aslida, ism-sharif, ota-bobolarimiz aytmoqchi, inson taqdirida beiz, beta’sir ketadigan hodisa emas.

Ota-onasi farzandiga bejiz “Ozod” deb sharaflilik nom berishmagan. O‘sha yillarda erki, ozodligi, vatani, o‘zligini yo‘qotib borayotgan xalqimiz ichki armon bilan bolalariga Ozod, Erkin, Huriniso kabi ismlar qo‘yishgan. Marhum domlamiz G‘aybulloh as-Salomning guvohlik berishicha, yana bir fidoyi adabiyotshunos olimimiz Erik Karimovga ism berganda padari buzrukvori yaxshi niyat bilan “Erk” deb nomlagan, rusiyzabonlar uni modaga solib “Erik” deb yuborishgan edi.

Haqiqatan ham tirik jon uchun eng oliy huquq bu erkdir. Odam zoti bir umr erkin bo‘lay, birovga sig‘indi bo‘lmay, mening fikrim bilan ko‘pchilik hisoblashsin, ozod, hur, farovon va ma’mur hayot kechiray, deya orzu qiladi. O‘z qadrini bilgan xalq ham huddi shunday. Asrlar osha ozodlik deydi, mustaqillik deydi, hurriyat deydi. Shuni deb yashaydi, kurashadi, jon fido qiladi. Ammo har bir shaxs, har bir millat bu azaliy insoniy orzu-armonga baravar erishavermaydi. Ozodlikni udda qila olmaydi. Ba’zilar yoshi bir joyga borganda niyati o‘ziga yo‘ldosh bo‘ladi. Ko‘plar

unga erisha olmay o'tadi. Ko'pchilik buqalamunday sharoitga, muhitga moslashib, umri xazoni o'tib ketganini bilmay qoladi. Bir umr erkni ko'zlab, erkin so'zlab, adolat uchun kurashib yashash kamdan-kam odamga nasib qiladi...

Ko'pchilik ijodkorlarning bevosita yoki bilvosita ustози, xalqimizning ziyolilaridan, yirik adabiyotshunos olim, noshir, jurnalist, muharrir, tarjimon, yozuvchi Ozod Sharafiddinov ana shunday noyob taqdir va qismat egasi, Xudoning qudrati, shaxsiy iroda va iste'dod salohiyati bilan o'z nomini oqlab, yoqlab, halollab yashab kelayotgan, butun umr jasorat hamrohi bo'lgan, zamonamizning ijodkorlaridan biri.

“Milliy ta’lim” gazetasi. 2002- yil, 1- sentabr.

8 – topshiriq. Xizmat safariga ketayotganligingiz sababli oylik maoshingizni ukangiz olishi uchun “Ishonchnoma” yozing.

10 – MASHG‘ULOT

X x va H h undoshlari

1. **X x** – chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush. U so'zning boshida (**xabar, xayol**), o'rtasida (**axborot, oxirat**) va oxirida (**tarix, sho'x**) kela oladi. Jonli nutqda **q** tovushiga moyilroq aytiladi: **mix – miq, six – siq** kabi.

2. **H h** - sirg'aluvchi jarangsiz bo'g'iz undoshi. So'z boshida (**hayot, hodisa**), o'rtasida (**bahor, lahza**) va oxirida (**sayyoh, giyoh**) keladi.

H tovushi **x** undoshiga nisbatan yumshoqroq talaffuz etiladi.

Jonli nutqda **h** tovushi ba'zan o'zidan keyingi undosh tovush kabi aytiladi yoki mutlaqo talaffuz etilmaydi: **mahkam – makkam, dahliz – daliz, shahodatnoma – shaodatnoma** kabi.

Jonli nutqda **h** va **x** undoslari ba'zan farqlanmaydi. Biroq yozuvda bu undoshlarni adashtirib yuborish so'zning lug'aviy ma'nosini o'zgarib ketishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin: **shoh – shox, hil-hil – xil-xil** kabi.

1 – topshiriq. Quyidagi so'zlarni **h** va **x** tovushlariga ko'ra ikki ustunga ajratib yozing va yozilishini esda tuting.

Ahd, ahamiyat, asalxo'rlik, baxt, aholi, barhayot, baxtiyor, to'xtamoq, bahodir, bahona, Buxoro, gazetxon, bo'hton, gulrux, vahima, daraxt, guvoh, darxon, dastgoh, jo'xori, dehqon, zaxkash, jabha, iftixor, jahon, ixtiyor, zehn, ixcham, ilhom, laxtak, imtihon, moxora, lahja, muxtor, mavhum, oxirat, malohat, paxta, mahbuba, paxmoq, muhabbat, puxta, nihoya, ruxsat, ogohlik, saxovat, serxarajat, payhon, taxmin, rahm, ro'yxat, rahmat, xanjar, sohibjamol, xijolat, fotiha, xushxulq, ehtiyoj.

2 – topshiriq. Nuqtalar o'rniga **x** yoki **h** harflaridan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

Ishta...a, ji...oz, jo...il, za...matkash, ze...n, bio...imiya, mar...amat, masla...at, e...son, e...tiyotkorlik, sa...iy, so...il, sayrgo..., ...ayot, shay..., ...uquq, ...iyonat, ...amro..., o...ista.

3 – topshiriq. Quyidagi soʻzlarning lugʻaviy maʼnosini izohlang va yozilishini yodda tuting.

Uxladi – uhladi, xam – ham, xush – hush, xiyla – hiyla, rux – ruh, xol - hol.

Qoʻsh undoshlar imlosi

Nutqda har xil undosh tovushlarning qator kelishi bilan birga, bir xil undoshlarning qator-qoʻshaloq holda qoʻllanishi ham uchraydi. Qoʻsh undoshlar, odatda, oʻzbek tilida soʻz oʻrtasida keladi: **muqaddas, muammo, yetti, sakkiz** kabi; rus tili orqali oʻzlashgan soʻzlarda esa soʻz oxirida ham: **gramm, kilovatt** kabi; ayrim Yevropa va Afrika xalqlarining tillarida hatto soʻz boshida ham kelishi mumkin: **Lloyd, Nnyanzi** familiyalaridagi kabi.

Ogʻzaki nutqda soʻz oʻrtasida baʼzan qoʻshaloq undoshlardan biri talaffuz qilinmasa-da, yozuvda toʻliq saqlanadi: **hamma – hama, komissar – komisar** kabi.

Talaffuzda qoʻsh undoshlardan birini aytmalik adabiy nutq meʼyoriga ziddir. Chunki bu baʼzan soʻzning lugʻaviy maʼnosiga taʼsir koʻrsatishi ham mumkin: **sodda – soda, billur – bilur, yalla – yala, modda – moda** kabi.

Qoʻsh undoshlar baʼzan soʻz oxiridagi undoshdan keyin shu undosh bilan boshlanuvchi qoʻshimcha qoʻshilganda ham hosil boʻlishi mumkin: **yurak + ka, barg + ga, qishloq + qa** kabi.

4 – topshiriq. Quyidagi soʻzlar tarkibidagi qoʻsh undoshlarni toʻliq talaffuz qiling va yozilishini yodda saqlang.

Muqaddam, muddat, maddoh, musaddas, moddiy, oddiy, shaddod, udda, taraddud, himmat, Gʻiyosiddin, Zahiriddin, dajjor, najjor, kazzob, bazzoz, dukkak, hakka, metall, mutafakkir, okkupant, kollej, kollektor, parallel, penitsillin, gramm, gamma, grammafon, diagramma, kommuna, kommutator, mukammal, simmetriya, Muhammadiy.

5 – topshiriq. Maqollarni nuqtalar oʻrniga kerakli soʻzlarni qoʻyib oʻqing.

Tikansiz gul boʻlmas, ... - hunar. ... hurmatda boʻl, ... izzatda. ... oʻzini ayblar, aqlsiz doʻstini. Shirin yolgʻondan ... haqiqat yaxshi. Ayrilmagin elingdan, ... ketar belingdan. Bulbul ... sevar, odam Bulbulga ... yaxshi, ... togʻ.

' - tutuq belgisi (apostrof)

O'zbek tilida tutuq belgisi arab tilidan o'zlashma so'zlarga quyidagi hollarda qo'yiladi:

a) unli tovushdan keyin kelganda o'sha unlini cho'ziqroq talaffuz etilishini bildiradi. *Ma'no, ra'no, ma'naviyat* kabi;

b) undoshdan keyin kelib, o'zidan keyingi bo'g'inning ajratib talaffuz etilishini ko'rsatish uchun: *mash'al, sur'at, jur'at* kabi.

Yozuvda faqat tutuq belgisi bilangina farq qiladigan so'zlar uchraydi: *sa'va – sava, qal'a – qala* kabi. Bunday so'zlarni to'g'ri talaffuz etmaslik ma'noning o'zgarishiga olib keladi.

Мицтабар, мицжаз, мицжиза, мицтадил kabi so'zlarda ketma-ket tutuq va ko'chish belgilarini qo'ymaslik uchun tutuq belgisidan voz kechilgan. Bu so'zlar lotin yozuvida *mo'tabar, mo'jaz, mo'jiza, mo'tadil* kabi yoziladi.

Ruscha o'zlashma so'zlarda tutuq belgisi

Адъютант, подъезд, съезд, субъект, объект kabi so'zlarda lotin yozuvida tutuq belgisi qo'yilmaydi. Bunday so'zlarda ayirish belgisidan keyin keladigan yotlashgan tovushlar har doim harflar birikmasi shaklida yoziladi: *adyutant, syezd, subyekt, obyekt* kabi.

6 – topshiriq. So'zlarni tutuq belgisining qo'llanish maqsadiga ko'ra guruhlashtirib yozing.

Ash'or, a'yon, a'zam, a'zo, a'lo, a'mol, bil'aks, badfe'l, ba'zi, ba'zan, va'da, va'z, daf'a, daf'atan, da'vo, juz'iy, za'far, la'l, iste'dod, iste'mol, in'ikos, in'om, mas'ul, mas'ud, ma'yus, mal'un, qat'iy, e'tibor, Qur'on, Tal'at.

7 – topshiriq. Berilgan juft so'zlarni o'qing va ularning ma'noviy farqini bilib oling.

sa'va – sava	sur'at – surat
ta'rif – tarif	she'r – sher
nash'a – nasha	ta'qib – taqib
qal'a – qala	da'vo – davo
ta'na – tana	a'yon – ayon
Tal'at – talat	

8 – topshiriq. Husnixat mashqi. Matnni diktant usuli bilan yozing va undagi tutuq belgisi, qo'sh undoshli, **h** va **x** lik so'zlar ostiga chizing.

Ta'zim

Inson o'zi uchun eng e'zozli, eng muqaddas, mo'tabar, tabarruk, jonidan ham afzal kishisini "ota" deb ataydi. Umri boricha undan o'rganadi, taqlid qiladi. Unga loyiq farzand bo'lish orzu-xayoli bilan yashaydi.

Ota o'z zurriyotiga hayot baxshida etuvchigina emas, uning tetapoya taassurotlarini, hissiyotlarini, ma'naviy-ahloqiy qarashlarini shakllantiruvchi murabbiy hamdir. Oila farovonligi, tinchligi va to'kinligi, farzandlarning kamoloti otaning beminnat mehnatlari samarasidir.

9 – topshiriq. Matnni ifodali o'qing. Undagi **x** va **h** lik qo'sh undoshlar va tutuq belgisi ishtirok etgan so'zlarga e'tibor bering.

Kamoliddin Behzod

Sharq miniatura san'atining yetuk namoyandalaridan biri bo'lgan ulug' ajdodimiz Kamoliddin Behzod yubileyining YUNESKO tadbirlari dasturiga kiritilishi musavvir ijodining dunyo miqyosida e'tirof etilganini ko'rsatadi. Bu bejiz emas. Zero, Behzod tomonidan yaratilgan nodir asarlar faqat o'zbek xalqininggina emas, balki jahon madaniyatining oltin xazinasidan joy olgan. Uning asarlari bugungi kunda dunyoning ko'pgina muzeylari hamda shaxsiy kolleksiyalarda saqlanmoqda.

Buning sabablari bor, albatta. "Kamoliddin Behzodning yuksak iqtidori va mahorati tufayli uning qalami jonsiz shakllarga qalb bag'ishlaydi", deb yozib qoldirgandi zamondoshlari. Hirot miniatura san'ati maktabining ijodiy yuksalishida Behzodning xizmatlari beqiyos. Haqiqatan ham Behzod asos solgan Hirot miniatura san'ati maktabi bu nafis san'at turini yuqori bosqichga ko'tardi. Ushbu maktabning an'ana va usullari O'rta Osiyo, Eron va Hindistonda davom ettirildi. Jumladan, hind miniatura san'atida turli yo'nalishlar mavjud bo'lib, bu maktablarning asosi Boburiylar davrida bevosita Kamoliddin Behzod miniatura maktabi ta'sirida shakllangan edi. Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, hind musavvirlari tomonidan yaratilgan minimalarning uslubi va mazmunida Behzod maktabining ta'siri hanuz saqlanib kelinadi.

Biz Behzodni, asosan, miniaturchi – rassom sifatida bilar edik. Uning me'rosini o'rganish jarayonida ijodiy faoliyati qirralarining qanchalik keng ekanligi, xususan, Behzodning musiqa, kitob bezatish, hattotlik, me'morchilik san'atlarini ham chuqur o'rganganligi ma'lum bo'layapti. Behzod va uning naqqoshlik maktabi namoyandalari tomonidan yaratilgan miniatura asarlari orqali o'sha davrdagi ijtimoiy-madaniy, ma'rifiy hayotning ba'zi bir tomonlarini bilib olyapmiz. Masalan, XV – XVI asrlarda foydalanilgan musiqa asboblari haqida faqatgina yozma manbalar orqali ma'lumotga ega edik. Behzod va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan nafis tasviriy san'at asarlari yordamida o'sha davrda foydalanilgan – ud, g'ijjak, chang, tanbur, nay, karnay, surnay, nog'ora, doira singari cholg'u asboblari to'g'risida to'laqonli ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'lyapmiz.

Behzod va o'rta asrlar Sharq miniatura maktablari merosining O'zbekistonda rangtasvir, amaliy bezak va shu kabi san'at turlarining rivojiga ko'rsatgan ta'siri, shubhasiz, beqiyosdir.

Behzod ijodi xalqchilligi va xolisligi bilan diqqatimizni tortadi. Masalan, uning nafis minimalarining birida Samarqanddagi mashhur Bibixonim masjidining qurilishi tasvirlangan. Rassom ushbu asarida masjidning salobatini ifodalashdan ko'ra asosiy e'tiborini bevosita qurilish manzarasi, mehnat jarayonini, ya'ni ushbu

inshootni bunyod etgan hunarmandlarning mashaqqatli mehnati-yu san'atini aks ettirishga qaratadi.

Behzod ijodining musiqa bilan bog'liq jihatlari ham mutaxassis-olimlarimizda katta qiziqish uyg'otmoqda. Uning asarlariga diqqat bilan razm solsangiz, musavvirning musiqa san'atini ham mukammal egallaganligining shohidi bo'lasiz.

Behzod yubileyiga bag'ishlangan konvert, plakat, kalendar nashr qilindi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi bilan hamkorlikda "Behzod va tamaddun" deb nomlangan kitob nashr etildi. Ulug' musavvirning siymosi aks ettirilgan ko'krak nishoni tayyorlandi. "Kamoliddin Behzod miniaturlari " rangli albomi o'zbek, ingliz tillarida nashr qilindi. Kamoliddin Behzod yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ko'rgazma albom-katalogi bosmadan chiqish arafasida. Ulug' sanaga bag'ishlab bir qator tasviriy san'at ko'rgazmalari tashkil qilindi.

Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan Toshkentda Kamoliddin Behzod nomidagi memorial bog'ning eng yaxshi loyihasi yuzasidan Respublika ochiq tanlovi o'tkazildi. Ushbu tanlov g'olibi, me'mor R. Bleze loyihasi asosida poytaxtda Behzod memorial bog'i va milliy miniatura san'ati muzeyi barpo etilmoqda.

Mazkur yubileyga tayyorgarlik jarayonida shu narsa ayon bo'ldiki, butun dunyoda Behzod ijodiga qiziqish katta. Yubiley tadbirlari doirasida "Kamoliddin Behzod ijodining Sharq miniatura san'atiga ta'siri" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi.

Mazkur ilmiy anjumanda 14 davlatdan 20 ga yaqin eng yirik behzodshunos va miniaturanavis olimlar qatnashish istagini bildirdi. Shuningdek, Markaziy ko'rgazmalar zalida Kamoliddin Behzod yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ko'rgazma namoyish qilinadi. Yubiley tadbirlarida Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Yaponiya, Misr, Rossiya kabi mamlakatlardan taniqli olimlar qatnashishi kutilmoqda.

Kezi kelganda shuni aytib o'tish joizki, bugungi kunda ko'pgina mamlakatlarda miniatura tasviriy san'atning turi sifatida yo'qolib boryapti. Lekin respublikamizda san'atning bu turiga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, milliy san'atimiz, ayniqsa miniatura san'atini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirildi. Musavvirlarimiz bu g'amxo'rliklarga javoban miniatura san'atining yangi qirra va shakllarini yaratish borasida izlanmoqdalar. Jumladan, devorga, charmga, toshqog'ozga, guldonga miniatura ishlash jahonning boshqa mamalakatlarida deyarli uchramaydi. Toshkentda jahonda yagona bo'lgan miniatura san'ati muzeyi tashkil etilmoqda. Ushbu sana munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirlar madaniy-ma'rifiy hayotimizda o'ziga xos voqea bo'lib qoladi.

"Markaziy Osiyo" gazetasi. 2000- yil, 44 – son.

10 – topshiriq. 21 – oktabr – o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun. Shu munosabat bilan bayram kechasi o'tkazilishi haqida e'lon yozing.

11 - MASHG'ULOT

Kirill alifbosidagi *Цу* undoshining lotin yozuvida ifodalanishi

Kirill alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvida *Цу* ruscha o'zlashma so'zlarda qo'llanadi. U lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvida *s* yoki *ts* bilan ifodalanadi.

1. Lotin yozuvida *Цу* undoshi quyidagi hollarda “*s*” bilan ifodalanadi:

a) so'z boshida: *sirk, sement, sentner* kabi;

b) so'z o'rtasida undosh tovushdan keyin: *konstruksiya, direksiya, induksiya, deduksiya, aksept, ssenariy* kabi;

d) so'z oxirida: *abzas, shpris, kvars* kabi;

e) old qo'shimchadan keyin: *telesentr, antisiklon, episentr* kabi;

f) so'z boshida *a* mustaqil bo'g'in bo'lib kelganda: *aseton, asetilin, asetat* kabi.

2. So'z o'rtasida ikki unli tovush orasida “*ts*” yoziladi: *assimilatsiya, dissimilatsiya, kalkulyatsiya, Sitseron, assotsiatsiya* kabi.

1– topshiriq. *Ц* undoshi “*s*” bilan yoziladigan so'zlarni bir ustun, “*ts*” bilan yoziladiganlarini esa ikkinchi ustun shaklida lotin alifbosida ko'chiring.

Акция, акцент, акционер, аннотация, диссертация, изоляция, концерт, милиция, механизация, операция, коллекция, офицер, прицеп, дециметр, квитанция, центнер, Франция, Греция, коэффициент, цинга, цивилизация.

Izoh: *диссертация, изоляция* kabi oxiri – *ация* va – *яция* bilan tugaydigan so'zlarning barchasi lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvida – *atsiya* tarzida yoziladi.

2 – topshiriq. She'rni o'qing va undagi *Цу* tovushining yozilishiga yana bir bor e'tibor bering.

“Ц nima deydi?”

«Ц» deydilar mening otim,
Aytay makon ham sifatim.
Sirkka borar bo'lganlar,
Konsertdan ko'ngil to'lganlar,
Sexda meni ko'rganlar,
Sirkuldan joyim so'rganlar
Doim bo'lsinlar omon,
Chet so'zlarda kelurman, bil,
So'zlarimga amal qilgil.

P.Jumaniyozov, T.Zufarov “Harflar gulshani”.

3 – topshiriq. Husnixat mashqi.

1. Ўзбекистон Конституцияси 1991 йил 8 декабрь куни қабул қилинган. 2. Космонавтика асосчиси Константин Эдуардович Циолковскийнинг номи бутун дунёга машҳурдир. У инсон қолини узоқ вақт яшай олиши ва ишлай олиши учун у ерда йирик орбитал станциялар барпо этишни таклиф қилди. 3. Цирк энг қадимги санъат турларидан бири. 4. Циркул – айланалар қизиладиган, қизилли шўламлар қизирадиган асбоб. 5. Цитата – бирор асардан сўзма-сўз олинган парча. “Bolalar ensiklopediyasi”dan.

Asos va qo‘shimchalar imlosi

Ayrim so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shilishi bilan so‘z oxiridagi unli o‘zgaradi:

1) **a** unlisi bilan tugagan fe‘llarga **–v, –q, –qi** qo‘shimchasi qo‘shilganda **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi: **tara – taroq, tarov; tarqa – tarqoq, tarqov; so‘ra – so‘roq, so‘rov; chanqa – chanqoq, chanqov; sayra – sayroqi** kabi;

2) **i** unlisi bilan tugagan ko‘pchilik fe‘llarga **–v, –q** qo‘shimchasi qo‘shilganda bu unli **u** aytiladi va shunday yoziladi: **tani – tanuv, tashi – tashuv, o‘qi – o‘quv, to‘qi – to‘quv** kabi. Lekin **i** unlisi bilan tugagan ayrim fe‘llarga **–q** qo‘shimchasi qo‘shilganda bu unli **i** aytiladi va shunday yoziladi: **og‘ri – og‘riq, qavi – qaviq** kabi;

3) undosh bilan tugagan barcha fe‘llarga **–uv** qo‘shimchasi qo‘shiladi: **ol – oluv, yoz – yozuv** kabi;

4) undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor bo‘lgan fe‘lga **–uq** qo‘shimchasi qo‘shiladi: **uz – uzuq, yut – yutuq** kabi. Lekin **uyushiq, burishiq, uchiriq** kabi so‘zlarning uchinchi bo‘g‘inida **i** aytiladi va shunday yoziladi.

4 – topshiriq. Gaplarni ko‘chiring va o‘zagida o‘zgarish yuz bergan so‘zlarning tagiga chizing.

1. “Xalq ta’limi” gazetasida “Umid” jamg‘armasi tomonidan 2003- yil uchun “O‘zbekiston – vatanim manim” ko‘rik-tanlovi o‘tkazilishi e’lon qilindi. 2. Bedazordan sayroqi qushlarning sho‘x xonishi eshitilib turardi. 3. Ortiqcha yutuq Komilovni shuhratparast qilib qo‘ygandi. 4. Saida mehmonlarni quchoq ochib kutib oldi. 5. Singlim oliy o‘quv yurtini tugatmoqda.

5 – topshiriq. O‘qituvchi tomonidan o‘qib berilgan biror kichik matnning mazmunini yozma ravishda erkin bayon qiling.

6 – topshiriq. Quyidagi matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘zagida yuz bergan o‘zgarishlarni izohlang.

Qo'nib gul uzra bulbul
Ishq kitobin varaqlabdur,
Yumuq tong ko'zlari
O'tliq navosidan charaqlabdur.
Shafaq ko'zgusida
O'z husniga oshiq bo'lib boqmish
Va tog'larni **taroq** aylab,
Sochi zarrin **taroqlabdur**.

“Tong g'azali” E. Vohidov.

Sovuq urgandan qolar,
Tuproq surgandan qolar.

O'quvi bor ulg'ayar,
O'quvi yo'q sarg'ayar.

Quruq yerdan yel chiqar.

Quruq yog'och egilmas.

O'zbek xalq maqollari.

7 – topshiriq. Berilgan so'zlarga **-v, -q, -qi** kabi qo'shimchalaridan mosini qo'shib, yangi so'zlar hosil qiling, so'z o'zagidagi o'zgarishlarni tushuntiring.

Sana, siyla, sayla, to'qi, qatna, bag'ishla, qursha, bo'ya, suya, yig'la, chimchila, tanla.

8 – topshiriq. Matnni ifodali o'qing.

Gul kayfi

Yozuvchi Oybek bir xotirasida “Abdulla akam gul shaydosi edi”, deydilar. Darhaqiqat, dadam gulni nihoyatda sevar, gul shaydosi edilar. Erta ko'klamdan boshlab u kishining birinchi “tashvish”lari shiyponimiz oldidagi yarim tanobdan mo'lroq yerni chopib, gulzor tartib berish, bozordan va kimsalar uyidan gul ko'chatlari keltirib o'tqazish, sug'orish, o'toq va chopiq qilish bo'lar edi. Bu ishlarni u kishi hech kimga “ishonmas”, hammasini o'zlari bajarar edilar. Gullar o'sib, ochilgan chog'larda ko'chadan bog'imizga kirganda dimoqqa gup etib gulning xush bo'ylari urilar, gulzorda rang-barang kapalaklar uchib yurar edi.

Gulzorimizning bu holatini va dadamning “tashvishlari”ni xuddi “Mehrobdan chayon”dagi shu tasvirga o'xshatish mumkin:

“Anvarning bola chog‘idanoq eng yaxshi ko‘rgan narsasi gulzor va undagi gullar edi. U Mahdumning oilasiga kelib tura boshlaganidan so‘ng, bog‘chaning gulzor qismini o‘z idorasi ostiga oldi. Gullarni sug‘orish, o‘tlarini yulib, tozalash vazifalarini o‘zi bajarardi... Bolalarning daragi bilan har kimning uyida bo‘lgan yangi nav gullardan ko‘chat va urug‘ olib, yildan-yilga gulzorni boyitdi. Yoz kunlari kelsa, bolalarni kapalak, oltingo‘ng‘iz tutib kelishga buyurardi... Agar ular gulzorga qo‘nib qolsalar, o‘zida yo‘q sevinar edi. Shuning uchun aksar yoz kunlari Mahdumning bog‘chasi oq, nimrang, olazangor, malla-lojuvard va boshqa tus kapalaklarning yalt-yult uchishlari bilan alohida bir ko‘rinishga kirar, Anvarning o‘qishdan bo‘shagan kezlari gullar ichida va shu kapalaklar orasida kechar edi”. Shu o‘rinda dadamning bir ishlari yodimga tushdi.

Bir kun u kishi ko‘chadan oq xaltada nimadir ko‘tarib keldilar. Xaltaning og‘zini ochgan edilar, bir dasta chiroyli gul chiqdi. Men ajablanib so‘radim:

- Bu qanday gul, ada?

- Shaharga tushib, Inog‘om otaning Obi Nazirdagi bog‘iga kirgan edim, - dedilar, - qaytishimda qo‘limga gul uzib berdi. “Yo‘q” deya olmadim, tashlashga ko‘zim qiymadi, ola keldim...

- Nega xaltaga solib keldingiz, gulni sevasiz-ku?

- Sevgan bilan er kishiga ko‘chada dasta gul ko‘tarib yurish o‘xshamaydi. Gul kayfi uni o‘stirishda, uning ko‘rinishida, xush bo‘yida, dedilar jiddiy va gullarni suvga solib qo‘yishni buyurdilar.

Habibullo Qodiriy. “Qodiriyni qo‘msab”dan.

9 – topshiriq. Siz javobgar bo‘lgan rangli televizorni boshqa bo‘limga o‘tkazish uchun rasmiy dalolatnoma yozing.

12- MASHG‘ULOT

Tovush o‘zgarishi

K, q undoshi bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga, shuningdek, **bek, yo‘q** kabi ayrim bir bo‘g‘inli so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda **k** undoshi **g** undoshiga, **q** undoshi **g** undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: **bek - begi, yo‘q - yo‘g‘i, tilak – tilagi, yurak – yuragi, bilak – bilagi** kabi. Ammo ko‘p bo‘g‘inli o‘zlashma so‘zlarga, bir bo‘g‘inli ko‘pchilik so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda **k, q** tovushlari aslicha aytiladi va yoziladi: **ishtirok – ishtiroki, idrok – idroki, ko‘rk - ko‘rki, yuq – yuqi, xulq – xulqi** kabi.

1 – topshiriq. She'zni o'qing va undagi ajratilgan so'zlarda yuz bergan tovush o'zgarishlarini izohlang.

Faxr etarman, ona xalqim,
Ko'kragimni tog' qilib,
Ko'kragida tog' ko'targan
Tanti dehqon, **o'zbekim**.

O'zbekim deb keng jahonga
Ne uchun madh etmayin!
O'zligim bilmoqqa davrim
Berdi imkon, **o'zbekim**.

Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sut-u tuz hurmati,
Erkin **o'g'lingman**, qabul et
O'zbekim, jon, **o'zbekim**.

2-topshiriq. Quyidagi so'zlarga egalik qo'shimchalarini qo'shib tustang va tovush o'zgarishlarini izohlang.

Qo'shiq, tilak, tomoq, g'oya, g'ijjak, sahifa, tatbiq, bola, iliq, topishmoq, tok, bo'yoq, qiliq, ocherk, erk, ravnaq, huquq.

Tovush tushishi

1. **O'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil** kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, **qayir, ayir** kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi **-il** qo'shimchasi qo'shilganda, **ikki, olti, yetti** so'zlariga **-ov, -ala** qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: **o'rin - o'rni, qorin - qorni, burun - burni, o'g'il - o'g'li, bo'yin - bo'yni, qayir - qayril, ayir - ayiril, ikki - ikkov, olti - oltob** kabi.

2. **Men, sen** olmoshlariga **-ni, -niki** qo'shimchalari qo'shilganda qo'shimchalardan **n** tovushi aytilmaydi va yozilmaydi.

3 - topshiriq. She'riy parchani ifodali o'qing. Unda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning tarkibini aniqlang va izohlang.

Vatanimga fidokor bo'lajak **o'g'lim**,
Quvonchim, ikki ko'zim, umidim mening,
Baxtiyor farzandim, **bag'rim**, seviklim.

(Mirtemir.)

Tovush orttirilishi

1. **U, bu, shu, o'sha** olmoshlariga **-ga, -dan, -day, -dagi, -cha** qo'shimchalari qo'shilganda **n** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: **unda, bunday, shundan, o'shancha** kabi. Bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: **buningiz, o'shanisi** kabi.

4 – topshiriq. Matnni o‘qing. Undan tovush orttirilgan olmosh so‘zlarni toping va izohlang.

Hikoyat

Ota o‘z o‘g‘lining noqobil ekanini bilgani uchun oldindan chora ko‘rib, o‘lar paytida unga nasihat qilib dedi:

- Ey, o‘g‘lim, o‘limimdan keyin shuncha boyliklarimning bari faqat senga qoladi. Ishonchim komilki, sen ularning barini behuda sarflab bitirasan. O‘shanda qo‘lingda hech narsa qolmay, ochlik va nochorlik bilan oxiri o‘limingga rozi bo‘lasan. Men narigi uyning burchagidagi tomning shiftiga bir arqon bog‘lab qo‘yibman. Jondan to‘ygan paytingda o‘zingni o‘sha arqonga osgin!

Ota bu gaplarni aytib jon berdi. Noqobil o‘g‘il ko‘p o‘tmay, barcha pullarni sarflab tamomladi. Oxiri gadoylik qilishdan or qilib o‘zini osib o‘ldirishga qaror qildi. Otasi tayinlab ketgan uyga kirib, arqonning uchini bo‘yniga solib, o‘zini osdi. Shunda tom ustuni uni ko‘tarolmay sinib ketdi. Shu on tuproq aralash otasi ataylab o‘g‘li uchun berkitib ketgan boyliklar yerga tushdi. Mehnat bilan topiladigan boylik qadrini tushunib yetgan o‘g‘il endi pulni o‘ylab ishlatadigan, hayrli yo‘llarga sarflaydigan bo‘ldi. Otasi xotirasi uchun xalqni xushnud qilishga va sahovat nuridan bahramand qilishga kirishdi.

II. **O, o‘, u, e** unlilari bilan tugaydigan so‘zlarga egalik qo‘shimchalari quyidagicha qo‘shiladi:

a) ko‘pchilik so‘zlarga egalik qo‘shimchalari: **-m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -si (yoki -lari)** shaklida tovush orttirmay qo‘shiladi: **orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi; tuyg‘um, tuyg‘ung, tuyg‘usi; tuyg‘umiz, tuyg‘ungiz, tuyg‘ulari** kabi.

5 – topshiriq. Quyidagi so‘zlarga egalik qo‘shimchalarini qo‘shib o‘qing va yodda saqlang.

bino
bobo
sado
uyqu
qayg‘u

→ **-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si(-lari).**

vino
kino
palto
byuro
dinamo

→ **-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si(lari).**

b) *parvo, obro‘, mavqe, mavzu, avzo* so‘zlarida I, II shaxs egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda bir *y* tovushi qo‘shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro‘yim, obro‘ying; obro‘yimiz, obro‘yingiz* kabi. III shaxs egalik qo‘shimchasi *parvo, avzo, obro‘, mavqe* so‘zlariga *-yi* shaklida; *parvoyi, obro‘yi, avzoyi, mavqeyi* kabi; *xudo, mavzu* so‘zlariga esa *-si* shaklida qo‘shiladi; *xudosi, mavzusi* kabi. *Dohiy, qirg‘iy* kabi *y* bilan tugaydigan so‘zlarga ham III shaxsda *-si* qo‘shiladi; *dohiysi, qirg‘iysi* kabi.

6 - topshiriq. Oxiri *y* bilan tugagan quyidagi so‘zlarga egalik qo‘shimchalarini qo‘shib o‘qing va yodda saqlang.

karnay
surnay
chiroy
to‘qay
novvoy

→ **-im, -ing, -i; -imiz, -ingiz, -i(lari).**

ssenariy
natriy
kalsiy
murabbiy
vodiy

→ **-im, -ing, -si; -imiz; -ingiz, -si(lari).**

7 - topshiriq. Matnni ifodali o‘qing, egalik va kelishik qo‘shimchalarining qo‘shilishi bilan tovush tushishi, tovush orttirilishi va tovush o‘zgarishi yuz bergan so‘zlarni aniqlang.

Muqanna

O‘rta Osiyoda arablarga qarshi olib borilgan erk janglari ichida tarixda “oq kiyimlilar qo‘zg‘oloni” deb nom olgan qo‘zg‘olon ayniqsa mashhurdir. Qo‘zg‘olonga Hoshim ibn Hakim degan kishi boshchilik qiladi. Uning taxallusi “Muqanna” edi. U hamisha yuziga parda tutib yurganligi uchun shunday laqabni olgandi. Muqanna yoshligida nihoyatda ko‘p kitob o‘qib, o‘z davrining zukko kishilaridan bo‘lib yetishgan edi.

Muqanna Marv atrofidagi qishloqda tug‘ilgan bo‘lib, bu yerda u ilk marta istilochilarni qoralovchi chaqiriqlar bilan chiqdi. U o‘z nutqlarida xalqni bosqinchi arablar qo‘l ostidan ozod bo‘lishga, kambag‘allarning boylar tomonidan ezilishiga barham berishga, istilochilarni Turondan quvib chiqarishga chaqirdi. Marvdagi arab noibi uni bunday ochiq tashviqotlari uchun tutib olib, jazolash maqsadida xalifalik

markazi Bag‘dodga jo‘natdi. Lekin u Bag‘dod zindonidan qochib, Marvga kelishga muvaffaq bo‘ldi. Muqanna Marvda o‘z izdoshlarini to‘plab, ularga Movarounnahrda borib, xalqni arablarga qarshi kurashga chaqirishni tayinladi. Xalifaning odamlari Muqannani Amudaryodan Turon tomonga o‘tkazmaslikka va uni ushlab olishga qattiq urindilar. Lekin shunga qaramasdan Muqanna daryodan eson-omon o‘tib olishga erishdi. Bu yerda uning tarafdorlarining soni kundan-kunga oshib bordi. Butun-butun qishloqlarning aholisi unga xayrixohlik bildirib, qo‘shila boshladilar. Muqanna tarafdorlari safiga arablar istilosidan so‘ng taxtidan ayrilgan Buxoro shohi Bunyod ibn Tashxoda ham o‘z lashkari bilan kelib qo‘shiladi. Uning maqsadi Buxoro mustaqilligini tiklab, yurtni arablar zulmidan xalos qilish edi. Muqanna tarafdorlari 10 yildan ziyod davr mobaynida Movarounnahrni qo‘lda tutib turdilar. “Oq kiyimlilar”ning obro‘yi oshib, islom dinining ham taqdiri xavf ostida qolgach, Xalifa al-Mahdiy barcha imkoniyatlarini ishga solib, nihoyatda ko‘p sonli qo‘shin to‘plab, Muqannaga qarshi ayovsiz jang boshladi. Bu tengsiz jangdan so‘ng muqannachilar yengildilar. Chunki xalifaning lashkarlari juda yaxshi qurollangan bo‘lib ularning barchasi muntazam askarlar edilar. Muqanna odamlarining deyarli barchasi dehqonlar va hunarmandlardan iborat edi.

8 – topshiriq. “Mening orzum” mavzusida kichik insho yozing.

13 – MASHG‘ULOT

Qo‘shib yozish qoidalari

Qo‘shma so‘zlarning quyidagi turlari qo‘shib yoziladi:

1) bir tushunchani ifodalovchi va bir bosh urg‘u bilan aytiladigan qo‘shma otlar va qo‘shma sifatlar: *kutubxona, tabriknoma, jo‘xoripoya, xushsurat, ilhombaxsh, kamgap, ulug‘ifat, izzattalab, gultojxo‘roz, oqqush, achchiqtosh* kabi. Shuningdek, qaratuvchi birikmaning (olmaning qoqisi - olmaqoqi) bir so‘zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi, masalan: *otquloq, sheryurak, devqomat, kirsovun, nosqovoq, belbog‘, cho‘lyalpiz, so‘zboshi, yurtboshi, makkajo‘xori* kabi;

2) **-(a) r** qo‘shimchasi bilan tugaydigan qo‘shma ot va sifatlar: *molboqar, beshiktervatar, izquvar, ko‘ngilochar, erksevar* kabi;

3) ikkinchi qismi turdosh otlardan bo‘lgan geografik joy nomlari: *Yangiyo‘l, Uchquduq, Oqsaroy, Beshariq, Zafarobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *Markaziy Osiyo, O‘rta Chirchiq, Ko‘hna Urganch* kabi;

4) son bilan otning birikuvidan hosil bo‘lgan turdosh qo‘shma otlar: *qirqquloq, sakkizoyoq, mingoyoq* kabi;

5) rus tilidan aynan o‘zlashtirilgan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan hosil qilingan qo‘shma so‘zlar: *kinoteatr, radiostansiya, elektrotexnika, fotoapparat, bayramoldi, telezhou* kabi;

6) qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi: *ToshMI, TAYIning, kolxozga, O'zmevasabzavot, O'zdon, BMT, NATO* kabi. Ammo ikki qisqartma ot yonma-yon kelsa, ular ajratib yoziladi: *O'zXDP MK (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi)* kabi.

1 - topshiriq. Quyidagi qo'shma so'zlarni ko'chiring va yozilishini eslab qoling.

Oyko'l, sofdil, xushmanzara, izquvar, oshqozon, oqsoqol, qo'lqop, tomorqa, ituzum, osmono'par, Oqdaryo, tezoqar, ertapishar, gulbeor, atirgul, hardamxayol, asalarichilik, Kattaqo'rg'on, Yangibozor.

2 - topshiriq. Matnni daftaringizga lotin alifbosida husnixat bilan ko'chiring va qo'shma otlarning tagiga chizing, ularning yozilishini tushuntiring.

Марказий Осиё

Шэбекистон Марказий Осиёнинг бир ыисмидир. Шрта Осиё эса Марказий Осиёнинг таркибий ыисми ыисобланади. У Каспий денгизидан Япон денгизигача етти минг километр ва шимолдан жанубгача бир ярим минг километрга чщзилиб кетган бщлиб, ер юзи ыуруьлигининг улкан майдонини эгаллаган. Тибет тоци бу катта щлкани жанубий денгизлар таъсиридан пана ыилиб турган бщлса, шимолдан Олтой ва Соян тоцлари, Хинган тоци Шимолий Муз океани таъсиридан ыимоя ыилади. Тяньшан эса Марказий Осиёни иккига - царбий ва шарый ыисмларга ажратади. Царбий ыисмда асосий майдонни Турон пасттекислиги, шарый ыисмда эса Буюк Хитой текислиги эгаллаган.

Помир ва Тяньшаннинг кенг музликлари дарёнинг ыосил бщлишига имконият яратган ва щлкага ыаёт олиб келган.

3 - topshiriq. Matnni o'qing, va undagi qo'shma so'zlarning yozilishiga e'tibor bering.

O'zbek ishi

“Jiguli hamon g'izillab borardi. Berdiyev bu yoqlarni yaxshi bilardi: “Mestniy kadr”, “XXV partsyezd” sovxozining sobiq direktori Panji Jumanov bilan hamqishloq...

Mashina sovxoz markaziga yetib keldi chog'i, xiyla obod manzara ko'rinadi. Ko'chaning bir tomoni - gulzor. Urush qurbonlariga o'rnatilgan didsizgina haykal. Bir yoqda ikki qavatli bino. Sovxoz idorasi bo'lsa kerak, marmar “shuba” bilan suvalgan. Undan narida tepasiga “Chayka” deb yozilgan kinoteatr. Yo'l chetida

o'zbek va rus tillarida har biri odamdek harflar bilan yozilgan shior: "Paxta - o'zbek xalqining internatsional burchi!"

Zum o'tmay, markaz ortda qoldi. Tuprog'i o'ynab yotgan qishloq ko'chasiga kirdilar. Ko'cha chetida zamonaviy beton simyog'ochlar. Suvi qurigan sement ariq. Aksariyatining devori oqlanmagan uylar. Ba'zilarining tomi shifer bilan yopilgan. Tepasida televizor antennasi. Ba'zilar suvoqli tom. Ustiga g'o'zapoya bostirib qo'yishibdi.

"Jiguli" bo'yog'i uniqqan darvoza oldida to'xtadi.

Koryagin darvozadan kirib oq to'xtab qoldi. Eh-eh, hovlimas, butun boshli ogorod-ku bu! Bemalol ko'p qavatli imorat qursa bo'ladi! Har kim shunchadan yerni egallab olaversa...

Razm solib bir narsani angladi. Hovli katta bo'lgani bilan bir qarich ham bo'sh joy yo'q edi. Bir tomonda pomidor, kartoshka, bodring pushtalari. Bir tomon jo'xorizor. So'tlari yig'ib olingan, ammo sarg'aygan poyalari so'ppayib turibdi. Nariroq olmazor... O'rik, olcha daraxtlari...

Koryagin beixtiyor Berdiyevga ergashib chap tomondagi bostirma oldiga bordi. Bostirmada chang o'tiraverib rangini aniqlab bo'lmaydigan ahvolga kelgan AZLK "Moskvich" mashinasi turibdi. Mashina yonboshida bitta zanglagan kanistr, ikkita pachoq flaga dumalab yotibdi...

14 - MASHG'ULOT

1. Ajratib yozish

Quyidagi qo'shma so'zlar ajratib yoziladi:

1. Ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan qo'shma otlar: ***Butun Rossiya, Umum Yevropa, O'rta Chirchiq, Sharqiy Sibir, Ko'hna Urganch*** kabi.

2. Shajara va jinsni bildiruvchi kishi nomlari: ***Nizomiddin Alisher Navoiy, Muhammad Rizo Ogahiy, Zebiniso Razzoq qizi, Abu ali ibn Sino*** kabi.

3. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: ***tushib qoldi, tamom bo'ldi, jilva qildi*** kabi.

4. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: ***ko'rinib turibdi, aytib berdi, boshlanib ketdi, tabriklay boshladilar, chaqira bildilar*** kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: ***jo'nayverdi (jo'nay berdi), yurarkan (yurar ekan), borardi (borar edi), bilarmish (bilar emish)*** kabi.

5. Ko'makchilar ajratib yoziladi: ***shu bilan, yil sayin, borgan sari, kun bo'yi*** kabi.

6. ***Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha*** so'zlari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi; ***hamma vaqt, har kim, hech nima, qay bir, u yerda, shu tomondan, o'sha yoqqa*** kabi. lekin ***birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon*** so'zlari qo'shib yoziladi. Shuningdek, ***qay*** so'zi ***yoq, yer*** so'zlari bilan ishlatilganda bir ***y*** tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: ***qayoqqa, qayerga*** kabi.

7. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan *to‘q, jiqqa, jim, liq, lang, och* kabi so‘zlar ajratib yoziladi: *to‘q qizil, jiqqa ho‘l, tim qora, liq to‘la, lang ochiq, och pushti* kabi.

8. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *o‘n besh, bir yuz ellik beshta, bir ming besh yuz yetmish oltinchi* kabi.

9. *Kundan kunga, tog‘dan tog‘ga, oydan oyga* kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo‘nalish kelishigida bo‘lgan birikmalar ajratib yoziladi.

10. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi *ko‘pdan ko‘p, mingdan ming, ochdan och, yangidan yangi, qizigandan qizidi* kabi so‘zlar ajratib yoziladi.

11. Izofali so‘zlar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so‘zlarga *i* shaklida, inli bilan tugagan so‘zlarga *yi* shaklida qo‘shiladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so‘zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o‘zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so‘zlar qo‘shib yoziladi: *gulbeor (guli beor), dardisar* kabi.

1 - topshiriq. So‘zlarni o‘qing va ularning yozilishini yodda saqlang.

O‘rta Osiyo, Quyi Chirchiq, Markaziy Osiyo, Ko‘hna Urganch, Eski jo‘va, O‘rta yer, Oltin O‘rda, Yaqin Sharq, Yetti qaroqchi, Muz yorar, temir yo‘l, cho‘qqi soqol, sof dil, bodom qovoq, besh yillik, tosh yurak.

2 - topshiriq. Gaplarni ko‘chiring, qo‘shma so‘zlar tagiga chizing.

1. Menda biror kimsaning haqi bo‘lsa, haqini hech vaqt unutmadim. Biror kimsa bilan tanishgan bo‘lsam, uni hech nazardan qoldirmadim. 2. Chin do‘st uldurki, do‘stidan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi. (A.Temur). 3. Mirzo Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay buyuk o‘zbek olimi va davlat arbobi bo‘lishi bilan birga O‘rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini O‘rta asr sharoitida dunyo fanining oldingi safiga olib chiqqan olimlardan biridir. 4. U uy o‘rtasida birpas qaqqayib turdi-da, eshikka chiqib Yetimtepaga qaradi. Tepa ko‘rinmas. U ko‘m-ko‘k osmonga qo‘shilib ketganday edi. 5. Mashinist oppoq tog‘ bag‘irlab ketdi va Pushti O‘rdak degan yerda to‘xtadi. (Sh. Xolmirzayev.) 6. Otabek og‘ir tabiatli, ulug‘ gavdali, ko‘rkam va oq yuzli, kelishgan, qora ko‘zli, qora qoshli yigit edi.

II. Chiziqcha bilan yozish

1. Juft va takror so‘z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, oshna-og‘ayni, yor-birodar, choy-poy, bola-chaqa, g‘ala-g‘ovur, katta-katta, sezilar-sezilmas, oldi-berdi, so‘ramay-netmay, ming-minglab, besh-olti, o‘nta-o‘nta, yura-yura, duk-duk, tasir-tusir, bay-bay, voy-bo‘y, ko‘p-ko‘p, yildan-yilga* kabi.

Eslatma: 1) juft so‘zdan qo‘shimcha yordamida yasalgan so‘zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxtli-saodatli, xayr-xo‘shlashmoq, uvali-juvali* kabi;

2) juft soʻz qismlari orasida **-u(-yu)** bogʻlovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qoʻyiladi va juft soʻz qismlari ajratib yoziladi: **kecha-yu kunduz, yosh-u qari, katta-yu kichik, ilm-u fan** kabi;

3) yetakchi va koʻmakchi feʼl bir xil shaklda boʻlsa, chiziqcha bilan yoziladi: **yozdi - oldi, aytasan - qoʻyasan** kabi.

2. Belgini kuchaytiruvchi **koʻm-koʻk, kap-katta, tip-tiniq** kabi soʻz shakllari, hamda belgining noaniqligini ifodalovchi **chala-chulpa, ola-kula, mayda-chuyda, kalta-kulta, gʻadir-budir** kabi soʻz shakllari chiziqcha bilan yoziladi.

3. Soʻzning **-ma, -ba** yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: **eshikma-eshik, yoʻlma-yoʻl, dam-badam, rang-barang** kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday soʻzlar qoʻshib yoziladi: **roʻbaroʻ, darbadar** kabi.

4. Rus tilidan aynan yoki soʻzma-soʻz tarjima qilish yoʻli bilan olingan soʻzlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: **vitse-prezident, eks-chempion, unter-ofitser, kilovat-soat, changlagich-purkagich** kabi.

5. Rus tilidan oʻzbek tiliga kirib, qoʻshaloq soʻzdan tashkil topgan familiyalarning ikkala qismi chiziqcha bilan ajratib, bosh harflar bilan yoziladi: **Saltikov- Shchedrin, Nikolayeva-Tereshkova** kabi.

6. **-chi, -a(-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey)** yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: **sen-chi, koʻraylik-chi, men-a, u-ya, koʻradi-da, bolam-ey, keldi-yey, bor-e** kabi. Ammo **-mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, -qina)** yuklamalari oʻzidan oldin kelgan soʻzga qoʻshib yoziladi: **menmi, kelasanmi, yotiboq, borganov, mengina, choʻziqqina** kabi.

7. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, **-nchi** qoʻshimchasi oʻrniga chiziqcha qoʻyiladi: **10- sinf, 8-“B”, 5-, 6-, 7- sinflar, 90- yillar, 2003- yilning 15- apreli** kabi. Ammo tartib sonlar rim raqami bilan yozilsa, chiziqcha qoʻyilmaydi: **XX asr, VIII sinf** kabi.

3 - topshiriq. Gaplarni oʻqing. Chiziqcha bilan yozilgan soʻzlarni izohlang.

1. Togʻang koʻp serhavas chiqdi-da, biratoʻla toʻrt xonali uy qurdi. Har xonasida qancha qaqir-ququr. Uy doim yaraqlab tursin emish, boʻlmasa mehmon-izlom, oshna-ogʻaynilaridan nomus qilarmish. 2. Yam-yashil dalalar, rango-rang lolalar bilan bezalgan qirlar kishining bahrini ochib, koʻnglidagi chigallarni yechar edi. 3. XX asrning 90- yillariga kelib Oʻzbekiston yangi taraqqiyot yoʻliga oʻtib oldi. 4. Onaxon yangi bir qaynoq ishning oʻrtasiga tushib qoldi. 5. Bektemir quvonchidan qichqirib yubordi, qizchani koʻtarib qoqila-suqila yugurdi. (M.O.)

4 – topshiriq. Matnni koʻchirib yozing, tartib sonlardan keyin chiziqcha qoʻyishni unutmang.

1989- yil 21- oktabr - “Davlat tili toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilingan.

1991- yil 1- sentabr - Oʻzbekiston Respublikasining mustaqillik kuni.

1991- yil 18- noyabr - Oʻzbekiston Respublikasining Davlat bayrogʻi tasqiqlandi.

1992- yil 2- mart - O'zbekiston BMTga qabul qilindi.

1992- yil 2- iyun - O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasdiqlandi.

1992- yil 8- dekabr - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1992- yil 10- dekabr - O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi tasdiqlandi.

1994- yil 1- iyulda - O'zbekiston Respublikasining Milliy valutasini muomalaga kiritildi.

5 – topshiriq. Matnni husniyat bilan lotin alifbosiga o'girib ko'chiring va undagi chiziqlar bilan yozilgan so'zlarga e'tibor bering.

Инсон бахт-саодат нимадалигини тушунган бўлса-ю, унга эришишни маъсад ёилиб олмаса, цоя ва хоёишига айлантормаган бўлса, унга нисбатан озгина завъу шавъ сезмаса, кучу ёувватини зарур нарсаларга сарфлай билмаса бу ёилмишлари ёмон ва ношриндир.

Инсоннинг маъсади ёаёиёий бахт-саодатга эришув экан, инсон бу маъсадни шзининг олий цояси ва истагига айлантриб, бу йшда барча имкониятлардан фойдаланиши зарур. (Форобий) .

6 – topshiriq. Matnni ifodali o'qing. Undagi qo'shma so'zlarga hamda chiziqlar bilan yozilgan so'zlarga e'tibor bering.

Jaloliddin Manguberdi

XII asr boshlarida Turon va uning xalqi boshiga og'ir kulfat tushdi. Chingizxon qo'shinlari yurtimizni talab, vayron qildilar. Istibdod va haqoratlarga chiday olmagan Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullarga qarshi jangga kirdi. U el-yurtining haqoratlangan, toptalgan or-nomusi, erki uchun yovdan o'ch olishga bel bog'ladi. Jasur va dovyurak Jaloliddin maydonga tushgunga qadar mo'g'ullar Turonda qattiq zarbaga duch kelmagan edilar. Tadbirkor sarkarda dushmaning xayoliga ham kelmagan usullarni qo'llab, uni bir necha bor mag'lubiyatga uchratdi. Jaloliddin siymosida o'zidan zo'r raqibni ko'rgan, agarda uni yo'q qilmasa o'zi va o'g'illariga hech qachon omonlik bo'lmasligini anglagan Chingizxon lashkarga o'zi boshchilik qilib, jangga kiradi.

Bu jang 1221- yilning kuzida Hind daryosi qirg'og'ida sodir bo'lib, zafar goh yovning, goh yurtdoshlarimizning tomoniga o'tib turadi. Jangda har ikki tomondan ko'plab botirlar halok bo'ldilar. Holdan toygan xorazmliklar suzish vositalaridan ham judo bo'ladilar. Yov ularni tezoqar daryo tomonga siqib kelaveradi. Shunda Jaloliddin onasini, xotinlari va boshqa yaqinlarini yov qo'liga tushib, haqoratlanishi-yu, nomusi toptalishidan saqlab qolish maqsadida ularni daryoga tashlashni buyuradi. Ular ham Jaloliddinning qarorini to'g'ri deb qabul qilib, asirlikdan ko'ra o'limni afsal ko'radilar. Qahramonning o'zi esa oz sonli yigitlari

bilan daryoga ot solib, narigi qirg'oqqa o'tib oladi. Bo'lib o'tgan voqeadan hayratlangan Chingizxon uning orqasidan quvlash fikridan qaytadi.

Jaloliddin xorijiy ellarda o'n yillar davomida Turonni yovdan ozod qilish ishtiyoqi bilan yashadi. Shunday og'ir sharoitda ham Turonda uni qo'llab-quvvatlamadilar. Fitna-fasodlar va tarqoqliklar unga mo'g'ullarga bas kela oladigan qo'shin to'plashga imkon bermadi. Lekin shunga qaramay, u dushman qo'shinlarining xotirjamligiga barham berdi, ularning ko'p lashkarlarini janglarda qirib tashladi. Mo'g'ullar, agarda Jaloliddin tirik bo'lsa, o'zlariga omonlik bo'lmasligini yaxshi bilardilar. Shuning uchun qanday bo'lmasin uni yo'q qilishga qattiq kirishdilar. Jasur Jaloliddin jang qila-qila Tavr tog'lariga chiqib ketdi. Tog'dagi Ayn-Dar qishlog'i yonida uni ko'rib qoldilar, ushlab olishib, taladilar va so'ngra o'ldirmoqchi bo'ldilar. Sulton kurdarning boshlig'iga uni o'ldirishga shoshilmaslikni, uni Mayafarinkin hukmdoriga topshirishni yoki o'z mamlakatiga jo'natib yuborishni maslahat berdi. Kurd Jaloliddinning gaplariga quloq solib, unga yordam berishga qaror qildi. U holdan toygan sultonni o'z chodirida qoldirib, ot topib kelish uchun chiqib ketdi.

Chodirning egasi yo'qligida boshqa bir kurd kelib, uning xotinidan bu yerda kim borligini so'radi. Xotin ichkarida Xorazm sultoni o'tirganligini, u erining mehmoni ekanligini aytdi. Kurd chodir ichidagi Jaloliddinning sulton ekanligiga ishonmadi va xorazmliklar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan ukasi uchun qasos olishga qaror qildi. Yomg'irdan ivib ketgan botir olovga isinib, kiyimlarini quritib o'tirganida, xoin kurd uning orqasidan kelib tig' sanchdi. Yovuz Chingizxon bilan bo'lgan omonsiz janglarda o'lim bilan bir necha bor yuzma-yuz kelib omon chiqqan sulton xoinning qo'lidən qutulib qololmadi. Bu kulfat 1231- yilning 17–20-avgustlarida sodir bo'ldi.

Ulug' Xorazmning so'nggi shahanshohi, mard Jaloliddin shu tariqa halok bo'ldi. Turon xalqi uzoq yillar uning o'ldirilganligiga ishonmaganlar. Onalar bolalariga vatanparvar, botir Jaloliddin haqida allalarida qo'shiq qilib so'zlab berganlar.

15 – MASHG'ULOT

Bosh harflar imlosi

1. Gapdagi birinchi so'z, kishilarning familiyasi va ismi, shajarasi, laqabi, tahallusi (*Zahiriddin Muhammad Bobur, Cho'lpon, Amir Temur ibn Tarag'ay, G'afur G'ulom, Julqunboy* kabi); shuningdek, hayvonlarning laqablari (*Ziyrak, Mosh, Popukvoy* kabi); geografik joy nomlari (*Sharqiy Turkiston, Qizilqum, Chotqol* kabi); yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti (*Zuhro, Mirrih, Yer, Quyosh, Oy* kabi); davlatlarning nomlari (*Angliya, O'zbekiston Respublikasi* kabi) bosh harf bilan yoziladi.

1 – topshiriq. Matnni o'qing. Undagi bosh harflar bilan yozilgan so'zlar imlosiga e'tibor bering.

Bobur va Xondamir

- Menimcha ham endigi yuksalish asri Hindga ko'chganga o'xshaydi. Vatandan quvilgan juda ko'p ilm-u san'at ahli sizdan panoh istab Hindga kelishlari o'rinlidir. Ahvol o'zgardi. Axir bir vaqtlar Xuroson va Movarounnahr ham rivojlanayotgan emasmi? Xorazmda Beruniy, Buxoroda Ibn Sino, Tusda Firdavsiy, Bolosog'unda Yusuf Xos Xojib ish ko'rdilar. Bular asrdosh edilar. Chingizxonning o'rdalari bosib kelib, taraqqiyot yo'lini to'sib qo'ydilar. Ulug'bek davrida Samarqandda, Navoiy davrida Hirotida juda ko'p madaniy daholar yana uyg'ondi. Yangi yuksalishlar asri boshlandi. Lekin taqdir buni ham bizga ko'p ko'rdi. ...Men Hirotida topolmay yurgan madadni shu yerdan topdim.

Pirimqul Qodirov. "Yulduzli tunlar" romanidan.

2 - topshiriq. She'riy parchani ifodali o'qing va mazmunini tushuntiring.

Tarixingdir ming asrlar	So'ylasin Afrosiyob-u
Ichra pinhon, o'zbekim,	So'ylasin O'rhun xati,
Senga tengdosh Pomir-u	Ko'hna tarix shodasida
Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.	Bitta marjon, o'zbekim.
Al Beruniy, Al Xorazmiy,	
Al Forob avlodidan,	
Asli nasli balki O'zluq,	
Balki Torxon, o'zbekim.	

II. Fabrika, zavod, jamoa xo'jaligi, sport jamiyati, kino, teatr, kitob, gazeta, jurnal, shuningdek, transport vositalari nomlari qo'shtirnoqqa olinib, bosh harf bilan yoziladi (bu nomlar birikmali bo'lsa, faqat ularning birinchi so'zi bosh harf bilan yoziladi): ***"Kecha va kunduz" romani, "Kamolot" yoshlar tashkiloti, "Dinano" sport klubi, "Avtomobilchi" gazetasi*** kabi.

3 - topshiriq. Mashqni ko'chiring. So'zlarning bosh harf bilan yozilish sababini tushuntiring.

1. Hudoyberdi To'xtaboyev "Shoshqaloq", "Sehrli qalpoqcha", "Sariq devni minib", "Sir ochildi", "Besh bolali yigitcha" kabi qator asarlarning muallifidir. 2. "Iste'dod" jamg'armasi iqtidorli pedagoglar hamda talabalarning chet ellarda o'qib tajriba oltirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. 3. "Milliy ta'lim" gazetasida "O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturi" e'lon qilindi. 4. "Sharq" matbaa konserni mamlakatimizdagi eng yirik va zamonaviy nashriyotlardan biridir.

III. a) turli konferensiya, hujjat va rezolutsiyalar, tarixiy sanalar, voqealar, urushlarning nomlari (agar bu nomlar birikmali bo'lsa, ularning birinchi so'zi): ***Ulug' Vatan urushi, Mustaqillik kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti*** kabi;

b) bayram va har xil muhim voqealar (oylar)ning nomini bildiruvchi so'zlarning ikkala qismi bosh harf bilan yoziladi. Birinchi qismi tartib son bilan

ifodalangan bo'lsa, keyingi so'z bosh harf bilan yoziladi: **Sakkizinchi mart - 8- Mart, Birinchi sentabr – 1- Sentabr** kabi;

d) oliy davlat tashkilotlari va mansablarning, xalqaro tashkilotlarning nomlaridagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi: **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining raisi, Oliy Bosh Qo'mondon** kabi;

e) boshqa tarkibli nomlarda oily mansabni bildiruvchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: **Bosh vazirning o'rinbosari, Milliy tiklanish partiyasi** kabi;

f) vazirlar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: **Sog'liqni saqlash vazirligi, Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti, Avtomobilsozlik fakulteti** kabi.

4 - topshiriq. Mashqni ko'chiring. Undagi bosh harflar bilan yozilgan so'zlarning ostiga chizing va ularning bosh harf bilan yozilish sababini izohlang.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan 1- Sentabr Mustaqillik kuni sifatida keng nishonlanib kelmoqda. 2. 9- May - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan bir guruh faxriylarga Prezident sovg'alari topshirildi. 3. 8- Mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan Respublikamizdagi tadbirkor ayollarning Toshkent anjumani bo'lib o'tdi. 4. 2003- yil O'zbekistonda Obod mahalla yili, deb e'lon qilindi. 5. 2003- yilning 3 - 4 may kunlari Toshkentda Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot bankining yillik yig'ilishi bo'ldi. 6. Ertaga Maorif vazirligida yil yakunlari bo'yicha hisobot majlisi o'tkaziladi.

IV. a) davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: **“O'zbekiston qahramoni” (unvon), “Oltin Yulduz” (medal)** kabi. Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: **“Sog'lom avlod uchun” (orden), “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi”** kabi;

b) tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harflar bilan yoziladi: **AQSH (Amerika Qo'shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi)** kabi. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: **O'zMU (O'zbekiston Milliy universiteti)** kabi.

5 - topshiriq. Gaplarni ko'chiring va bosh harf bilan yozilgan so'zlar tagiga chizib, ularning bosh harf bilan yozilish sababini izohlang.

1. AQSH (Amerika Qo'shma Shtatlari)ning Mayami shtatiga O'zbekistonlik bir guruh talabalar o'qishga yuborildi. 2. I. A. Karimovning Afg'onistonda tinchlik o'rnatish to'g'risidagi taklifi BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti)ning Jahon Tinchlik Kengashi tomonidan ma'qullandi. 3. O'zbekiston Mustaqilligiga 10 yil to'lishi munosabati bilan E. Vohidov, A. Oripov, Odil Yoqubov, P. Qodirovlar Respublikamizning eng oily mukofoti -“O'zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandilar. 4. Abdumalik Karimov ikki marta “Mehnat belgisi” ordeni bilan hamda

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi prezidiumining “Faxriy yorlig‘i” bilan mukofotlandi. (A.Rahmat.) 5. 1995- yilda ishga tushgan “O‘zDEU” qo‘shma korxonasi “Neksia”, “Tiko”, “Damas”, “Matiz” kabi zamonaviy avtomobillarni ishlab chiqaradi.

6 - topshiriq. Matnni husnixat bilan lotin alifbosiga o‘girib ko‘chiring va yodda saqlang.

«Ыадис» дан намуналар

1. Фарзандларингизга бир хил меърда бщлинглар, уларга кийим ва таомларни баробар таъсимланглар.

2. Щзингизга ёъъан нарсани бошьаларга ыам раво кщринг.

3. Зиёратингизга келган одам ыурматини жойига ьщйинглар.

4. Инсон хатони кщпроъ щз тили билан содир ылади.

5. Ёшларнинг яхшилари щзларини катта ёшдагилардек оцир тутадиганларидир. Катта ёшдагиларнинг ёмонлари эса щзини ёш боладек енгил тутадиганларидир.

6. Илмга нисбатан гщё чщпон каби посбон бщлинглар, лекин илмни ривоят ыилувчи бщлманглар.

7 - topshiriq. Matnlarni ifodali o‘qing.

Temur Malik

Chingizxon qo‘shinlariga qarshi tengsiz kurashda Jaloliddin yolg‘iz emas edi. Sirdaryo bo‘yidagi ko‘hna Xo‘jand shahrida Temur Malik ismli safdoshi bor edi. Xo‘jand shahrini mo‘g‘ullardan himoya qilishga uning hokimi, jasur Temur Malik boshchilik qildi. Dushman shaharni ancha vaqt qamal qilib turdi. Xo‘jandliklar og‘ir sharoitda katta qahramonlik ko‘rsatdilar. Ammo ayrim amaldorlarning xoinligi qimmatga tushdi. Ular kechasi Temur Malikdan yashirincha, qimmatli sovg‘a-salomlar bilan yovdan shafqat so‘radilar. Xoinlar shahar darvozasini ochib berib, o‘z boyliklari va jonlarini saqlab qolmoqchi edilar. Bu dushmanga ma‘qul tushdi. Bunday xoinlikdan kech xabar topgan Temur Malik ularni la‘natladi va mingga yaqin jasur yigitlari bilan Sirdaryo o‘rtasidagi orolchaga o‘rnashib oldi. Shu yerdan turib botir yigitlar Temur Malik rahbarligida mo‘g‘ullarga kuchli zarbalar berdilar. U dushman bilan jang qila-qila Xorazmgacha yetib bordi va jasur Jaloliddinga qo‘shildi. U boshliq jasur yigitlar Xorazmda, Xuroson va Afg‘onistonda jang qilib mo‘g‘ullarga zarbalar berdilar.

Safdoshi Jaloliddin xoin qo‘lida halok bo‘lganidan so‘ng ham Temur Malik dushmanga qarshi kurashni davom ettirdi. So‘ngra darvesh libosini kiyib, Suriya va boshqa arab mamlakatlarini kezdi. Ancha yillardan keyin, darbadarlik va og‘ir janglarda keksaygan Temur Malik o‘z ona yurti Xo‘jandga kelib, o‘z o‘g‘li mo‘g‘ul Botuxonga xizmat qilayotganini eshitadi. Temur Malik darvesh qiyofasida o‘z darvozasini taqillatadi. Darvozani ochgan o‘g‘li uni tanimaydi va eshikni uning

yuziga yopadi. Afsuski, boshqa xo‘jandliklar ham qahramonga e‘tibor bermaydilar. Ular mo‘g‘ullardan qo‘rqib, jasur Temur Malikni tanisalar ham o‘zlarini tanimaganga oladilar. O‘g‘li va o‘z yurtdoshlarining bu qabihliklaridan boshi egilgan Temur Malik mo‘g‘ul xoni saroyiga yo‘l oladi. U yerda xonni haqoratlab so‘kadi va shundan so‘ng mo‘g‘ullar uni o‘ldiradilar. Shunday qilib, jasur Temur Malik umrining oxirigacha jangchi va qahramon sifatida qoladi.

Mahmud Torobiy

Buxoro yaqinidagi Torob qishlog‘idan bo‘lgan chit to‘quvchi Mahmud mo‘g‘ullarga qarshi xalq qo‘zg‘oloniga rahbarlik qildi. U o‘z qishlog‘i va uning atrofidagi mo‘g‘ullarga, ularga xalqni ezishda yordam berayotgan mahalliy boylarga qarshi otashin nutq so‘zlab, qo‘zg‘alishga da‘vat qildi. Uning so‘zlari dushman zulmidan ezilgan minglab oddiy odamlarni erk uchun kurashga uyg‘otdi. Buxoro hukmdorlari Mahmudni ushlab qatl qilish yo‘llarini axtardilar. Lekin uning tarafdorlari kundan-kunga ko‘payib bordi. Torobiy xoin boylarning mol-mulklarini kambag‘allarga bo‘lib berardi.

Torobiy harakatidan talvasaga tushgan mo‘g‘ullar jon-jahdlari bilan qo‘shin to‘plab, katta qo‘shin bilan Buxoro tomon yurdilar. Bu jangda Torobiy boshliq qo‘zg‘olonchilar g‘olib chiqdilar. Mahmud Torobiy xalq boshiga kulfatlar keltirayotgan katta soliqlarni va xalqni qullik asoratiga solayotgan noiblarni yo‘q qilish uchun uzoq kurashdi. 1238- yilda mo‘g‘ullar juda katta qo‘shin bilan qo‘zg‘olonni bostirib, xoinlar yordamida uning boshliqlarini qatl qildilar.

Bu qo‘zg‘olondan keyin bosqinchi mo‘g‘ullarga qarshi yangi-yangi kuchlar maydonga chiqa boshladi. Shunday kuchlardan biri sarbadorlar edilar. Bu harakat XIV asrning birinchi yarmida Xurosonda yuzaga keldi. Unda dehqonlar, hunarmandlar, kichik savdogar va ma‘rifat kishilari qatnashdilar. Tezda bu harakat Turonga tarqalib, Samarqand uning o‘chog‘iga aylandi. Samarqand sarbadorlar harakatining boshliqlari madrasa talabasi Mavlonzoda, paxta kalavalovchi Abubakr Kalaviy, mohir mergan Xo‘rdaki Buxoriy edilar. Sarbadorlar jonajon Samarqandni qattiq himoya qilib, mo‘g‘ullarning katta qo‘shinini yengdilar. Ular mo‘g‘ullarni 1365- yilda avval Samarqanddan, so‘ngra Movarounnahrda quvib yubordilar. Turonda mo‘g‘ullar zulmiga chek qo‘yilib, ular to‘liq mustaqillikka erishdilar.

Sarbadorlarning bu g‘alabasini Amir Temur eshitib, Samarqandga yetib keladi va ayrim sarbadorlarni xoin Husayndan qutqarib qoladi. 150 yillik bosqinchilikdan so‘ng mo‘g‘ullar hukmronligi tugatiladi. Movarounnahrda Amir Temur hukmronligi davrida markazlashgan, ilm-madaniyat kuchli rivojlangan mustahkam davlat tashkil topadi.

16 – MASHG‘ULOT

Takrorlash mashqlari

1 - topshiriq. Harflarni alifbo tartibida o‘qing.

Y	P	M	D	O‘
---	---	---	---	----

T	R	Sh	H	L
I	X	Ng	V	F
U	Z	N	A	B
O	G‘	Ch	J	K
S	E	Q	G	

2 – topshiriq. Yuqoridagi jadvaldan foydalanib, avval unli tovushlarni, so‘ngra undosh tovushlarni o‘qing.

3 – topshiriq. Jadvalda berilmagan harflarni aniqlang.

T	R	Y		M
Sh		D	O‘	L
X	U	I	Ng	Z
N	B		F	V
G‘	O	J		K
E	S	G	Q	

4 – topshiriq. Qaysi qatorda harflarning alifbo tartibi buzilganligini aniqlang.

1.

F	E	H	G
---	---	---	---

4.

V	U	X	Z
---	---	---	---

2.

S	P	Q	T
---	---	---	---

5.

G‘	SH	CH	Ng
----	----	----	----

3.

I	J	K	L
---	---	---	---

6.

M	P	N	O
---	---	---	---

5 – topshiriq. Bo‘sh kataklarga kerakli harflarni joylashtiring.

1.

A,B	D,E	
-----	-----	--

4.

E,F		I,L
-----	--	-----

2.

	H,I	J,K
--	-----	-----

5.

	O,P	Q,R
--	-----	-----

3.

S,T		X,Y
-----	--	-----

6.

Y,Z		ShCh
-----	--	------

6 - topshiriq. Kataklardagi harflarning o‘ng va chap tomonidagi harflarni toping.

1.

	B	
--	---	--

5.

	O	
--	---	--

2.

	I	
--	---	--

6.

	R	
--	---	--

- | | | |
|--|---|--|
| | V | |
|--|---|--|
- | | | |
|--|---|--|
| | U | |
|--|---|--|
- | | | |
|--|---|--|
| | K | |
|--|---|--|
- | | | |
|--|----|--|
| | Sh | |
|--|----|--|

7 – topshiriq. Matnni lotin alifbosiga o‘girib, husnixat bilan ko‘chiring va yodda tuting.

«Ыадис»дан намуналар

1. Ёшликдан Ёабргача илм шрган.
2. Киши Ёаётда тежамкор бшлса, зинйор Ёашшоьликка тушмайди.
3. Кийимнинг янгиси, ёр-биродарнинг эскиси яхши.
4. Кишининг гшзаллиги унинг тилидан билинади.
5. Инсон моли ва насаби билан эмас, илми ва одоби билан шарафлидир.
6. Бадбахт одамлардагина раъму шафъат бшлмайди.
7. Кимки отасининг вафотидан кейин Ёам унга яхшилик Ёилишни истаса, унинг ёру биродарлари билан алоъани узмасин.

8 - topshiriq. Matnlarni tez o‘qishga harahat qiling.

Sohibqiron Amir Temur haqida

Sharafiddin Ali Yazdiy. (Tarixchi.) “Bir yil mobaynida Bag‘dod shahrini tiklash haqida buyruq berildi, toki shahar yana o‘z qiyofasini olsin, unda hunarmandchilik rivojlansin, tevarak atrofida dehqonchilik o‘ssin, savdo-sotiq va madaniy hayot keng tarmoq yoysin, islom bilimi ilgarigiday yoyilsin. Bu vazifa Amirzoda Abu Bakrga topshirildi.

Araks daryosidan kanal qazdirib, shaharga suv keltirdi. Barcha qurilish ishlari qo‘shinlar o‘rtasida taqsimlandi. Bir oy ichida yangidan tiklangan shahar - Boilkon qal‘asi paydo bo‘ldi, bir yil davomida esa mudofaa uchun aylana devorlar va bosh inshootlar qad ko‘tardi”.

L. Lyangle. (Fransuz olimi.) “Temur olimlarga seriltifotli edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko‘rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda bilimdon bo‘lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Negaki Temur bu sohalarga g‘amxo‘rlik qilishga asosiy e‘tiborni berar edi. Temur odamlarni o‘ziga bo‘ysundirish qobiliyatiga ega edi. U o‘z fuqarosining ahvoli haqida yaxshi boshliqlari bergan ma‘lumotlarni o‘zi shaxsan ko‘zdan kechirardi, negaki u odam taniy va tanlay biladigan shoh edi”.

Ahmad bin Muhammad bin Arabshoh. (Arab tarixchisi.) “Temur gavdasi kelishgan, uzun bo‘yli odam edi. Peshonasi ochiq, kallasi katta, ovozi jarangdor bo‘lib, kuchi jasurligidan qolishmasdi; oqish yuzini och qizil rang jonlantirib turardi. Yelkalari keng, barmoqlari to‘liq, qovurg‘alari uzun, muskullari kuchli edi. Uzun soqol qo‘yib yurardi. O‘ng qo‘li va o‘ng oyog‘i mayib, qarashlari yetarli yoqimli edi. O‘limni pisand qilmasdi; qariyb 80 ga kirib o‘layotgan chog‘ida aql-zakovatini ham, dovyurakligini ham yoqotmagan edi. U yolg‘on-yashiqning dushmani bo‘lib, hazil uning ko‘ngliga yoqmasdi”.

A. Yu. Yakubovskiy. (Olim.) “1400- yilda Temur askarlari O‘rta Osiyodan uzoqda - G‘arbda turk sultoni Boyazid va Misr sultoni Farajga qarshi urush olib bordi. 1402- yilda Anqara yonida Temur ikkinchi marta Boyazid bilan jang qildi. Bu jang o‘sha davrdagi eng katta janglardan bo‘lgan edi. Har ikki tomondan 200 mingdan ortiq askar qatnashdi. Bu jangda Boyazid batamom tor mor etildi va Boyazid asir olindi. Bu g‘alaba faqat Osiyo tarixi uchungina ahamiyatli bo‘lib qolmadi. Temur o‘zining bu g‘alabasi bilan Yevropa xalqlariga ikkinchi marta xizmat qildi”.

G. Vamberi. (Ingliz olimi.) “Temur Osiyoning hamma qismidan hadsiz-hisobsiz xazina va boylik yig‘di, lekin ularni xasis odamlar kabi saqlamadi. Buni, birinchidan, uning saroyining boy va hashamatliligi, ikkinchidan esa ham o‘z rezidensiyasini, ham o‘z shahrini bezab turuvchi g‘oyat ulkan va muhtasham binolar qurdirgani isbotlaydi. Shuning uchun ham Temurni Chingizxon bilan bir qatarga qo‘yib, uni yovuz, o‘zboshimcha, mustabid hokim, deb atovchilarning fikrlari ikki tomonlama xatodir”.

L. Lyangle. (Fransuz olimi.) “Uning uchun do‘stlikning ham gashti, latofati bor edi. Mehribonligi, shirinsuhanligi tufayli do‘stlar orttirdi, ularni chin do‘st deb atashdan tortinmadi va bu do‘stlikni saqlab keldi. Chunki Temur do‘stlik faqat do‘stlik bilan qaytarilishini, barcha boyliklari harbiylar yoki xushomadgo‘ylarni yollash uchun xizmat qilajagini yaxshi bilar edi. Uning taqvodor Imom Barakaga katta ixlos qo‘ygani, bu xudojo‘y odamning vafotini eshitib ko‘z yoshi to‘kishi qudratli sulton tabiatiga xos bo‘lgan ajoyib xislatlar edi”.

17 – MASHG‘ULOT

O‘qish uchun matnlar

Texnika olamida!

Restoran-avtomobil

Fransiyada g'aroyib restoran ixtiro qilishdi. Bu o'ziga xos huzur-halovat joyi avtomobilga moslashtirilgan. To'rt g'ildirak ustiga ikkita oromkursi, bejirim stol, ofitsiant uchun maxsus joy qilingan. Qizig'i shundaki, restoran-avtomobil Parij ko'chalari boylab yurib turadi, demak, mijozlarning hordiq chiqarishlari sayr-u tomoshaga ulanadi, ular hecham zerikib qolishmaydi.

Restoran-avtomobilning mijozlari asosan oshiq-ma'shuqlar - sevimlilardir. Ularning sayr etib orom olishlari uchun esa hamma narsa muhayyo. G'ildirakli oromgohga qiziqish kattaligini shundan ham bilsa bo'ladiki, hozirdanoq unga tushish istagini bildirganlarning kattagina navbati yuzaga kelgan. To'g'rirog'i, yangi yilning mart oyigacha restoran-avtomobilni band qilib ulgurishgan.

“Avtomobilchi” gazetasidan. 2003- yil, 23- yanvar soni.

Yaponlarga qaysi avtomobil ma'qul?

Yaponiyaning Avtomobil import qiluvchilar assotsiatsiyasi mamlakatda sotilgan xorij avtomobillari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qildi. Ma'lum bo'lishicha, yaponlar eng ko'p nemis avtomobillaridan foydalanishni ma'qul ko'rishar ekan. Ular orasida birinchi o'rinda turgan **Volkswagen** konserni avtomobillari jami sotilgan xorij avtomobillarining 21,6 foizini tashkil etadi. Ikkinchi o'rinni **Mercedes-Benz** (17,3 foiz), uchinchi o'rinni **BMW** (12,9 foiz) avtomobillari egallaydi.

Yaponiya bozorida yangi avtomobillar savdosi o'tgan 2002- yilda 0,6 foizga o'sgan. Xorij avtomobillari savdosi esa dekabr oyida 4,9 foizga ko'tarilgan va 27661 donaga yetgan.

Aslida Yaponlarning nemis avtomobillariga qiziqishi unchalik hayratlanarli hodisa ham emas. O'zlariga ancha pishiq-puxta bo'lgan (bo'yi past odamlar puxtarok bo'ladi, deyishadi-ku) odamlar iloji boricha ishi mustahkam (nemischa tabiat hammaga ma'lum) odamlar bilan muomala qiladi-da, axir.

“Avtomobilchi” gazetasidan. 2003- yil, 23- yanvar soni.

Jarima o'rniga gimn

Bilsangiz kerak, AQSHning har-bir shtati o'z qonunlarini chiqarish huquqiga ega. Shundan foydalangan holda, uch yildirki, Tennesi shtatining Kolumbiya shahrida Rojdestvo bayrami kunlarida mahalliy hukumat ruhsati bilan yo'l harakati qoidalarini buzgan haydovchilarga ajoyib jarima qo'llanib kelinmoqda. Ya'ni, tezlikni belgilanganidan oshirgan qoidabuzar haydovchilar huquq-tartibot organi xodimlariga bir juft Rojdestvo xoralini aytib berishlari kerak. Shahar qozisi Tom Dyubua ko'pchilikka juda ma'qul kelgan ushbu an'anani bu yil ham davom ettirishga qaror qildi.

“Ba'zi bir haydovchilar avvaliga uyalib tortinib turishadi, - deyiladi **Membrana.ru** tarqatgan xabarda. Ammo xoral aytib anchagina dollar tejab qolishlari mumkinligini o'ylab darhol baralla kuylashga tushib ketishadi”.

“Avtomobilchi” gazetasidan. 2003- yil, 23- yanvar soni.

Piyodalar uchun lift

Nemislar allaqachon foydalanayotgan ushbu g'ayritabiiy qurilmadan shu paytgacha dunyoning boshqa xalqlari deyarli bexabar edi.

Bundan sal oshig'i bilan ikki yil muqaddam – 2001- yilning 7- dekabrda Germaniyaning 132- federal trassasida piyodalarni yo'l ustidan o'tkazib qo'yuvchi lift ishga tushgan edi. Birinchi eshitishda ortiqcha tashvishdek tuyuluvchi ushbu qurilma esa, bugunga kelib ma'lum bo'lishicha, o'ziga xos qulayliklarga ega ekan.

Yaxshiroq tasavvur qilishingiz uchun ta'riflab o'tadigan bo'lsak, yo'lning ikki chekkasida minora ko'tariladi va ular ko'prik bilan bog'lanadi. Nemischa ism va inglizcha ibora bilan **Schmid Peoplernover** (Shmid odamtashuvchisi) deb ataladigan lift kabinasi ana shu oraliqda harakat qilib, piyodalarni yo'l ustidan qarama-qarshi tomonga olib o'tib qo'yadi. Ish tartibi sodda - yo'lovchi chaqiruvchi tugmachani bossa bo'ldi. Albatta, eshiklari lift to'liq pastga yetib kelib to'xtaganidan so'nggina ochiladi (xavfsizlik eng muhim masala, axir). Sakkiz kishigacha (yoki 600 kilogrammgacha umumiy og'irlikdagi odamlar) lift ichiga kirishgach, "ketdik" tugmachasini bosishadi.

Yuqoriga ko'tarilish davomida liftning yumshoq, silkinmasdan va tezlikni pasaytirmasdan harakatlanishi choralari ko'rilgan. Kabina yuqori nuqtaga yetib borgach, yengilgina yon tomonga harakatlana boshlaydi. Narigi minoraga yetib borganidan so'ng esa harakatini xuddi shunday yumshoqlik bilan pastga tomon o'zgartiradi. Manzil so'ngida eshiklar ochilib, piyodalar yo'llarida davom etadilar.

Ushbu lift yordamida to'rt bo'lakli yo'lni kesib o'tish uchun yarim minut kifoya qiladi. Kabina yuqoriga qarab sekundiga bir, ko'ndalangiga bir yarim metr tezlikda harakat qiladi. Mutaxassislarning aytishlaricha, svetoforming yashil chirog'ini kutib o'tirish ancha ko'proq vaqtni oladi. (Shu o'rinda o'quvchilarimizga tushuntirish berib o'tishimiz kerakki, rivojlangan Yevropa davlatlarida trassalardagi piyodalar o'tish joylariga o'rnatilgan svetofoqlar yo'lovchilar tugmachani bosganlaridan keyingina ma'lum vaqt o'tib yonadi. Bu esa piyodalar bo'lmagan paytda avtoulavlarning bekorga to'xtab vaqt o'tkazmasliklarini ta'minlaydi).

"Avtomobilchi" gazetasidan. 2003- yil, 30- yanvar soni.

Mitsubishi "Uch olmos" jilvalari

Jahon avtomobilsozligida **Mitsubishi** kompaniyasining o'rni va mavqeyi katta. Bu kompaniyaning tarixi bevosita Yaponiyaning keyingi asrlardagi tarixi bilan uzviy bog'liq. Zero, mamlakat hayotidagi parvoz va inqirozlar **Mitsubishining** yuksalishi va tanazzulida ham o'z aksini topdi. Bugun dunyoda millionlab xaridorlarga ega bo'lgan kompaniyaning bunday o'ziga xos tarixi esa ko'pchilikda qiziqish uyg'otishi tabiiy.

Yaponiyada kommunizmni samuraylar qurgan deyishadi. Hammasi 1854- yilda Gerri degan amerikalik harbiyning yaponlarga o'tkazgan ta'siridan boshlangan. Uning ta'sirida yaponlar o'z bandargohlariga chet el kemalarining so'zsiz-so'roqsiz

kirishiga va savdo qilishga rozilik bildirgan va bu to'g'rida shartnoma imzolashga majbur bo'lgan edi. Shu tariqa majburiy tarzda "Yaponiya kashf etilgan".

Ammo bundan xulosa chiqargan yapon amaldorlari mamlakatni tezroq feodalizm tartibotlaridan xalos qilish lozimligini ham anglab yetishdi. Aks holda G'arbning kuchli davlatlari bosimi ostida Yaponiyaning yarim mustamlakaga aylanib qolishi hech gap emasdi. Shunday qilib, XIX asrning 60- yillari oxirida o'ziga xos burjua inqilobi ro'y berib, feodal tabaqalar tarqatib yuboriladi, mamlakat industriyalashtirishga yuz buradi. Barcha imtiyozlardan ayrilgan samuraylar esa davlat xizmatiga o'tish yoki biznes bilan shug'ullanishga majbur bo'ladilar.

Ushbu kichkina kirishimiz ham bekorga emas. Chunki, biz so'z yuritmoqchi bo'lgan **Mitsubishi** kompaniyasi asoschisi Ya Taro Ivasaki ham 1853- yili kambag'al samuray oilasida tug'ilgandi. O'smirligida u Tosa deb ataladigan boshqa bir samuray urug'i jamoasi boshlig'iga tegishli kema kompaniyasida ish boshlab, o'zini uquvli menejer sifatida namoyon etadi. 35 yoshida esa xo'jayinidan uchta kema ijaraga olib, o'zining shaxsiy **Tsukumo** firmasini tuzadi.

Yarato Ivasaki Tosa urug'i jamoasi bilan yaqin munosabatlarni qadrlagan holda, uning kompaniyasi belgisini o'zining kompaniyasiga belgi qilib oladi. Samuraylar gerbidan olingan bu belgida uchta gujum bargi tasvirlangan edi. **Mitsubishi** timsoli – uch barg shaklidagi uchta romb (hamma tomonlari keng parallelogram) shu tariqa yuzaga keldi. Bu emblema o'zida kompaniyaning uch tamoyilini mujassam etgan: bular - jamiyat oldida javobgarlik, halollik va xalqaro hamkorlikda oshkorlik. Albatta, bu tamoyillarga to'la amal qilish tez orada ro'y bergani yo'q.

XIX asr oxirida yapon hukumati mamlakat iqtisodiyotining asosini tashkil etishi mumkin bo'lgan yosh kompaniyalarni faol qo'llab-quvvatladi. 1874- yili Ya. Ivasaki o'zining imperatorga sodiqligini ko'rsatib, kemalarini Tayvanga jo'natilayotgan harbiy ekspeditsiya uchun taqdim etdi. Bunga javoban esa hukumat unga arzonlashtirilgan baholarda bir necha kema berdi. Shunday qilib, Ivasaki kemalari soni 30 taga yetdi.

1875- yili u kompaniyasini **Mitsubishi Commercial Company** (Mitsubishi - yaponchada "uch olmos" degani, Ivasaki urug'i jamoasi gerbidagi romblar aynan shularning timsolidir) deb qayta nomladi.

Ya. Ivasaki vafotidan keyin, 1885- yilga kelib kompaniya uning ukasi Yanosuki qo'lga o'tdi. U 1890- yili 1 million dollarga davlatdan 35 gektar tashlandiq bo'lib yotgan yerni sotib oldi. O'sha paytda ko'pchilik bu ishni nodonlik sanab kulishgan edi. Ammo bugungi kunga kelib bu yerlar Tokioning gullab-yashnagan ishchilar tumani sanaladi. Marunouchi deb ataladigan bu joylarni endilikda bir necha milliard dollarga ham sotib olib bo'lmasa kerak.

1893- yili kompaniya prezidentligini Yarato Ivasakining o'g'li Xisayya o'z qo'lga oldi. Bu paytda kompaniya kemasozlik, neft qazib olish, metallurgiya va ichki yonuv dvigatellarini ishlab chiqaruvchi korxonalarni o'z ichiga olgan edi. Xisayya uning faoliyatini yanada kengaytirib, ko'chmas mulk savdosi departamenti, sug'urtalash va bank idoralarini ochdi hamda barcha korxona-yu tashkilotlarini yagona **Mitsubishi Ltd.** xoldingiga birlashtirdi.

Birinchi jahon urushida Yaponiya Antanta tomonidan turib ishtirok etdi, Xitoy va Koreyadagi mustamlaka hududlarini kengaytirdi. Ayni paytda **Mitsubishi** faoliyati ham o'sha zamon ruhi ostida kechdi – kompaniya, asosan, samolyotsozlik va avtomobilsozlikka zo'r berdi.

XX asr boshlarida avtomobilsozlik Yaponiyada investitsiya sohasi uchun unchalik unumli hisoblanmasdi: mahalliy kompaniyalar mashinalarni qo'lda yig'ishar, oqibatda mashina juda qimmatga tushar, xaridorgirligi yo'qoldi. 1917-yili **Mitsubishi** konveyer uslubida yig'ilgan birinchi avtomobil - "Medel - A"ni (bu mashina Ford avtomobiliga juda o'xshash edi) chiqardi. Biroq talabning kamligi bois to'rt yildan keyin bu ish to'xtatildi. 1923- yildan ishlab chiqarila boshlangan og'ir yuk mashinalariga esa yapon armiyasi xaridor bo'ldi. 1921- yili kompaniya "Tun 10" rusumidagi qiruvchi samolyot ham chiqara boshladi. Kompaniyaning turli klassdagi harbiy samolyotlari yapon harbiy aviatsiyasining asosini tashkil eta bordi. Shu tariqa **Mitsubishi** mamlakatda **Mitsuidan** keyin ikkinchi o'rindagi eng yirik kompaniyaga aylandi.

1934- yili samolyotsozlik tarmoqlari qo'shilishi natijasida **Mitsubishi Heavy Industry** guruhi yuzaga keldi. Ikkinchi jahon urushi yillarida **Mitsubishi** xoldingiga 200 tacha kompaniya birlashgan edi.

Urush yaponlar uchun mag'lubiyat bilan muvaffaqiyatsiz yakunlandi, Yaponiyani AQSH qo'shinlari zabt etdi. G'olib taraf esa Yaponiyaning harbiy sanoat qudratini tashkil etuvchi **Mitsubishi** kabi ulkan birlashmalarni majburiy tarzda tarqatishga erishdi - chetning tazyiqi tufayli yapon hukumati ulkan iqtisodiy qudratni o'zida jamlagan xoldinglarni ta'qiqlovchi qonunlar qabul qildi. Natijada Mitsubishi xolding 44 ta mustaqil kompaniyaga bo'linib ketdi. Shulardan 20 tasida **Mitsubishi** nomi saqlanib qolgan. Ulardan eng yiriklari sifatida **Tokiyo – Mitsubishi Bank, Mitsubishi Motors, Mitsubishi Electric va Mitsubishi Corporation** savdo uyini sanash mumkin (bularning bari Fortune - 500 ro'yxatidan joy olgan).

Urushdan keyin parchalanib ketgan **Mitsubishi** mutlaqo yangi shart-sharoitlarda faoliyat ko'rsatishga ko'nika boshladi. Jumladan, **Mitsubishi Motors** 1940- yillarning oxirida avvaliga motorollerlar, keyin avtobus, yuk avtomashinasi va pikaplar ishlab chiqara boshladi. 50- yillarga kelib esa kompaniya Yevropaga yengil va yuk avtomobillari eksport qilishni yo'lga qo'ydi.

Xullas, samuraylar asos solgan, bugunga kelib esa jahonga dong taratgan, xalqaro hamjamiyatda yuksak e'tibor qozongan kompaniyaga aylangan **Mitsubishi** inqirozlar va parvozlarning ana shunday og'ir yo'lini bosib o'tgan edi.

MUSTAQIL O'QISH UCHUN MATNLAR

Muso al - Xorazmiy
(783 - 850)

Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etdi. Bu davrda Markaziy Osiyo arab halifaligi tarkibiga kirar edi.

Xorazmiy dunyo faniga g'oyat katta hissa qo'shdi. U algebra fanining asoschisi bo'ldi. "Algebra" so'zining o'zi esa uning "Al - kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala" nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Yevropada tarqalishiga sabab bo'ldi.

Olimning "al-Xorazmiy" nomi esa "algoritm" shaklida fanda abadiy o'rtnashib qoldi. Uning geografiyaga doir asari esa arab tilida o'nlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Xorazmiyning "Zij"i Yevropada ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanish yo'lini ko'rsatib berdi.

Xorazmiy Xorazm o'lkasida tug'ilib o'sdi. Adabiyotlarda 783- yil uning tug'ilgan yili, deb qabul qilingan. U dastlabki ma'lumot va turli sohadagi bilimlarni asosan o'z yurtida, Markaziy Osiyo shaharlarida ko'pgina ustozlardan olgan.

Marvlik mashhur astronom va matematik Habash al-Hosib ("Hisobchi habash") laqabi bilan ma'lum bo'lgan Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy Bag'dodda Xorazmiy bilan hamkorlikda ishlagan. U ikkita "zij" tuzgan bo'lib, bular o'rta asr astronomlari tomonidan keng foydalanilgan. Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, u tangens va kotangens, kosekans funksiyalarini kiritib, ularning jadvallarini ham keltirgan.

Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular: "Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob" - algebraik asar, "Hind hisobi haqida kitob" - arifmetik asar, "Kitob surat-ul-arz" - geografiyaga oid asar. "Zij", "Asturlob bilan ishlash haqida kitob", "Asturlob yasash haqida kitob", "Asturlob yordamida azimutni aniqlash haqida", "Kitob ar-ruhoma", "Kitob at-ta'rix", "Yahudiylarning taqvimini va bayramlarini aniqlash haqida risola". Bu asarlarning to'rttasi arab tilida, bittasi Farg'oniyaning asari tarkibida, ikkitasi lotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchtasi hali topilgan emas.

Xorazmiy hind raqamlari asosida o'nlik pozitsion sistemada sonlarning yozilishini batafsil bayon qiladi. U sonlarning bunday yozilishidagi qulayliklar, ayniqsa nol ishlatilishining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Keyin Xorazmiy arifmetik amallarni bayon qilishga o'tadi. Bunda Xorazmiy sonlarning martabalarini, ya'ni razradlarini e'tiborga olishni hamda nolni yozishni unutmazlikni uqtiradi, aks holda natija xato chiqishini aytadi.

Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasining Yevropada, qolaversa, butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Yevropaga hind raqamlari arablar orqali o'tganligi uchun ular "arab raqamlari" deb ataladi va hozir ham shunday deb atalib kelinmoqda. Yevropaliklar uzoq vaqtgacha hind raqamlariga asoslangan hisob tizimini "algorizmlar", deb atab keldilar. Faqat XVI asr o'rtalaridagina bu nom "arifmetika" iborasi bilan almashtiriladi. Shundan keyin to hozirgi kungacha "algorizm" yoki "algoritm" deganda har qanday muntazam hisoblash jarayoni tyshuniladigan bo'ldi. Bu ibora bilan al-Xorazmiyning nomi fanga abadiy kirib qoldi.

Ahmad al - Fargʻoniy **(Taxminan 797 – 865- yillar)**

Oʻrta asrlarda yashagan Markaziy osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik va geograf al-Fargʻoniy salmoqli oʻrin egallaydi.

Olimning toʻliq ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Fargʻoniydir. Manbalarda uning Fargʻonalik ekanligidan tashqari deyarli boshqa maʼlumotlar saqlanmagan. Al-Fargʻoniy Fargʻona vodiysining Qubo (Quva) qishlogʻida tugʻilgan. Shunisi maʼlumki, al-Fargʻoniy xalifa Xorun ar-Rashidning sharqiy yerlaridagi muovini, kichik oʻgʻli Abdullohning (boʻlajak xalifa al-Maʼmunning) Marvdagi olimlari doirasiga kirgan. Ehtimol, Abdulloh yoshligidan bilimga chanqoq boʻlgani uchundir, 806- yili Marvga noyib boʻlib tayinlanganida, u yerda Movarounnahr, Xuroson, Xorazmdan olimlarni va isteʼdodli yoshlarni toʻplay boshlagan.

813- yili Abdulloh taxtga al-Maʼmun nomi bilan oʻtiradi. Lekin u Bagʻdodga bormay 819- yilga qadar Marvda yashaydi. Natijada, Marv 813- yildan to 819- yilgacha xalifalikning vaqtincha poytaxti boʻlib turadi. 819- yili al-Maʼmun butun saroy aʼyonlari va ulamolari bilan birga Bagʻdodga koʻchadi. Ular orasida al-Fargʻoniy ham bor edi. Shunday boʻlsa ham al-Maʼmun qoʻl ostida u tuzgan ilmiy markaz “Bayt ul-hikma”da ishlagan olimlar orasida al-Fargʻoniyning nomi eslatilmaydi. Buning sababi, bizningcha, shunday boʻlishi mumkin; u davrda xalifalikda ikkita rasadxona faoliyat olib borardi. Biri Bagʻdodning ash-Shammosiya mahallasida va ikkinchisi Damashq yaqinidagi Kasiyun tepaligida edi. Bu rasadxonalarining har birida “Bayt ul-hikma” olimlarining ikkita doimiy guruhlarini ishlar edi. Ana shu olimlarning oʻzi rasadxonalarini xoʻjatidan kelib chiqib, ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirardilar va umumiy rahbarlik Bagʻdoddan turib amalga oshirilardi.

Abu Rayhon Beruniyning yozishiga koʻra, Bagʻdod Rasadxonasining ishida Yahyo ibn Abu Mansur, al-Xorazmiy va boshqa olimlar, Damashq rasadxonasida esa Xolid ibn Abdumalik va al-Fargʻoniy boshliq ikkinchi guruh olimlari ishlaganlar. U shuningdek, al-Fargʻoniyning Suriya shimolida, Sinjor sahrosida 832-833- yillar Tadmur va ar-Raqqa oraligʻida yer meridiani bir darajasining uzunligini oʻlchashda ishtirok etganligini ham aytgan. Al-Fargʻoniyning hayoti haqidagi eng soʻnggi va eng aniq xabar 861- yil bilan bogʻlanadi. Mavjud maʼlumotlarga koʻra, u shu yili Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, yaʼni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan.

Al-Fargʻoniyning nomi oxirgi marta 861- yili Nilning sathini oʻlchagich uskunasi taʼmirlash munosabati bilan eslatiladi. Yana bir maʼlumotga koʻra, al-Fargʻoniy Misrda nasroniylar orasida yashab, ularning diniga oʻtganligi va shuning uchun u qatl qilinganligi qayd etiladi. Lekin qatl qilingan yili eslatilmaydi. Shu sababli bu “al-Fargʻoniy” oʻsha mashhur astronom al-Fargʻoniy, yo boshqasimi - bu nomaʼlum.

Al-Fargʻoniyning vafot etgan (yoki qatl qilingan) yili deb 865- yil qabul qilingan boʻlib, u 67-68 yillar chamasi umr koʻrgan, deb taxmin qilishadi.

Demak, 1998- yili uning tug'ilganiga 1200 yil to'ldi.

Al-Farg'oniyni asosiy astronomik asari "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi" ("Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum") XII asrda Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinganidan so'ng, uning lotinlashtirilgan nomi "Alfraganus" shaklida G'arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi. Uning bu kitobi shu asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiyadan eng asosiy darslik vazifasini o'tadi.

Al-Farg'oniyni asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493- yilda nashr etilgan bo'lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitoblardan hisoblanadi. 1669- yili mashhur Golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius al-Farg'oniyni asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan so'ng, al-Farg'oniyni va uning asarining Yevropadagi shuhrati yanada ortdi. Yevropa Uyg'onish davrining buyuk namoyandalaridan biri bo'lgan mashhur olim Regiomontan XY asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma'ruzalarini al-Farg'oniyni kitoblaridan o'qigan. Al-Farg'oniyni nomini Dante (XY asr) va Shiller (XYIII asr) ham eslagan.

Hozirgi kunda al-Farg'oniyni sakkiz asari ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador va birortasi hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan. Ular quyidagilardir: yuqorida tilga olingan asar (ba'zan uni "Astronomiya asoslari haqida kitob" nomi bilan ham atashadi) qo'lyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. "Asturlab yasash haqida kitob"ning qo'lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, "Asturlab bilan amal qilish haqida kitob"ning birgina qo'lyozmasi Rampurda (Hindiston), "Al-Farg'oniyni jadvallari" qo'lyozmasi Patnada (Hindiston), "Oyning yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola" qo'lyozmasi Qohirada, "Yetti iqlimni hisoblash haqida" qo'lyozmalari Gotada va Qohirada, "Quyosh soatini yasash haqida kitob" qo'lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi.

"Xorazmiy "Zij"ining nazariy qarashlarini asoslash" asari Beruniy tomonidan eslatiladi, lekin qo'lyozmasi topilmagan. Al-Farg'oniyni ismi Lotin tiliga tarjima qilingan asarlariga "Alfraganus" shaklida yozilib, shu shaklda fanga abadiy kirib qoldi.

Imom al-Buxoriy (810-870)

"Hadis ilmida amir al-mo'miniyn" degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan Imom al-Buxoriy alohida e'tiborga molik buyuk olimdir. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy bo'lib, u hijriy hisobda 194- yil shavvol oyining 13-kuni (810- yil 20- iyul)da Buxoro shahrida tavallud topgan.

U yoshligidan aql-idrokli, o'tkir zehnlı, ma'rifatga havasi kuchli bola bo'lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo'r qiziqish bilan egallaydi. Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarda yashab, u joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta'lim oladi, yirik olimlar davrasida ilmiy bahslar-u munozaralarda qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi.

Ilm oshirish maqsadida al-Buxoriy juda ko‘plab olimlardan ta’lim oladi. O‘z navbatida al-Buxoriy ham ko‘pgina shogirdlariga ustozlik qilgan. Is’hoq ibn Muhammad ar-Ramodiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn Xalaf ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn al-Hajjoj kabi yetuk olimlar uning shogirdlaridir.

Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o‘zining go‘zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatligi, himmatligi va beqiyos saxovatligi bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. U zehni o‘tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchligi bilan ham xalq orasida g‘oyat shuhrat qozongan. Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan.

Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo‘lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan “Al-jome’ as-sahih”, “Al-adab al-mufrad”, “At-ta’rix as-sag‘iy”, “At-ta’rix al-avsot”, “Kitob al-ilal” va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Abu Nasr Forobiy (873 - 950)

Forobiy uning taxallusi bo‘lib, to‘liq nomi Abu nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug‘ Tarxon - jahon madaniyatiga katta hissa qo‘shgan Markaziy osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim. Forobiy o‘z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo‘shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug‘lanib, “Al-Muallim as-soniy” – “Ikkinchi muallim” (Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” deb yuritilgan.

Forobiy boshlang‘ich ma’lumotni ona yurtida oldi. So‘ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda o‘qidi. Keyinroq o‘z ma’lumotini oshirish uchun arab xalifaligining madaniy markazi bo‘lgan Bag‘dodga keldi. Bag‘dodda bu davrda musulmon dunyosining turli o‘lkalaridan, xususan, Markaziy Osiyodan kelgan ko‘p ilm ahllari to‘planishgan edi. U yerga bora turib Forobiy Eron shaharlari - Isfahon, Hamadon, Rayda va boshqa joylarda bo‘ldi. U bu yerlarda o‘rta asr fani va tilining turli sohalarini, yunon falsafiy maktablari bilan chuqur tanishib, o‘zga diniy e’tiqod, falsafiy fikrdagi kishilar bilan ilmiy muloqotda bo‘ldi. Abu Bashir Matta ibn Yunusdan (870-940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Xiylandan (860-920) tabobat va mantiq ilmini o‘rgandi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq tilni bilgan.

Forobiy o‘rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko‘proq qiziqqanligi uchun uning asarlarini 2 guruhga ajratish mumkin: 1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ‘ib qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar; 2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari - Platon, Aristotel, Evklid, Ptolomey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Forobiyning tabiiy-ilmiy fanlar haqidagi

qarashlari “Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi” asarida batafsil yoritilgan. Kitobda oʻrta asrda maʼlum boʻlgan 30 dan ortiq fanning taʼrifi, ahamiyati koʻrsatib beriladi.

Abu Rayhon Beruniy (973 - 1048)

Oʻrta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy zamonasining qator fanlari: astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix kabilarni chuqur oʻrgandi. U Xorazmning qadimgi poytaxti Kot shahrida tugʻildi va yoshligidanoq ilm-fanga qiziqishi orta bordi. Beruniy keyinchalik mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq qoʻlida taʼlim oldi. Ibn Iroq astronomiya, geometriya, matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bagʻishlaydi. Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: arab, soʻgʻdiy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini oʻrganadi.

Oʻz ilmiy asarlaridan birida yozishicha, u Xorazmda yashagan davrida, 990-yillardan boshlab Kot shahrida muhim astronomik kuzatishlar oʻtkazgan. Bu kuzatishlar uchun oʻzi astronomik asboblarni ixtiro qilgan. Xorazm zodagonlari orasida taxt uchun boshlangan kurashlar olimning ilmiy ishlarini davom ettirishga imkon bermaganligi bois 22 yoshida vatanini tashlab chiqib ketishga majbur boʻldi va bir qancha vaqt Kaspiy dengizi boʻyidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashadi. Beruniy “Osor al-boqiya an alqurun al-xoliya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza bishlagan va 1000- yilda tamomlagan. “Osor al-boqiya” Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi. Bundan tashqari Beruniy Jurjonda 10 dan ortiq asarlar yozdi. Beruniy Xorazmning yangi hukmdori Abu Abbos Maʼmun II ibn Maʼmun tomonidan mamlakatning yangi poytaxti Urganchga chaqirtiriladi. Beruniy Urganchda Maʼmunning bevosita rahnamoligida vujudga kelgan ilmiy markazda faoliyat koʻrsatadi.

Beruniy shoh Maʼmun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakatning siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi. Xorazmning Mahmud Gʻaznaviy tomonidan bosib olinishi natijasida u Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga Gʻazna shahriga asir qilib olib ketiladi. Beruniyning 1017-1048- yillarda Gʻaznada kechirgan hayoti uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr boʻldi. Beruniyning “Xorazmning mashhur kishilari” asari ham shu davrda yaratilgan. Uning muhim astronomik-geografik asari “Tahdid nihoyat al-amoniya li tasʼhidi masofat al-masokin” (“Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash” – (“Geodeziya”), “Munajjimlik sanʼatidan boshlangʻich tushunchalar” asarlari Gʻaznada yozilgan. Beruniyning “Hindiston” nomli mashhur yirik asari ham shu yerda yozilgan boʻlib, bu shoh asar Gʻarb va Sharq olimlari, shu jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan. U astronomiyaga oid “Masʼud qonuni” asarini sulton Masʼudga bagʻishlaydi.

Beruniy soʻnggi avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi. Beruniyning oʻz davri ilm-fanning turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizga maʼlum. Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya,

mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyot, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan ham shug'ullanib she'rlar yozdi. "Astrologiyaga kirish", "Astronomiya kaliti", "Jonni davolovchi quyosh kitobi", "Ikki xil harakatning zarurligi haqida", "Ko'paytirish asoslari", "Farg'oniy "Elementlar" iga tuzatishlar", "Turklar tomonidan ehtiyotkorlik", "Oq kiyimlilar" va karmatlar haqida ma'lumotlar", "She'rlar to'plami", "Ibn Sino bilan yozishmalar" shular jumlasidandir.

Beruniy o'rta asr sharoitida haqiqiy ilmiy tabiatshunoslikka asos soldi, uning turli sohalarida o'z davri uchun taajjubga soluvchi shunday fikr va ilmiy farazlarni olg'a surdiki, ular bir necha asrlardan so'ng Yevropa ilmida o'z isbotini topdi. Beruniy o'ra asr sharoitida haqiqiy tajribaga, kuzatish, eksperimentga asoslanuvchi aniq ilmiy tafakkurni boshlab beruvchilardandir.

Najmiddin Kubro (1145-1221)

Musulmon olamidagi eng zabardast mutasavvuf donishmandlardan biri buyuk vatandoshimiz shayx Najmiddin Kubrodir.

Ahmad ibn Umar Abul-Jannob Najmiddin Kubro 540- hijriy yilda Xorazmning Xivaq shahrida dunyoga keladi.

Abdurahmon Jomiy o'zining "Nafahot-ul-uns" asarida yozishicha, Najmiddin bolalik paytidayoq ilm istab Misrga ravona bo'ladi. Ammo ilmga chanqoq Najmiddin Kubro ko'p o'tmay Tabrizga borib, tasavvufga oid ko'pgina zohiriy, botiniy ilmlarni ham egallaydi. So'ngra Misrdagi ustoz va qaynatasi Ruzbexon maslahati bilan o'z vatani - Xorazmga qaytib kelib, xonaqoh quradi va shogirdlar tarbiyalashga katta e'tibor beradi, "Kubraviya" yoki "Zahobiya" tariqatiga asos soladi. Bu tariqat ma'limoti hadis va shariatga asoslangan bo'lib o'z davrida Xuroson, Movarounnahr, Hindiston va boshqa musulmon mamlakatlari xalqlari orasida keng tarqaladi. Mazkur tariqat soliqlari orasida zikrni ovoz chiqarmasdan (xufiya) ijro qilish usuli joriy bo'lgan.

Najmiddin Kubroning Xorazmdagi so'nggi hayoti o'ta og'ir, shiddatli va murakkab sharoitda kechadi. 1221- yilning jumodi ul-avval (iyul) oyida Chingizxon lashkarboshilaridan biri Xulaguxon o'zining yosh o'g'li va tumonat lashkari bilan Urganch qal'asini o'rab oladi. Urganch shahri qamal ichida qolib, aholi nihoyatda og'ir sharoitda azob chekayotgan bir asnoda munkillab qolgan, yetmishdan oshgan Najmiddin Kubro xalq orasidan lashkar to'plab, qo'lida qurol bilan qal'ani bir necha kun davomida dushman hamlalaridan saqlab turadi.

Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi o'z muridlari bilan shiddatli jangga kirib, shahid bo'lgan. Jangdan keyin u kishining jasadini darhol topisha olmagan. Chunki ul zot qiyma-qiyma qilib tashlangan edi.

Najmiddin Kubro bir necha ilmiy asarlar va ruboiylar yozganki, ular juda ko'p tazkiralarda uchraydi.

Amir Temur (1336- 1405)

Amir Temur ibn amir Tarag'ay 1336- yil 9- aprelda Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag'ay barlos ulusiga mansub beklardan, bahodir jangchi, ulamo-yu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi bo'lgan.

Amir Temurning yoshligi haqida ma'lumotlar kam uchrasa-da, ayrim manbalarga qaraganda, u yoshligida xat-savod chiqarib, o'z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, me'morchilik va tarix ilmlarini o'rgangan.

Amir Temurning hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi davri (1360-1385) Movarounnahrni mo'g'ul xonligidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzish, o'zaro urushlarga barham berish, ikkinchi davri (1386-1405) esa ikki yillik, uch yillik, besh yillik, deb ataluvchi boshqa mamlakatlarga yurishlari bilan xarakterlanadi.

1360- yillardan boshlab Amir Temur Movarounnahrda ichki nizo, urushlarda ishtirok eta boshladi va Mo'g'uliston hukmdori Tug'luq Temurxon, uning o'g'li Ilyosxo'jaga qarshi kurashlardan so'ng, Amir Husayn ustidan g'alaba qozongach, 1370- yilda Movarounnahr taxtining haqiqiy sohibi bo'ldi va Samarqandni hokimiyat poytaxti etib belgiladi.

Amir Temur taxtga o'tirgach, Chig'atoy ulusining barcha yerlariga o'zini voris deb bildi va Sirdaryoning quyi havzasidagi yerlarni, Toshkent viloyatini, Farg'ona vodiysini, Xorazmni o'z hukmronligi ostiga kiritdi. Natijada, Movarounnahr va Xurosonda yirik markazlashgan davlat vujudga keldi. Sohibqiron so'nggi yillarda Eron, Iroq, Zakavkazy mamlakatlari, Hindiston, Oltin O'rda va Turkiya bilan bo'lgan janglarda g'olib chiqib, saltanat hududini sharqda Xitoy devoriga qadar, g'arbda O'rta yer dengiziga, janubda esa Hindiston chegaralariga qadar kengaytirdi.

Amir Temur harbiy salohiyatda jahonga mashhur sarkarda va o'z zamonasining eng qudratli hukmdori bo'lishi bilan birga, uning harbiy nazariyasi va amaliy harbiy san'ati, taktika va strategiyasi, armiya tarkibining tuzilishi o'z davrining nodir mo'jizasi edi. Uning harbiy mahorati turli yo'nalishlarda - askariy qismlarni qayta tashkil etishda, dushmanga hujum qilishda turli-tuman usullardan foydalanishda, hujumdan oldin dushman joylashgan yerlarni obdan o'rganib chiqishda, hamda lashkarboshi - qo'mondonlikda namoyon bo'ldi.

Amir Temur ilm-fan, ma'naviyat ahliga e'tibor, mehribonlik ko'rsatib, ulardan jamiyat madaniy hayotida foydalanishga intilar ekan, tarixchi ibn Arabshoh yozganidek, "Temur odamlarga mehribon, sayyid-u shariflarni o'ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to'la izzat va hurmat ko'rsatib, ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko'rardi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, izzat-u ikromini unga izhor qilardi".

Amir Temur o'zini mohir diplomat sifatida ham namoyon qila olgan. Uning Vizantiya, Venetsiya, Genuya, Ispaniya, Fransiya, Angliya, boshqacha aytganda, o'sha vaqtda ko'proq ma'lum va mashhur bo'lgan Ovro'po davlatlari bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatish va uni mustahkamlash sohasidagi faoliyatini fransuz va ingliz qirollarining unga yozgan maktublari bilan dalillash mumkin.

Amir Temurning Osiyo, umuman, jahon tarixidagi xizmatlari va tutgan o'rnini haqida xulosa qilib, quyidagilarni ta'kidlab o'tish joizdir: Amir Temur Markaziy Osiyoni mo'g'ullar iskanjasidan ozod etishda barcha yurtparvar kuchlarni uyushtirib, ularni mustaqillik uchun kurashga yo'naltirgan yetakchi rahbar, yerli xalqning bu sohadagi orzu-umidlarini ro'yobga chiqishiga ulkan hissa qo'shgan sarkardadir; Amir Temur ko'p yillar davomida mustamlaka bo'lib, chet ellik hukmdorlarga bo'ysunib kelgan Movarounnahr va Xurosonda o'z yurti, xalqning kuch-qudratiga tayangan mustaqil va yagona davlat barpo eta oldi; Amir Temur o'z davriga xos bo'lgan turli sabablarga binoan boshqa mamlakatlarga yurishlar qildi va Ovro'po mamlakatlarining rivojlanishini tezlashishiga o'z hissasini qo'shdi.

Rossiyani Oltin O'rda zulmidan, Ovro'poni Turkiya tajovuzidan saqlab qoldi; Amir Temur o'z siyosatida madaniyat, obodonchilik, hunarmandchilik homiysi bo'lib tanildi. O'z siyosati bilan madaniy yuksalishga va turkiy tilning rivojiga keng yo'l ochib, nafaqat Markaziy Osiyoning madaniy-ma'naviy olamida, balki butun musulmon olami tarixida o'chmas iz qoldirdi va keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi; Amir Temur qator Sharq mamlakatlari va ayniqsa, Ovro'po mamlakatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, ular bilan turli savdo-sotiq, madaniy aloqalarga yanada keng yo'l ochib berdi.

Mirzo Ulug'bek (1394 – 1449)

Ulug'bek 1394- yilning mart oyida Eronning g'arbidagi Sultoniya shahrida, bobosi Temurning harbiy yurishi paytida tug'ildi. U Shohrux Mirzoning to'ng'ich o'g'li bo'lib, unga Muhammad Tarag'ay ismi berilgan, lekin bolaligidayoq u Ulug'bek deb atala boshlab, bu ism keyinchalik uning asosiy ismi bo'lib qoldi.

Shohrux to'ng'ich o'gli Ulug'bekni 1411- yili Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlaydi. Ulug'bek 15 yoshida hokim bo'lib, bobosidan farqli o'laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmas, ko'proq ilm-fanga moyil edi.

Ulug'bek 20 yoshlarida o'z davrining yirik olimlaridan bo'lib, uning hokimligi davridagi muhim yangiliklar butun o'rta asr madaniyati tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi.

Ulug'bekning ilmga qiziqqanligi va mamlakatning ravnaqini ko'zlaganligi tufayli yangi usuldagi bilim yurti - maktab va madrasalar barpo qilishga qaror qilib, deyarli bir vaqtning o'zida Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda uchta madrasa barpo etadi.

Ulug'bek barpo etgan Samarqand madrasasi va ilmiy to'garagi Sharq madaniyati va fani tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi, mamlakat ravnaqiga, shuningdek ko'p xalqlarning madaniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu yerda ko'plab buyuk siymolar shakllandi.

Ulug'bek atrofida to'plangan Samarqand olimlari katta ahamiyat bergan eng muhim yo'nalishlardan biri astronomiya fani edi. Islomdagi eng avvalgi astronomik asarlar "Zij" deb atalib, ular asosan jadvallardan iborat bo'lgan. Ulug'bekdan avval yozilgan eng mukammal "zij"lar Beruniyning "Qonuni Ma'sudiy"si va Nasriddin Tusiyning 1256- yili yozib, Xulaguxonga taqdim etgan "Ziji Elxoniy"asari edi. XY

asr boshlarida yozilib, Shohruxga atalgan Jamshid Koshiyning "Ziji Xoqoniy" asari asosan xitoy va mo'g'ul an'analari asoslangan bo'lib, islom mamlakatlari uchun deyarli ahamiyatga ega emas va ilmiy jihatdan ham ancha sayoz edi. Movarounnahrda esa mo'g'ul istilosidan keyin birorta "zij" yozilmagan edi. Ana shu sabablarga ko'ra Ulug'bek eng avvalo astronomik izlanishlarni yo'lga qo'yishi, buning uchun rasadxona barpo etishi kerak edi.

Rasadxona qurilishi 1424- yildan 1429- yilgacha davom etadi. Rasadxona bitishi bilan astronomik kuzatishlar boshlanib ketadi. Rasadxona bilan madrasaning birgalikdagi faoliyati Ulug'bek ilmiy maktabida astronomiya va matematikani o'rta asrlar davrida eng yuqori pog'onaga ko'tarish imkonini berdi.

Ulug'bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma'lum va mashhuri uning "Zij"i bo'lib, bu asar "Ziji Ulug'bek", "Ziji jadidi Ko'ragoniy" deb ham ataladi. "Zij"dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola", astronomiyaga oid "Risolai Ulug'bek" (yagona nusxasi Hindistonda, Aligarh universiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir "Tarixi arba' ulus" (To'rt ulus tarixi) asaridir.

Ulug'bek "Zij"i o'z tarkibiga ko'ra VIII - IX asrlarda boshlangan astronomik an'anani davom ettirsa ham ilmiy darajasi ularga nisbatan beqiyos balanddir. Bu asar ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 sobita yuldyzning o'rnini va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.

"Zij"ning G'arbiy Ovro'po faniga ta'siri katta bo'ldi. Umuman olganda, G'arbiy Ovro'po Temur va uning farzandlarini, ayniqsa, Ulug'bekni XY asrdanoq bilardi. Ali Qushchining Istambuldagi faoliyati tufayli Ulug'bekning ovozi Ovro'poga tarqaladi.

«Bemor» piyoz Hajviy hikoya

Abdulla Qahhorning mashhur dachasi hozir Said Ahmadniki. Bu – birinchidan. Ikkinchidan, dacha Yozuvchilar bog'ining shundoq kiraverishida joylashgan. Uchinchidan, Said Ahmad aka palovni "sayratib" yuboradi. Cho'ng'araning guruchi-yu, zaytun yog'idan qilingan oshni ko'p adiblar yegan. Nega deganda ustoz pishirgan oshini baribir bitta o'zi yemaydi. Bog'ga dam olishga borgan yozuvchilardan ko'ngilga yaqinlarini albatta chaqirib chiqadi. Goho-goho yo Erkin Vohidovga, yo menga qo'ng'iroq qilib qoladi.

- Ke, bolam, yurtga ikki kishilik osh berayapman, yeb ket, - deydi.

Oshxo'rlar judayam noinsof emas. Oshga har kim baholi qudrat "hissa" qo'shadi. Birov to'rttagina sabzi, birov Yozuvchilar bog'ining oshxonasidan olib chiqilgan bir kaftgina tuz, birov bir quti gugurt degandek... Qolgan "arzimas" xarajatlar – go'sht, yog', devzira guruch, aroq, konyak va boshqalar Said Ahmad akadan.

Kunlarning birida Erkin Vohidov telefon qilib qoldi.

- Yuring, oqsoqolning dachasiga borib piyozdan xabar olib kelamiz.

- Qanaqa piyoz?- degan edim, tushuntirdi.

Erkin aka ustozning dachasiga bir emas naq oltita piyoz olib borgan ekan. Piyoz bo'lgandayam zo'ridan. Oltiariqning piyozi!

Erkin Vohidov, Rahmatulla Inog'omov, men uzun-qisqa bo'lib kirib bordik. Piyozdand xabar olgani kelganimizni aytdik. Ustoz peshonasi tirishibroq osh damladi. Ma'lum bo'lishicha, bu Erkin aka bilan Rahmatulla akaning to'rtinchimi – beshinchimi marta "piyozdand xabar olishi" ekan.

Men ham mazaxo'rak bo'lib qoldim. Tekin osh kimga yoqmaydi! Kelasi shanba Erkin Vohidovga qo'ng'iroq qildim:

- Piyozdand xabar olib kelmaymizmi?

- Iloji yo'q, - dedi Erkin aka, - "piyoz operatsiyasi" barbod bo'ldi.

Keyin voqeani tushuntirdi. Ertalab ko'chaga chiqsa, darvoza oldida chiroyli lenta bilan o'ralgan qog'oz quti turgan emish. Erkin aka hayron bo'lib qutini ochsa, qat-qat qog'oz orasidan sarg'ayib ketgan bitta piyoz, yonida konvertga solingan xat chiqibdi. Xatda shunday so'zlar yozilgan ekan: "Erkin, bolam, piyozing uyimga ketaman deb, xarxasha qilaverib yuragimni siqib yubordi. Shuncha yalinsam ham ko'nmadi. Seni qattiq sog'inibdi. Ichikib, kasal bo'lib qoldi. Xafa bo'lma, uch-to'rt kun tabibga qaratsang, o'ziga kelib qoladi. Sen piyozingni yaxshilab davolatib tur. Kelasi hafta o'ttiz-qirq kishi bo'lib ko'rgani boramiz".

- Endi nima qilasiz? – desam, Erkin Vohidov chorasini aytdi.

- Hozir oqsoqolga qo'ng'iroq qilmoqchi bo'lib turuvdim. "Piyozning dardi og'ir ekan, sho'rlik o'lib qoldi", deb qo'ya qolaman.

- Esingiz joyidami? - dedim kapalagim uchib. – Oqsoqol piyozingning taziyasiga keldik deb, besh yuz kishini boshlab kelsa nima qilasiz?

- Buyog'iyam bor, - dedi Erkin aka o'ylanib. – Mayli, bir yo'lini qilarman.

Uch kundan keyin, Said Ahmad akaga Erkin Vohidovdan xat boribdi. Xatda shunday so'zlar bitilgan ekan.

"Ustoz! Piyozimni shuncha boqqaningiz uchun rahmat. Ikki kunda oyoqqa turib ketdi, kelib ovora bo'lib yurmanglar. "Yoshlik – beboshlik" deb shuni aytadi-da! Hayronman, tengini topibdimi, bitta piyoz bilan Oltiariqqa qochib ketdi!"

GO'ZAL

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen,
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir: men uni tushda ko'ramen.
Tushimda ko'ramen — shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!

Ko'zimni olamen oy chiqqan yoqqa,
Boshlaymen oydan-da seni so'rmoqqa
Ul-da aytadir: bir qizil yanoqqa
Uchradim tushimda, ko'milgan oqqa.
Oqqa ko'milganda shunchalar go'zal,
Mendan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Erta tong shamoli sochlarin yoyib,
Yonimdan o'tganda so'rab ko'ramen.
Aytadir: bir ko'rib, yo'limdan ozib,
Tog'-u toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko'rdim men uni - shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Ul ketgach, kun chiqar yorug'lik sochib,
Undan-da so'raymen sening to'g'ringda.
Ul-da o'z o'tidan bekinib, qochib
Aytadir: bir ko'rdim, tushdamas, o'ngda.
Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Men yo'qsil na bo'lib uni suyibmen,
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyibmen,
Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen,
Men suyib... men suyib kimni suyibmen?
Men suygan suyukli shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Cho'lpon.

NAZORAT ISHLARI UCHUN TOPSHIRIQLAR

MATNLARNI LOTIN YOZUVIGA O'GIRING

Аймад Югнакий

1. Аймад Югнакий XI-XII асрларда Туркистонда ьорахонийлар салтанати даврида яшаган мутафаккир шоир. А. Навоий “Насойимул-муъаббат” асарида Адиб Аймадни тасаввуф фалсафаси донишмандлари, азизлари ьаторида таърифлайди. “Ыибатул-ъаъойиъ” (“Севимли ьаъиъатлар”) асарида сабр, ьаноат, инсонпарварлик цояларини тарциб ьилади.

“Ыибатул-ъаъойиъ” ьажман кичик бщлса-да, у шарьона маънавий, ахлобий, фалсафий фикрларнинг етуклиги билан Юсуф Хос Хожибнинг “Ъутадцу билик” (“Саодат келтирувчи билим”) асарига ьин туради.

Аймад Югнакий камтаринлик, хушфеъллик, тавозеъни иймон, эътиьоднинг асосий шартларидан бщлган фазилатлар, деб билади (“Мщъминлик нишони тавозеъ эрур. Мулойимликни худо ьам ёътиради, такаббур одамни тангри тубанлаштиради. Щзингни зиньор улуц тутма. Улуц зот Тангридир. Одамларга улуцликни (иззат, обрщни) ьам Тангри щзи беради”). Аймад Югнакий “Тавозеъни ошириш ва кибрни ташлаш” ьаъидаги бобда бу ьаъда теран фикрларни айтади. “Кибр ьилишинг мол-дунё туфайли бщлса, унда сен эмас, молинг баланд мартабада экан-да. Мол-дунёнг сенга фойда бермайди, щлганингда яланчоч кетасан: ьамёнинг, сандицинг тщла мол-дунёнг ьолиб кетади. Наслинг билан маътаниб, бошьаларни насли паст дема. Барча одамлар Одам ато ва Момо Ёаво наслидандир”. Аймад Югнакий харисликни, очкщзликни кескин ьоралайди: “Харис (очкщз) одам щзи ьариса ьам, харислиги ьаримас. Очкщзнинг кщзи фаъат щлганида тщяди. Очкщз одамлар икки водий олтини бщлса ьам, учинчисини истайди. Ёанча харис бщлсанг ьам, пешонангга ёзилган ризъни топасан. Очкщзлигинг билан ризъ-насибангни яхшилаё олмайсан.

Аймад Югнакий “Ыибатул-ъаъойиъ”нинг сщнгги бщлимида хулоса ьиладики: “Ким карамли (одамларга меърибон), шафъатли бщлса, щша мард инсондир. Карамсиз, шафъатсиз одам мевасиз дарахтдир, бундай дарахт фаъат щтинга ярайди”. Югнакийнинг кщпчилик ьикматли сщзлари Ёурьон ва Ёадиси шарифга, исломий ьадриятларга асосланган: “Зиньор бировларга зулм ва зщравонлик ьилма. Аксинча, ьийналган одамларга кщмак бер. Ёмонлик ьилганга ьам яхшилик

ьилавер, щзи уялиб ьолади. Кимдан яхшилик кщрсанг, у одамни маъта, дуо ьил”.

Асарнинг охирги бщлимида Югнакий ьадислардан ильомланиб, шундай ьикматли сщзларни айтадики, бу сщзлар кейинчалик тилдан-тилга щтиб, халь маъолларига айланиб кетган (“Шошиб щйламай сщзлама”, “Ярамас сщзни яшир”, “Дщстинг минг бщлса оз”, “Душманнинг биттаси ьам кщп”, “Яхши феълинг билан инсон кщнглини ол”, “Яхшининг ьщлидан ёмонлик келмайди”. “Тикан экилса, узум битмайди”, яъни экканингни щрасан.. ва ьоказо”).

Аьмад Югнакий ьикматлари ьаётлигидаёь бепоён ьудудлардаги туркий хальлар орасида кенг шуьрат ьозонган.

Аьмад Яссавий

Аьмад Яссавий XII асрда яшаган атоъли щзбек шоиридир. У XII асрнинг бошларида Туркистоннинг Ясси шаърида зиёли оиласида туцилган. Дастлабки таълимни бобоси Асрлонбободан олган. Сщнг Бухорога бориб, мадрасада щьиган. Машъур шайхулислом Юсуф Ымадонийдан сщфизм таълимотини щрганган.

Туркистонга ьайтгач, сщфизмнинг Яссавий йщлига асос солган. Щз таълимотини халь орасида тез ва кенг ёйиш маъсадида Яссавий кщп шеърлар ёзган. Кейинчалик улар “Девони ьикмат” номи билан аловида китоб ьолига келтирилган. Яссавий 1166- йили вафот этган.

Носириддин Бурыониддин шўли Рабцузий

XIII асрнинг охири ва XIV асрнинг бошида Хоразмнинг Работи Шцуз мавзесида ьадимги шўбек насрининг илк вакили Рабцузий туцилади ва шша ерда яшаб ижод ьилади. Умр бшйи ьозилик ьилади.

Рабцузийнинг бизгача етиб келган яккаю ягона асари “Биссаси Рабцузий” (1311) ёки “Биссасул-анбийе”дир. Китоб ьисман назм аралаш ьисса ва ьикоятлардан иборат.

XV асрда китобнинг бизгача етиб келган энг ьадимий ьшлёмаси кшчирилди. Ёозир бу ьшлёмма Лондонда саьланади. Пайцамбар ва саьобаларга бацшшланган ьисса ва ьикоятларда ахлов-одоб, одамийлик цоялари тарциб этилади.

Нодира

1792- йил. Танийли шўбек шоираси, давлат арбоби, илм-фан ва маданият ьомийси Нодира Андижон шаьар ьокими Раьмоньулибой оиласида туцилди. Унинг исми Моьлар ойим бшлиб, у шўбек ва форс тилларида ёзган асарларида Нодира, Макнуна ва Комила тахаллусларини ьшллаган. Ёшлигидан илм-фан, турли тиллар ва ьуснихат билан шуцулланган. У Комил Хшжандий, Жомий, Навоий, Лутфий, Бедил, Фузулий каби шарьнинг буюк шоирлари ижодини севиб шрганди. Шзи ьам шеърлар ёза бошлади ва тез орада шоира сифатида шуьрат топди.

1808- йили Нодира билан амир Умархоннинг никоь тшйлари бшлади.

1822- йил. Нодиранинг суюкли ьамдами Умархон вафот этади. Энди мамлакатни бошьяриш Нодира зиммасига тушади.

1842- йил. Ьшўнга бостириб кирган Бухоро амири Насруллохон Нодирани, унинг фарзандлари билан биргаликда ваьшиёна ьатл ьилдиради.

Дилшоди Барно

Дилшоди Барно 1800- йили Шратепада шоир Раьмоньули Сшфи оиласида таваллуд топган. Амир Умархон 1812- йили Шратепани босиб олгач, бошья асирлар ьатори Дилшодни ьам Ьшўнга элтади. Бшлажак шоира Тошмаьдум деган кишининг хонадонидан пановы топади. Шўбек тилини мукаммал шрганиб, Дилшоди Барно тахаллуси билан цазаллар ёза бошлайди.

Дилшоди Барно дастлаб ьайнонаси билан, унинг вафотидан сшнг 51 йил мактабдорлик ьилади. Сарчашмаларда

891 шзбек ьизи унинг мактабида таъсил кшргани ёзиб ьолдирилган. Тштиъиз, Хайринисо, Баъринисо, Анбар отун сингари шоиралар бевосита Дилшоди Барнонинг шогирдларидандир. Ундан бизга ьадар тожик ва шзбек тилларидаги шеърларни шз ичига олган “Мунтахаб-ул ашър”, “Тарихи муъожирон” китоблари мерос бшлиб ьолган. Икки тилда баробар ижод этган зуллисонайн санъаткор Дилшоди Барно 1907- йили Ьшъонда вафот этган.

Имом ал-Бухорий

Имом Исмоил ал-Бухорий 810- йили туцилиб, 871- йили вафот этган. У киши Ислом оламида Пайцамбар ьадисларини тшплаб “Ал-жомиъ - саъиъ” (ишонарли тшплам) китобини яратувчи сифатида машшурдир. Бундан ташъари олимнинг Шаръ халълари ьамда Ислом тарихига доир бир неча асарлар ёзгани ьам маълум.

Шаръда ислом таълимотини ёйишда Имом ал-Бухорийнинг хизмати беъиёсдир.

Тараъиёт тимсоли

Тошкент телеминораси баландлиги жиъатидан Москвадаги Останкино телеминорасидан кейин иккинчи шринда, Шрта Осиёда мавжуд иншоотлар орасида эса энг баланди ьисобланади. Меъморлардан Н.Г. Терзиев-Царуков, Ю.Л. Семашко, муъандислардан Е.Б. Морозова, М.Д. Мушеевлар томонидан яратилган бу ажойиб ьурилмадан ьар хил баландликда атмосферанинг ьуйи ьатламини текширадиган ва халъ хшжалиги учун керакли ахборотларни йициш юзасидан ишловчи метеорология хизматини жойлаштириш кшзда тутилган. Баландликда ишловчи “Коинот” ресторанининг “Ъизил” ва “Зангори ” заллари, юз метрли баландликда жойлашган кузатув майдончаси телеминорага ташриф буюрганлар хизматида бшлади.

Карвонсарой

Дарвозаси шаръи-жанубга ьаратиб ьурилган бу донгдор саройни Тошкент, Самаръанд ва Бухоро савдогарлари эгаллаганлар. Сарой аъли кундузги ишларидан бшшаб, ьужраларига ьайтганлар, кшп ьужралар кечки ош пишириш билан машцул.

Саройнинг тшрида бошъаларига ьараганда кшркамроъ бир ьужра, бунда ьип-Ъизил гилам, ипак ва адрас кшрпалар, наригиларида бшз кшрпалар, ьорачироъ сасиганда, бу

ыужрада шам ёнадир, щзга ыужраларда енгил табиатли серчарчоь кишилар бщлганида, бу ыужранинг эгаси ыам бошьача яратилишда: оцир табиатли, улуц гавдали, кщркам ва оь юзли, келишган ьора кщзли, ьора ьошли йигит. Бандайдир бир хаёл ичида щтирувчи бу йигит Тошкентнинг машьур аъёнларидан бщлган Юсуфбек Хожининг щцли – Отабек.
(А. ьодирий. “Щтган кунлар”дан.)

Тщцрилик

Айтишларича, ьадим-ьадим замонда бир подшо кошона ьурдиришни ихтиёр этибди. У машьур ьунарманд усталарни ьузурига чаьириб, маьсадини айтибди. Усталар режа тузиб, энг тщцри, кам-кщсти йщь, баланд устун ахтаришиб, шаьару ьишлоьларни кезиб чиьишибди. Ниьоят, ёлциз яшовчи кекса аёл ьовлисидаги азим теракни танлашибди. Улар кампирга тилла тангалар бериб, теракни кесиб олиб кетибдилар. Уни саройнинг щртасига щрнатибдилар, зарьал наьшлар билан ишлов берибдилар. Устун эса сарой чиройини яна ыам очиб ьуорибди. Сарой битгач, одамлар уни томоша ьилгани келишибди. Саройни кщриш учун келган кампир ыам устунга ьараб: “Тщцри щсганинг учун мана шундай безаниб, эл эьтиборини тортиб турибсан. Эгри бщлиб щсганинга щтин бщлиб, ёниб кул бщлардинг. Тщцрилик сенга шунчалар иззат-икром бахш этди. Шу туфайли мен ыам йщьчиликдан ьутулиб, турмушим яхшиланиб кетди”, – деган экан.

Демак, тщцрилик, ьалоллик инсонни камолот сари етаклайди.

Баьор завьи

Эрта баьорда тупроь ьиди бошьача бщлади. Ёиш бщйи ьор ости-да ухлаб ётган ер кщкламнинг илиь-иссиь офтобидан уйцонади-ю, ьузур ьилиб керилаётганга щхшайди. Ёали селгиб улгурмаган тупроьдан нам аралаш ьуёш ьиди аньийди. Трактор оламни бузгудек тариллайди. Тутун ьиди керосин ьидига ьщшилиб кетади. Аммо бу ислар ернинг ёьимли бщйи олдида унча сезилмайди ыам. Трактор омочи палакса-палакса ьилиб ацдарган жой ьоп-ьорайиб ьолади. Совуь жойларга ьайтиб кетишга улгурмаган ьарцалар трактор устида цужцон щйнаб, пастга, ьазилган ерга щщнцийди. Аммо ьарцаларнинг чац-чуци энди цашга тегмайди. Бари бир эрта-индин беьи гулласа – тамом! Ёузцунлар учиб кетади.

Щ. Ёошимов. “Икки эшик ораси”дан.

DIKTANT YOZISH UCHUN MATNLAR

